

**Gilmanova N.V.**

**Rangtasvirda**

**YORUG'LIK**

va

**RANG**

**O'QUV QO'LLANMA**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT ARHITEKTURA-QURILISH INSTITUTI**

**Gilmanova N.V.**

# **RANGTASVIRDA YORUG'LIK VA RANG**

**«Dizayn»**

**yo'nalishi bo'yicha arxitektura fakulteti talabalari uchun**

**O'QUV QO'LLANMA**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan Respublika oliy ta'lim muassasalarining arxitektura  
fakultetlari talabalari uchun  
150 000 – “San’at” ta’lim sohasining  
5150900 – “Dizayn” (Arxitektura muhitlari dizayni) ta’lim yo’nalishi  
bo’yicha o’quv qo’llanma sifatida tavsiya etilgan, buyruq № 332/1,  
15.08.2012y.**

**Alisher Navoiy nomidagi  
O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti  
Toshkent - 2012**

**UDK 747.017.4/75**

**BBK 85.14**

**Gilmanova Nafisa Valiahmetovna.** «Rangtasvirda yorug'lik va rang»

Mazkur o'quv qo'llanma "Arxitektura" fakultetlarida "Dizayn" yo'nalishlari bo'yicha ijodiy kasblardagi talabalar uchun mo'ljallangan. Illyustrativ material sifatida muallif o'zining ijodiy ishlarini yorug'lik va ranglar qonuniyatlarini qidirish sifatida foydalanadi, shuningdek, o'zbek rangtasvir ustalarining asarlariga tayanadi. Ko'rgazmali material sifatida TAQI talabalarining rangtasvir bo'yicha olib borilgan mashg'ulotlarda bajargan ishlari taqdim etilgan.

Taqrizchilar: **1.** O'zbekiston badiiy akademiyasi akademigi, O'zbekiston Respublikasi xalq rassomi  
**Akmal Nuriddinov (Akmal Nur)**  
**2.** Arxitektura fanlari doktori, professor  
**Dodo Avazovich Nozilov**  
**3.** O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat arbobi **Saidakmal Rasulov**

Tarjimon: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish Markazi xodimi **Sherzod Boyqobilov**

Muharrir: **Shukur Qurbon**

**ISBN-978-9943-06-438-6**

**Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubhonasi nashriyoti – 2012y.**  
**Gilmanova Nafisa Valiahmetovna. «Rangtasvirda yorug'lik va rang»**

*Hozirgi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek rassomlarining keyingi yillarda samarali ijod qilib, yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritayotgani, bu sohaga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani uning ravnaqi va istiqbolidan dalolat beradi.*

*I.Karimov*



Rasm narsalarga shakl, bo'yoq – hayot beradi.  
U hamma narsalarni jonlantiruvchi ilohiy nafasdir.

*Deni Didro*

Agarki sen, shoir, ko'rinishlarni, shakllarni tasvirlashni aytib bera  
olsang, u holda rassom buni shunday qiladiki,  
ular yorug'-soya tufayli jonlangandek ko'rinadi.

*Leonardo da Vinchi*

## I. KIRISH

Arxitektor - dizaynerlarni ijodiy kasblar va mutaxassisliklarga o'qitish dasturiga boshqa fanlar qatorida rangtasvir mashg'ulotlari ham kiradi. O'quv va rangtasvirli (rassomlik) ijodiy ishlarni bajarish uchun talabalarga o'quv materiallari sifatida – akvarel, guash, pastel (rangdor yumshoq qalamlar), tempera (maxsus tayyorlangan bo'yoqlar), rangli qalamlar va h.k. taklif etildi.

**Mazkur o'quv qo'llanmaning maqsadi** talabalarda buyumning yorug'ligi va ranglarini uning belgisi sifatida, buyumning ranglarini muhitning va yorug'likning belgilari sifatida, va buyumdan aks etuvchi yorug'lik va ranglarni nurlanish (refleks) sifatida qabul qilishda odamdagi ko'rish qobiliyatining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlarni shakllantirishdan iboratdir. Shuningdek, unda akvarel bo'yoqlarda ko'pqatlamli rangtasvir (lessirovka) metodi bilan ishlash bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar berilgan, natyurmortda, peyzajda, portret va odam naturasidagi yorug'lik xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Ushbu qo'llanmada ish olib borishning metodik ketma-ketligi ko'rsatib o'tiladi va talabalarda nafaqat kasbiy ko'nikmalarni, balki qo'yilgan vazifani individual ijodiy his eta olishni ham shakllantirishga ko'maklashuvchi ma'lumot va axborotlar taqdim etildi.

O'quv qo'llanma "Arxitektura" fakultetlarida "Dizayn" yo'nalishlari bo'yicha ijodiy kasblardagi talabalar uchun mo'ljallangan.

Rangtasvir bo'yicha o'quv qo'llanma talaba arxitektor, dizaynerlarda naturaning (borliqning), undagi barcha ranglar munosabatining (uyg'unligining) turli-tumanligi bilan ko'rish, his qilish va tasvirlay olish qobiliyatini rivojlantirish, ilgari olgan uquv va ko'nikmalarini takomillashtirish, naturani yana ham faolroq o'rganish, realistik tasvirning ranglarga oid, yorug'lik va plastikka oid xarakterlarini aniqlay olishlari haqidagi masalalarni o'z ichiga oladi. Bunda asosiy o'quv shakli o'qituvchi rahbarligida talabalar tomonidan bajarilgan o'quv pastanovkalardan (asarlardan) iboratdir. Kursni o'tish vaqtida o'qituvchi turli xil rangtasvir texnikalariga va turli xil materiallarning (guash, akvarel, pastel (rangdor yumshoq qalamlar), tempera (maxsus tayyorlangan bo'yoqlar), qog'oz va b.) xususiyatlariga, shuningdek, rangshunoslik (rang kiritish) asoslariga katta e'tibor ajratadi. Arxitektor va dizaynerlarda professionalizmni tarbiyalash passiv tarzdagi fotografizmni rad etmog'i zarur. Tasviriy vositalar, bu – nuqta, chiziq, dog'. Talabaning rangtasvir postanovkasi (asari) ustidagi ishining yakuniy bosqichi – o'zining ranglar va tonal uslubi bo'yicha uyg'unlashgan o'quv asari yaratilmog'i uchun xizmat qilmog'i zarur, unda alohida ranglar va tonlar koloristik jihatdan bir-biriga moslashgan va umumiylikda kelishi lozim. Ishni olib borish ketma-ketligining asosiy tamoyili – umumiylikdan va qismanlikdan umumlashuvga.

O'quv qo'llanmada: "rangtasvir", realistik rangtasvirning vazifalari, yorug'lik va ranglarning tabiati, rang spektori, axromatik va xromatik ranglar, asosiy va qo'shimcha ranglar, iliq va sovuq ranglar va rangtasvirda ularning qo'llanilishi, rang gammasi, kolorit rangtasvirdagi eng muhim sifat va obrazli ifoda vositasi ekanligi haqida, sodda va murakkab maishiy buyumlar rangtasviri haqida tushunchalar berilgan, shuningdek, odam figurasini, jonivorlar, qushlar, arxitektura inshootlari, intererlarni tasvirlash bo'yicha rangtasvir vazifalari ham kurib chiqilgan. Natyurmort, portret, peyzaj, rangtasvir kompozitsiyalari va ularni turli xil texnikalarda (akvarel, guash, tempera, pastel) bajarish masalalari ochib berilgan. Zamonaviy

hayotdagi koloristika masalalari idrok etilgan, ranglarni idrok qilish psixologiyasining jihatlari va ularning shaxsga nisbatan ta'sirlariga to'xtalib o'tilgan.

Rangtasvir bo'yicha nazariya va amaliyotning ba'zi bir masalalarini kurib chiqamiz, bularni bilish esa arxitektor, dizayner talabalar uchun beriladigan o'quv pastanovkalarining bajarilish muammolarini yana ham yaxshiroq hal qilishga yordam beradi. Rangtasvirning asosiy qonunlarini, ranglarning o'zaro ta'sirlarini, ranglarning aralashuvlarini, ranglar kontrastligini, yorug'lik qonunlarini, rangtasvir texnikasini bilish rangtasvir kursi bo'yicha qo'yilgan masala va vazifalarni muvoffaqiyatli tarzda bajarishga yordam beradi.

## ***1. “RANGTASVIR” fani bo’yicha namunaviy ishchi dastur***

**Rangtasvir** – arxitektor va dizaynerlar tayyorlash tizimidagi eng muhim o’quv fanidir. **Mazkur kursning maqsadi** – bo’lajak arxitektor-dizaynerga professional darajadagi bilim va ko’nikmalarni berish, uning rangtasvir soxasidagi ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorlashdir.

Rangtasvir kursi talabalar uchun amaliy va mustaqil mashg’ulotlarni o’z ichiga oladi.

O’quv jarayonida eng muhim va asosiy holat – o’quv natura postanovkalarga ajratiladi, chunki ular dizaynerlarning professional kasbiy mahoratga ega bo’lishlarida, ularning ijodiy individualliklarini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Postanovkalar mavzulari, o’quv va ijodiy vazifalari bo’yicha turli-tuman, kompozision jihatdan qiziqarli bo’lishi va talabalarning badiiy didlarini rivojlantirishga xizmat qilishi zarur.

Postanovkalarining xarakteri va ularning bajarilish muddatlari namunaviy dasturda belgilab beriladi, biroq ba’zi bir alohida hollarda pedagog talabalarning darajalariga qarab, ularni o’zgartirishi mumkin bo’ladi. Postanovkalarining soni qisqartirilishi yoki ko’paytirilishi, shuningdek, ularning har biriga umumiy soatlar doirasida ma’lum miqdorda vaqt belgilanishi mumkin. Bunda beriladigan bilim va uning darajasi maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan va “soddalikdan murakkablikka tomon” tamoyiliga ko’ra, qat’iyan o’ylab chiqilgan bo’lishi zarur. Amaliy mashg’ulotlar talabalarning mustaqil ishlari jarayonida mustahkamlanib boradi.

Talabalar mustaqil ishlari semestr oxiridagi ko’rik vaqtida hisobga olinadi. Rangtasvirni o’rganishning asosiy turi uzoq davom etuvchi, ko’p soatli natura postanovkasi ustida ishlash hisoblanadi.

Rangtasvir planshetga tortilgan qog’ozda, kartonda, matoda, ton berilgan qog’ozda bajarilishi mumkin.

Dastur asosiy rassomchilik materiallari hisoblanuvchi – akvarel, guash, pastellar, rangli qalamlar, moy–buyoq, tush va boshqalarni o’rganishni ko’zda tutadi.

Hisobot ko’rigiga barcha o’quv postanovkalar, shuningdek talabalarning mustaqil vazifalari taqdim etiladi. Bajarilgan ishlarni baholashda nafaqat vazifaning rasmiy jihatdan bajarilganligi, balki shakllarning ishlab chiqilganlik darajasi, qo’yilgan vazifaning echimi ham hisobga olinishi lozim.

### **1.1. O’rganishning maqsad va vazifalari**

**Rangtasvir kursi** – rassom – dizayner va arxitektorlar tayyorlash tizimida eng muhim omillardan biridir.

#### **Uning vazifalari:**

1. Bo’lg’usi dizayner va arxitektorlarni rangtasvirning nazariy asoslari, rangshunoslik, perspektivalar, soyalar nazariyasi, kompozitsiyalar asoslari, rangtasvir texnologiyasi va texnikasi bilan tanishtirish;
2. Talabada atrof–borliqdagi buyumlar, voqea-hodisalar, ko’rinishlar va san’at asarlarini ko’ra olish va idrok qilish madaniyatini rivojlantirish;
3. Buyumning kenglik fazosi, atrof–muhit bilan o’zaro bog’liqlikda, ularning ranglari xususiyatlarini hisobga olgan holda tasvirlay olishga o’rgatish;
4. Ko’rish xotirasini rivojlantirish, talabalarni xotiralar, tasavvurlar va o’y-hayollar bo’yicha ishlashga o’rgatish;
5. Realistik rangtasvirning estetik mohiyatini va avangard san’atning turli xil yo’nalishlarini ochib berish;
6. Rangtasvirda zaruriy bo’lgan minimum bilimlarni va rangtasvirda fazoviy, kenglik va makonga nisbatan ko’nikmalarni berish.

**Rangtasvir** – dizayner va arxitektorlar tayyorlash tizimidagi eng muhim o’quv fanidir. Ushbu kursning maqsadi – bo’lg’usi dizaynerga professional kasbiy bilim va ko’nikma berish, uning rangtasvir sohasidagi ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va dizaynerni mustaqil ijodiy ishga

tayyorlashdan iboratdir. Rangtasvir bilan shug'ullanish talabada atrof–borliqni rangtasvir vositalari bilan realistik tarzda aks ettira olish uquvi, ko'nikmasi va qobiliyatini rivojlantiradi, uni estetik jihatdan tarbiyalaydi ham.

## **1.2. Fan bo'yicha talabalarning bilimlari, uquv va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar**

Rangtasvirlik mahoratini, professional kasbiy o'zlashtirish asosini talabaning amaliy faoliyati tashkil etadi.

Amaliy mashqlarda muhim e'tibor realistik shaklni qura olish bilimi va ko'nikmasiga ega bo'lishga, naturaning turli-tuman holatlarini yorug'lik va muhitdan kelib chiqqan holda, ko'ra bilish va bera olishga qaratiladi.

## **1.3. O'quv rejadagi boshqa fanlar bilan aloqalari**

Realistik rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini bilish talabalarga boshqa sohalarda ham zarur bo'ladigan ma'lum bir bilimlar ko'nikmasini beradi, masalan, rassom – dizayner va arxitektor amaliyotda.

Rangtasvir yorug'lik va ranglarning tabiatini ochib beradi, ranglarning asosiy xususiyatlarini namoyon etadi, havodagi perspektivalarning qonuniyatlarini, bo'yoqlarning qo'llanish texnikasi va texnologiyalari va ularni saqlashning turli xil usullarini o'rganadi.

O'quv jarayonida eng muhim rol o'quv natura postanovkalariga beriladi. Postanovkalar tematik (mavzuviy) mazmuni, o'quv va ijodiy vazifalari bo'yicha turli-tuman va kompozision jihatdan qiziqarli bo'lishi zarur.

“Rangtasvirni” o'rganish quyidagi fanlar bilan bog'liqdir:

1. Rangshunoslik;
2. Kompozisiya;
3. Plastik anatomiya;
4. Rasm;
5. Arxitekturaviy loyihalash;

## 6. Kompyuter texnologiyalari.

### **1.4. Fanni o'qitishda yangi texnologiyalar**

Postanovkalarining xarakteri va ularning bajarilish muddatlari dasturda belgilab beriladi, biroq ba'zi bir alohida hollarda o'qituvchiga talabalarning tayyorgarlik darajalariga qarab ularni o'zgartirish imkoniyati beriladi. Postanovkalarining soni qisqartirilishi yoki ko'paytirilishi, shuningdek, ularning har biriga o'quv rejasida ajratilgan umumiy soatlar doirasida ma'lum miqdordagi vaqt belgilanishi mumkin. Fanni o'qitish jarayonini yaxshilash uchun yangi o'quv-metodik majmua sifatida **UMK** modeli qo'llanadi. Ushbu texnologik andoza va kartalar amaliy va mustaqil mashg'ulotlarga oid tuziladi va sakkiz semestrda bo'linadi (1 – 4 kurslar) "Arxitektura muxitlari dizayni" - yo'nalishi- mutaxassisligi uchun mo'ljallanadi. Majmua naturadan ishlash akademik mashqlarini yoritib beradi.

### **1.5. O'rganish bo'yicha semestrlar va ko'rsatish metodikasi**

Har bir vazifa jiddiy o'ylab chiqilgan bo'lishi, ilgari olgan bilimlar va ko'nikmalar negizida qurilishi, tasviriy vazifalar echimida o'zining yangiligi bilan farqlanishi zarur. Shu bilan birgalikda, "soddalikdan murakkablikka tomon" tamoyili amalga oshirilishi lozim.

Kafedraning roli – mazkur ishni tashkillashtirish va yo'naltirishdan iborat (mashg'ulot uchun shart-sharoitlar yaratish, metodik ko'rsatma va tavsiyalar berish va h.k.).

Talabalar mustaqil ishi kafedra tomonidan nazorat qilinadi va semestr oxirida ularni attestasiyadan o'tkazishda hisobga olinadi.

Natura bilan ishlash - postanovkani idrok etish, uning estetik sifatlarini tahlil qilishdan boshlanadi – predmetlar shakli va ranglarning go'zalligi, yorug'lik ranglarining birikmasi, o'lchamlari, shakllari, ranglari va turlari bo'yicha turli xil bo'lgan predmetlar guruhlarining uyg'unligi, shuningdek, shakllarning naturaga nisbatan tanlangan nuqtasini va ko'rish



qobiliyati darajasini hisobga olgan holda, ularning perspektiv o'zgarishlarini tahlil etish.

Rangtasvirni tayyorlash yaxshi rasm asosida va kompozitsiyalar talablarini hisobga olgan holda olib boriladi.

### **1.6. O'quv ishlarining (vazifalarining) turlari bo'yicha umumiy yuklama**

Uzoq muddatli vazifalarni bajarish jaryoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

A) shakllarni – postanovkalar eskizlarini qalam va ranglarda ishlab chiqish;

B) etyudni ranglarda bajarish;

V) tayyorgarlik surati va asosiy vazifa ustida ishlash.

<b>bakalavriat yo'nalishi, shifri</b>	<b>Hammasi</b>	<b>Ma'ruza</b>	<b>Amaliy mashg'ulotlar</b>	<b>Laboratoriya mashg'ulotlari</b>	<b>Seminarlar</b>	<b>Kurs ishi</b>	<b>Mustaqil ta'lim</b>
<b>5150900 “dizayn”</b>	<b>988</b>	-	<b>544</b>	-	-	-	<b>436</b>

### **1.7. O'quv materialining mazmuni**

Rangtasvirni o'rganishning asosiy turlaridan biri uzoq muddatli – ko'p soatli natura postanovkasi ustida ishlash hisoblanadi. Bunda yuqori talab rangtasvir materiallaridan foydalanishga nisbatan qo'yilishi zarur.

Akvarel rangtasviri sifatli, planshetga yaxshi tortilgan qog'ozda, professional bo'yoqlarda, kolonok yoki olmaxon mo'ynalaridan tayyorlangan qilqalamlar vositasida bajarilishi zarur.

Rangtasvir bo'yicha dastur asosiy rassomchilikka oid materiallarni o'rganishni ko'zda tutadi – akvarellar, guashlar, temperalar, akril, pastellar

va moy- buyoqlar shular jumlasidandir. Barcha rangtasvir mashg'ulotlari tizimi rasm va kompozitsiyalar mashg'ulotlari bilan izchil aloqada bo'lishi talabalarda quyidagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga olib keladi:

- rassomchilik (badiiy) - kuzatuvchanlik;
- ko'rishga oid xotira;
- obrazli fikrlash;
- ijodiy tasavvur qilish;
- rang va ranglar munosabatlarini his qilish (sezish).

Talabalar bilimlari, uquv va ko'nikmalarining sifati yakuniy ko'rik o'tkazish va semestr davomidagi reyting baholar natijalariga ko'ra tekshiriladi. Ishni baholashda nafaqat vazifaning rasmiy jihatdan bajarilganligini, balki shakllarning ishlanganlik darajasini, qo'yilgan vazifaning echimini hisobga olish lozim. Imkon qadar, yakuniy ko'riklarni o'tkazishning har bir bosqichida komissiya a'zolari va kafedra mudirlari ishtirok etishlari lozim.

### **1.8. Amaliy mashg'ulotlar mavzularining taxminiy (namunaviy) ro'yxati**

**Rangtasvirning I-kursdagi maqsad va vazifalari:** Rangtasvir tushunchasi. Realistik rangtasvirning vazifalari. Rangtasvirli asarning yaratilishida rasmning roli. Tabiat va rangtasvirdagi rang. Tabiiy yorug'lik. Fazoviy (yoki havodagi) muhit bilan shartlangan (yoki bog'liq bo'lgan) rang. Rang bilan hajmli shakllarni yaratish qonuniyatlari.

I-kursda rangtasvir bo'yicha amaliy ishlarning asosiy turi natura bilan bajarilgan natyurmort, plenerda bajarilgan rangli homaki chizma loyihalar (etyudlar) hisoblanadi.

#### **Vazifalar mavzusi:**

Neytral fondagi gipsli geometrik jismlardan iborat natyurmort. Grizayl (akvarel – suv-bo'yoq).

Rangli fondagi shakli va rangdorligi bo'yicha sodda predmetlardan iborat natyurmort (akvarel).

Yorqin fondagi natyurmort (akvarel).

Qorong'u fondagi natyurmort.

Ranglari kontrastli bo'lgan natyurmort. (akvarel). Qizil fonda yashil rangli buyumlardan iborat natyurmort (ranglarning kontrastli, (bir-biriga mos tushmaydigan), juftlari, masalan, ko'k va to'q sariq rang, binafsha (fiolet) va sariq rang) (akvarel).

Bir biriga yaqinlashgan ranglardagi natyurmort (guash, akvarel).

Plenerdagi etyudlar (akvarel).

Issiq rang tusiga ega bo'lgan kontrastli ranglardan iborat natyurmort.

Sovuq rangga ega bo'lgan, kontrastli ranglardan iborat natyurmort (akvarel).

Guash. Ishning o'ziga xos xususiyatlari. Sovuq yorug'lik bilan yoritilgan natyurmort.

Guash. Issiq yorug'lik bilan yoritilgan natyurmort (guash).

Rangli fondagi oq predmetlardan iborat natyurmort (guash).

Bahor peyzajlarining qisqa vaqtli etyudlari (akvarel).

Arxitekturaviy binolar etyudlari (akvarel).

**Rangtasvirning II-kursdagi maqsad va vazifalari:** *Rang gammasi. Kolorit – rangtasvirning eng muhim sifati va rangtasvirda obrazli ifodalash vositasidir. Kolorit qonuniyatlari. Rangtasvirning bir butunligi (yaxlitligi). Rangtasvirni yaratishda (tashkillashtirishda) rang reflekslarining roli.*

II kursda amaliy vazifalarning asosiy turi interer rangtasviri, gipsli boshdan iborat natyurmort rangtasviri va naturachi boshining rangtasviridan iborat.

Ma'lum bir rang gammasidagi gipsli ornamentdan iborat natyurmort (guash, akvarel).

Yorug'likka qarama-qarshi natyurmort (guash, akvarel).

Interer qismining rangtasviri (deraza yoki ochiq eshikdan iborat), (akvarel).

Murakkab bo'lmagan kuzgi peyzaj etyudlari (akvarel, guash, pastel).

Gipsli bosh natyurmorti (akvarel).

Manzarali (dekorativ) natyurmort (guash, tempera, pastel).

Intererdagi natyurmort (akvarel, guash, tempera).

Bahoriy peyzaj etyudlari (talaba tanlovi uchun material).

Rang koloriti bo'yicha yaqin bo'lgan gipsli bosh natyurmorti (akvarel, guash).

Naturachi boshining neytral fondagi etyudi. Grizayl (akvarel, guash).

Katta shaklni yasashda naturachi boshining rangli fondagi etyudlari (akvarel, guash).

Naturachi boshining elka bilan etyudi (akvarel, tempera, pastel).

Naturachi boshining rangli qog'ozdagi etyudi (guash, akvarel).

**Rangtasvirning III - kursdagi maqsad va vazifalari:** hajmli shaklni yasashning o'ziga xos xususiyatlari. Katta shakl tushunchasi va rangtasvirni ishlashda detallarning ahamiyati. Individual o'xshashliklarga erishish yo'llari va xarakter bera yaratish.

III-kursda asosiy e'tibor tirik (jonli) modellarga qaratiladi. Naturachi boshining hajmli-plastik echimi, uning xarakteri berilgan holdagi, natura yorug'ligi.

Naturachi boshining qorong'u fondagi etyudi. Grizayl (akvarel, guash).

Aniq ifodalangan anatomik shaklli bosh etyudi (akvarel, guash).

Neytral fondagi bosh etyudi (akvarel, guash).

Rangli fondagi ayol boshining etyudi (to'g'ridan-to'g'ri yorug'lik), (akvarel, guash).

Qorong'u rang fonida elka-poyasli keksa kishi boshining etyudi. (akvarel, guash).

Torsli bosh etyudi. Yarimfigura (akvarel, guash).

Qo'llar mavjud bo'lgan bosh etyudi. Kiyimli yarimfigura, (guash, akvarel).

Intererdagi yarimfigura.

Milliy kiyimli yarimfigura (akvarel, guash).

Kiyimli figura.

**Rangtasvirning IV - kursdagi maqsad va vazifalari:** IV kursda portret va figuraning o'quv-nazariy vazifalari echiladi

Naturaning eng xarakterli individual xususiyatlarini – xarakterlarini, shaklini, harakatlarini, mutanosiblikni (proporsiyasini), qurilmaviy (konstruktiv) tuzilishini, odamning psixologik holatlari, kasblar, atrof-muhit va h.k. lar bilan bog'liq bo'lgan kayfiyatini, uning turish holatidagi (pozasidagi) ifodalilikni, mimikasini, imo-ishoralarini aniqlash va chiqarib berish.

Kiyimli yorug' fondagi kishi figurasi (to'g'ridan-to'g'ri yorug'liklik tushish), (guash, akvarel).

Deraza yoki eshik oldidagi kiyimli kishi figurasi (yorug'likka qarama-qarshi) (akvarel, guash).

Rangli fondagi kiyimli kishi figurasi (akvarel, guash).

Intererdagi kiyimli kishi figurasi (gips figurali yoki torsli tematik (mavzuga oid) postanovka), (akvarel, guash).

Yorqin fondagi figura (akvarel, guash).

Intererdagi figura. (akvarel, guash).

Figura etyudi (akvarel, guash, pastel).

Ikki figurali postanovka etyudi (kiyimli figuralar), (akvarel, guash, pastel).

### **1.9. Mustaqil ta'limning mazmuni**

**Neytral fondagi gipsli geometrik jismlar natyurmorti. Grizayl (akvarel).**

Postanovkani ma'lum shaklda kompanovka qilish; buyumlarning hajmini chiqarib, muayyan yorug'likni hisobga olgan holda chizish, asar yaratish.

**Neytral fonda shakli va rangdorligi bo'yicha sodda predmetlardan iborat natyurmort (akvarel).**

Natyurmortni ma'lum formatda kompanovka qilish; tasvirlanayotgan buyumlarni chizish, muayyan yorug'likni hisobga olgan holda, unga ranglar bilan hajm berish.

### **Yorqin fondagi natyurmort (akvarel).**

Tonli kontrastdagi ko'rinishlarni o'rganish; kompanovka qilish, chizish, rangi bo'yicha yorqin tonli buyumlar bilan bog'lagan holda, rangda yaratish.

### **Qorong'u fondagi natyurmort.**

Kontrast ko'rinishlarni amaliy o'rganish; kompanovka qilish, chizish, rangi bo'yicha qorong'u tonli buyumlar bilan bog'lagan holda, rangda yaratish.

### **Ranglari bo'yicha yaqin bo'lgan buyumlardan iborat natyurmort (akvarel).**

Tasvirni ma'lum formatda kompanovka qilish; predmetlar guruhini chizish, yaratish. Muayyan yorug'likni hisobga olgan holda, hajm va rang berish.

### **Kontrast rangli buyumlardan iborat bo'lgan natyurmort (qarama qarshi ranglar jufti, masalan ko'k va to'q sariq, binafsha va sariq), (akvarel).**

Rangli kontrast ko'rinishlarni o'rganish; tasvirlanayotgan buyumlarni muayyan yorug'likning, issiq va sovuq ranglarning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, ranglar hajmini berib, ma'lum formatda kompanovka qilish, asar yaratish.

### **Ranglari bo'yicha kontrast bo'lgan buyumlardan iborat natyurmort (akvarel).**

Borliqdagi buyumlar ranglarining o'zaro ta'sirlarini va muayyan yorug'likni hisobga olgan holda, buyumlarning hajmi va ranglarini berib, ma'lum bir formatda kompanovka qilish, chizish va natyurmort yaratish.

### **Plenerdagi etyudlar (akvarel).**

Qisqa muddatli etyudlarda tabiat holatining xarakterini, plenerlik hissini rangtasvir vositalarida berish.

### **Issiq ranglarga ega bo'lgan kontrast natyurmort.**

Issiq ranglar tusini, ularning o'zaro ta'sirlari va muayyan yorug'likni hisobga olgan holda, kompanovka qilish va natyurmortni chizish.

### **Sovuq ranglarga ega bo'lgan kontrast natyurmort.**

Sovuq ranglarni, ularning o'zaro ta'sirlari va muayyan yorug'likni hisobga olgan holda, kompanovka qilish va natyurmortni chizish.

**Guash. Ishning o'ziga xos xususiyatlari. Sovuq rang bilan yoritilgan natyurmort.**

Yorug'lik va ranglarning o'zaro mosliklarini hisobga olgan holda, buyumlar guruhini kompanovka qilish, chizish va asar yaratish.

**Guash. Issiq rang bilan yoritilgan natyurmort (guash).**

Ranglarni idrok etishda yorug'lik ta'sirini o'rganish; yorug'lik va ranglarning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, buyumlarni kompanovka qilish, chizish.

**Rangli fondagi oq buyumlardan iborat bo'lgan natyurmort (guash).**

Muayyan yorug'likni hisobga olgan holda, hajm va fon ranglarining oq buyumlarga o'zaro singib ketganligini berib kompanovka qilish, chizish.

**Bahoriy peyzajlarning qisqa muddatli etyudlari (akvarel).**

Tez o'zgaruvchan yorug'likka, yorug'lik va soyalardagi rang-tuslariga ega bo'lgan plenerli sharoitlarda qisqa muddatda yaratilgan namunalar.

**Arxitekturaviy binolar etyudlari (akvarel).**

Ochiq havoda ranglarni hisobga olish, chiziqli va havo perspektivalarini berish.

**Ma'lum bir rang gammasida gipsli ornament (naqsh) natyurmorti (guash, akvarel).**

Natyurmortning yorug'lik tabiatini hisobga olgan holda, mavjud rang gammasini berib kompanovka qilish, chizish va yaratish.

**Yorug'likka qarama-qarshi (holdagi) natyurmort (guash, akvarel).**

Rang reflekslariga e'tibor bergan holda, yorug'lik fonida eng ko'p darajada siluetga o'xshab ko'ringan buyumlar yorug'ligining o'ziga xos xususiyatlarini berib, natyurmortni kompanovka qilish, chizish va yaratish.

**Interer qismining rangtasviri (deraza yoki ochiq eshikli), (akvarel).**



Kompanovka qilish, shaklga keltirish, perspektivalarni hisobga olib, intererining yoritilganlik xarakterini bergan holda, rangli tasvir yaratish.

**Murakkab bo'lmagan kuzgi peyzajlar etyudi (akvarel, guash, pastel).**

Qisqa muddatli etyudlarda tabiat holatining xarakterini, plenerlik hissini rangtasvir vositalarida berish.

**Gipsli bosh natyurmorti (akvarel).**

Hajm, tonli munosabatlar va yorug'lik xarakterini berib, natyurmortni kompanovka qilish, chizish va yaratish.

**Dekorativ (manzarali) natyurmort (guash, tempera, pastel).**

Dekorativ (manzarali) echim tamoyillarini (prinsiplarini) tushuntirish, tekis (yassi), lokal tarzda yaratish (chizish) usullaridan foydalanish.

**Intererdagi natyurmort (akvarel, guash, tempera).**

Formatda kompanovka qilish, interer va natyurmortning uzoqdan ko'rinishi va muayyan yorug'ligini hisobga olgan holda chizish.

**Bahor peyzajlari etyudlari (talabning tanlovi bo'yicha material).**

Natyurmortni kompanovka qilish, chizish va chegaralangan miqdordagi bo'yoqlarni qo'llab asar yaratish.

**Kolorit bo'yicha yaqin ranglardagi gipsli bosh natyurmorti (akvarel, guash).**

Yorug'lik tabiatini hisobga olgan holda kompanovka qilish, chizish va yaratish; bosh shaklini detallar bilan ishlov berib (maydalamagan) holda, "katta shaklning" ko'proq tonal va ranglar munosabatlarini berish.

**Katta shaklni qurishda (yaratishda) naturachi boshining etyudlari (akvarel, guash).**

Muayyan yorug'lik va modelning o'ziga hos xususiyatlarini hisobga olgan holda, boshni chizib olish va asar yaratish.

**Naturachi boshining yorug' kundagi etyudi (akvarel, tempera, pastel).**

Muayyan yorug'lik va modelning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda boshni chizib olish va asar yaratish.

**Naturachi boshining sun'iy yorug'likdagi etyudi (guash, akvarel).**

Qisqa muddatli etyudlarda plenerlik hissini va tabiatning holatini, rang gammasining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirish.

**Yorug' fonda naturachi boshining etyudi. Grizayl (akvarel, guash).**

Boshning "katta shaklini" qurish vositalarini, bosh va fonning tonal munosabatlarini o'rganish.

**Qorong'u fonda naturachi boshining etyudi. Grizayl (akvarel, guash).**

Boshning "katta shaklini" qurish vositalarini, bosh va fonning tonal munosabatlarini o'rganish.

**Aniq ifodalangan, anatomik shakldagi bosh etyudi. (akvarel, guash).**

Boshning "katta shaklini" qurish vositalarini, bosh va fonning tonal munosabatlarini o'rganish.

**Neytral fondagi bosh etyudi (akvarel, guash).**

Portretlanuvchi boshining anatomik xususiyatlarini va yorug'likning xarakterlarini hisobga olgan holda, formatda kompanovka qilish, qurish, yaratish.

**Rangli fondagi ayol boshining etyudi (to'g'ridan-to'g'ri yorug'lik), (akvarel, guash).**

Portretlanuvchi boshining anatomik xususiyatlarini va yorug'lik tabiatini hisobga olgan holda, shaklda kompanovka qilish, qurish, yaratish.

**Qorong'ulik rang fonida elkasi bilan keksa kishi boshining etyudi (akvarel, guash).**

Tasvirni shaklda kompanovka qilish, chizish, yorug'lik tabiati va natura ranglarining o'zaro ta'sirlarini hisobga olgan holda, asar yaratish.

**Yalang'och (torsli) tana va bosh etyudi. Yarimfigura (akvarel, guash).**

Yarimfigurani formatda kompanovka qilish, uni qurilmaviy (konstruktiv) tarzda qurish (tayyorlash), portretlanuvchining xarakteristikalarini va yorug'likning xususiyatlarini hisobga olgan holda asar yaratish.

**Qo'llar va bosh etyudi. Yarimfigura (kiyimli) (guash, akvarel).**

Yarimfigurani portretlanuvchining tabiatini, postanovkaning rang gammasini, yorug'likni hisobga olgan holda kompanovka qilish.

**Intererdagi yarimfigura.**

Havodagi masofani hisobga olgan holda intererda berish.

**Kiyimli yarimfigura (akvarel, guash).**

Figurani kompanovka qilish, chizish, tanglar tuzilishi va yorug'lik xarakterlarini hisobga olgan holda asar yaratish, figurani fon bilan bog'lash.

**Kiyimli figura.**

Figurani formatda kompanovka qilish; tasvir bir butun va kenglikda (fazoda) qabul qilinishi (idrok etilishi) uchun figurani naturaning xarakterini, yorug'likning o'ziga xos xususiyatlarini, hisobga olgan holda asar yaratish.

**Yorug' fondagi kiyimli odam figurasi (to'g'ridan-to'g'ri yorug' tushish), (guash, akvarel).**

Ma'lum bir yorug'likda figuraning rangli holatini berish.

**Deraza yoki eshik oldidagi kiyimli odam figurasi (yorug'likka qarama-qarshi), (akvarel, guash).**

Rasm chizuvchiga qarama-qarshi holatdagi yorug'likli sharoitni tahlil qilish, figuraning rangli holatini berish.

**Rangli fondagi kiyimli odam figurasi (akvarel, guash).**

Postanovkani kompanovka qilish, chizish va asar yaratish; uning ranglarini yorug'lik va ranglarning o'zaro ta'sirlarini hisobga olgan holda, uyg'unlashtirish.

**Intererdagi kiyimli figura (gips figurali yoki torsli tematik (mavzuga oid) postanovka) (akvarel, guash).**

Postanovkani formatda kompanovka qilish, chizish, ranglar tuzilishi tabiatini va yorug'likning xususiyatlarini hisobga olgan holda, asar yaratish.

**Rangli fondagi figura (akvarel, guash).**

Kompanovka qilish, chizish va figura yaratish, uni fonning rangi va yorug'likni hisobga olgan holda uyg'unlashtirish.

### **Intererdagi figura (akvarel, guash).**

Figurani kompanovka qilish, chizish; figura va intereraning rangli holati tabiatini, havo masofasini berish.

### **Figura etyudi (akvarel, guash, pastel).**

Figura tabiati va uning rangli xususiyatlarini ochib berish.

**Ikki figurali postanovka etyudi (kiyimli figuralar), (akvarel, guash, pastel)** Postanovkani formatda kompanovka qilish; uni chizish, yorug'lik va ranglarning o'zaro ta'sirlarini hisobga olgan holda, ranglarni uyg'unlashtirib asar yaratish.

## ***2. “Rangtasvir” tushunchasi***

**“Rangtasvir”** – qadimgi tasviriy san’at turlaridan biri bo’lib, kech (so’ngi) paleolit (40—8 ming yil ilgari) davrida yuzaga kelgan. Qoyalarga o’yib yozilgan (solingan) yozuv va tasvirlar (Janubiy Fransiyadagi Fon-de-Gom g’orlarida, Shimoliy Ispaniyadagi Altamira va b.) saqlanib qolgan, ular er bo’yoqlari bilan bajarilgan (qizil, sariq va jigarrang, oxra va umbralar bilan (oxra – sariq yoki qizil tusli mineral bo’yoq, umbra – jigarrang mineral bo’yoq), qora qurum (kuya) va yog’och ko’mirlari bilan yorilgan tayoqchalar, mo’yna parchasi va barmoqlar yordamida amalga oshirilgan; ularda alohida jonzoatlarning haqqoniy, ifodali va dinamik tarzda tasvirlari, ov sahnalari ham aks ettirilgan.

O’zga san’at turlari orasida, ular vaqti o’tgan sari eng muhim tasviriy vosita bo’lib hisoblanib kelingan, keyinchalik san’atning boshqa turlariga o’rnini bo’shatib bergan xolos. Albatta, rangtasvir arxitektura yoki haykaltaroshlik kabi umrzoq emas, shuning uchun ham, Qadimgi Gresiya, Rim va Afrosiyob san’atini to’la bila olmaymiz.

Tarix fanlari doktori V.A.Shishkinning bergan ma’lumotiga ko’ra, Afrosiyobning peyzajli bareleflari eramizning birinchi asrlarida Samarqand ustalarining tasviriy san’atlari yuqori darjada va o’ziga tiniqligini saqlab qolgan bo’yoqlarning birlashuvi, xilma-xilligi tomoshabinni zavqlantiradi va o’ziga maftun etadi. Ular kishida noxush taassurot uyg’otmaydi. Devordagi ushbu naqsh va bezaklar uyg’unlashgan

tarzda, o'zaro bog'liqlikda bo'lib, yorqin bahoriy gullar dastasi kabi ko'zni quvontiradi. Rasmning nozikligi, barcha detallarning diqqat va puxta bezatilganligi, yuz va figuralar ifodali tarzda, aniq ravshan chizilganligi kishini hayratga soladi. Bularning barchasi ko'p asrlik san'at an'alarining mahsuli ekanligini ko'rsatib turibdi. Ayniqsa, zamonlar sinoviga dosh berib kelgan ushbu bo'yoqlarning kimyoviy tarkibi mustahkamligi va barqarorligi bilan kishini hayratlantiradi. Ularning devorlari yuqori darajali badiiy (musavvirona) naqshlar va rasmlar bilan bezatilgan, ular devoriy loyli suvoqda, elimli bo'yoqlarda bajarilgan. Arxeolog D.P.Varxotova qazilma ishlarini olib borgan xonalardan birida o'ziga xos janrli kartinalar topilgan bo'lib, ular devorlarda uch yarusli tarzda joylashgan edi. Mazkur kartinalar o'zidagi bo'yoqlar va ranglarning yorqinligi bilan ajralib turishi o'z yaratuvchilarining yuqori darajali mohirligi va ustaliklari haqida guvohlik berib turadi, ular O'rta Osiyo madaniyati tarixining hali o'rganilib chiqilishi uchun o'ta boy material in'om etgan .

**Rangtasvir** – bu ranglar san'atidir. Rang kartinada bizni maftun etuvchi, sehrlovchi va o'ziga shaydo qiluvchi va shu bilan birga, kishiga rohatbaxsh huzur beruvchi “musiqa” yaratadi.



Rangtasvir qattiq sirtida bo'yoqlar bilan bajarilgan. U o'zining amaliy maqsadiga ko'ra monumental, dastgohli, ikonanavislik, miniatyurali,

teatral-dekorativ va b. chizgi va rasmlarga ajratiladi. Rangtasvirning har bir turi o'ziga xos xususiyatiga (spesifikasiga) ko'ra farqlanadi. Bu narsa texnik ijroga ham, badiiy-obrazli vazifalar ijrosiga ham taalluqlidir.

### ***3. Realistik rangtasvirning vazifalari***

Natyurmortni, peyzajni, odam figurasini tasvirlashda rangtasvir doimo shakllarni, ranglarni, yorug'likni, materiallar va kenglikni ifodalash bilan ish ko'radi. Rangtasvir asarining shakli – rangtasvirchining eng birinchi vazifasini tashkil etadi. Bir butunlikning ranglar uyg'unligi va kartinaning alohida qismlari va predmetlarining ranglar xarakteristikasi shular jumlasidandir: bunda yorug'lik va kenglik – rangtasvirning uyg'unlik beruvchi, birlashtiruvchi va bog'lovchi ibtidosi va asosi sifatida keladi.

### ***4. Yorug'lik va ranglar tabiati***

Dunyoni biz yorug'lik va ko'rish qobiliyatimiz tufayli ko'rayapmiz. O'z yorug'lik nurlarini taratuvchi jismlar – quyosh, qizigan metallar va gazlar, gulxan, chiroq va h.k. – yorug'likning bosh (asosiy, yoki dastlabki) manbalari deyiladi. Dastlabki, manbalarning yorug'ligi (to'g'ridan-to'g'ri tushuvchi, ya'ni to'g'ri tushuvchi yorug'lik deyiladi) atrofdagi ob'ektlar va predmetlarga tushadi. Qisman nurlar ob'ektlar va predmetlar tomonidan yutiladi, ba'zi qismi esa, akslanadi. Natijada, ushbu ob'ektlar va predmetlarning o'zlari akslanayotgan yorug'likning manbalariga aylanib qoladi (masalan, oy, er, erusti predmetlari, osmonu falak). Predmetdan aks etayotgan yorug'lik, o'z navbatida atrofdagi qo'shni predmetlarga tushib, reflekslarni keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, tabiatda ko'rinib turgan ob'ektlar va predmetlar to'g'ridan-to'g'ri tushuvchi va aks etuvchi yorug'lik bilan yoritilgan. Birinchisi, ob'ektlar va predmetlardagi asosiy yorug'likning xarakterli ranglarini, ularning eng ko'proq yoritilgan joylarini, shu'lalarini ko'rsatadi. Yorug'lik manbaining kuchi bo'yicha ikkinchi darajali bo'lgan, akslanayotgan yorug'lik, birinchidan, buyumlar soyalarining umumiy

rangdorlik tusi va yarimtonlarini, ikkinchidan, turli-tuman mahalliy reflekslarni belgilab beradi.


To'g'ridan-to'g'ri va aks etuvchi yorug'lik birlashmasi (to'plami), ularning quyuq-to'qligi (yoki intensivligi) va spektral tarkibi tabiatda yorug'lik-rang muhitini tashkil etadi, bu esa, predmetning ranglari ko'rinishining xarakterli qirralarini, yorug'-soyaligini, shuningdek, tabiat koloritining umumiy rangdorligini (ranglarini) va yorqinligini aniqlab beradi.

Quyosh kabi bosh (asosiy yoki dastlabki) manbaning yorug'ligi rangtasvir uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Quyosh yorug'ligi butun tabiatning yorug'lik va ranglar boyligini, uning koloristik qiyofasini aniqlaydi.

## 5. Rang spektri

### Oq tusli quyosh yorug'ligi nimani namoyon etadi?

Agarki qorong'u xonaga kichikroq teshikdan (tuynukdan) quyosh yorug'ligi-nurini tushirsak (yoki o'tkazsak) va uning yo'liga shisha uchqirrali prizmani qo'ysak, u holda qarama-qarshi tomondagi oq



devorda (yoki ekranda) oq tusli yorug'lik dog'ining o'rnida ko'p ranglardan iborat bo'lgan ranglar dastasi paydo bo'ladi. Aynan mana shu ranglar dastasini – **spektr** deb nomlash qabul qilingan. Spektrdagi ranglar



qat'iy ma'lum bir tartibda joylashadi: qizil, to'q sariq, sariq, yashil, moviy (yoki zangori), ko'k, binafsha (yoki fiolet rang). Har bir rang sekinlik va sezilarsiz tarzda, keskin chegaralarsiz, ko'pgina oraliq (o'tuvchi) ranglarni paydo qilgan holda, boshqa bir rangga o'tadi. Quyosh yorug'ligi o'ta ko'p ranglar tarkibi, ularning butun uzunligi bo'yicha yorqinligi bilan xarakterlanadi. Past haroratli manbalardan taraluvchi yorug'lik quyuoq-to'qligi (yoki intensivligi) bo'yicha kuchsizroq (yoki xiraroq) va spektral tarkibi bo'yicha kambag'alroq (yoki siyrakroq) bo'ladi: binafsha (fiolet), ko'k (to'q ko'k) havo rang nurlar kuchini yo'qotadi. Haroratning pasayib borishi bilan yorug'lik sarg'aya boshlaydi, keyin to'qroq sariq rangga kirib, so'ngra qizil rangga ega bo'ladi. SHu kabi, gulxanning rangi ham yorqin olov rangdan sekin-asta so'nib borayotgan ko'mir cho'g'i rangiga o'zgarib boradi. Yuqori haroratli nurlarning rangi, o'ta past haroratli dastlabki manbalardan taraluvchi nurlar rangiga nisbatan "sovuqroq" ko'rinadi. Masalan, xira sham olovining rangi. Mazkur holatda rasm chizuvchi uchun shu narsa muhimki, bunda turli xil yorug'liklar (kunduzgi bulutli kunda, quyosh botishida, sun'iy yorug'likda va h.k.) o'zining rangtasviriy ifodalash vositalarini, o'zining bo'yoqlar mutanosibligini (politrasi) talab etadi.

## ***6. Ranglarning asosiy xususiyatlari***

Qizil, to'q sariq, sariq, yashil, havo rang (yoki zangori, moviy), ko'k, binafsha (fiolet) ranglar va barcha ularning oraliq rang tulari – **xromatik** (rangli) deb yuritiladi. Tabiatdagi barcha ko'rinuvchi oq, kul rang va qora ranglarni – **axromatik** (rangsiz) deb yuritish qabul qilingan. Xromatik ranglar bir-biridan **ranglar tusi** (tonlari) bilan, **to'yinganligi** (quyuoq-to'qligi – yoki intensivligi) va **oqish rangligi** (svetlota yoki oqishroq, ochroq – oqish rang) bilan farqlanadi. (rasm 1.)



**Rasm 1. Ranglarning uchta asosiy xususiyati:  
a - ranglar tusi, b - to'yinganlik, v – oqishlik**

**Ranglar tusi** (toni) deyilganda, bizning har kungi hayot tarzimizda qizil, yashil, binafsha, qizil-to'q-sariq, sariq-yashil va b. ranglar deb ataydigan ranglarimiz tushuniladi.

**To'yinganlik** – bu xromatik ranglarning o'zidagi yorug'ligi, ochroqligi bo'yicha kul rangdan farqlanish darajasidir. To'yinganlik etolono sifatida spektr ranglar qabul qilingan. Tabiatning rangi spektr rangiga qanchalik yaqinlashsa va uning farqi kul rangdan qanchalik kuchliroq bo'lsa, u shunchalik to'yingan hisoblanadi.

Xromatik ranglarning to'yinganligi tabiatda bir xilda emas – biror- bir rangda u ko'proq ifodalangan, boshqasida esa kamroq. Kamroq to'yingan ranglarga misol tariqasida och-sariq, pushti, och-moviy, och jigarrang (yoki och sarg'ish) yoki to'q-jigar rang, to'q-ko'k va b. ranglar xizmat qilishi mumkin. SHu bilan birga, yorqin-qizil (alvon rang), ko'k, yashil ranglarda ranglar toni yuqorida keltirilgan ranglarga nisbatan ahamiyatliroq ifodalangan. Amaliyotda kamroq to'yingan ranglarni xromatik ranglarga oq yoki qora bo'yoqni qo'shish yo'li bilan olish mumkin. Oq bo'yoqni qo'shishdan hosil bo'lgan rang ochroq bo'ladi, qora rangdan esa qoramtir rang paydo bo'ladi. Xromatik ranglarga axromatik

ranglar qanchalik ko'proq aralashtirilsa, u shunchalik o'zining to'yinganligini yo'qota boradi va axromatik rangga yaqinlasha boradi. Xromatik ranglarning to'yinganligini (masalan, ko'k va yashilni) o'zaro tenglashtirish mumkin, buni ularning biriga yoki ikkisiga ham ma'lum miqdorda oq yoki qora bo'yoq qo'shish yo'li bilan erishish mumkin. Akvarelda ranglarning to'yinganlik darajasi mo'yqalamga (cho'tkachaga) shimilgan (olingan) suvning, pigmentning miqdoriga, shuningdek asosning toniga ham bog'liq bo'ladi.

**Oqishlik** – bu ranglarning oq rangga yaqinlashish darajasi. Xromatik (rangli) ranglar turli xil oqishlikka ega bo'ladi. Masalan, sariq rang va uning rang tusi (ottenkasi) jigar rang, binafsha rang va ko'k ranglarga nisbatan sezilarli darajada oqishroqdir. Oqishlik ranglar to'yinganligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikda joylashishi (bo'lishi) mumkin (masalan, yorug'lik va to'q-qizil pomidor). Ranglar oqishligi buyumning qaysi fonda qaralishiga ham bog'liq bo'ladi. Oqishligi (yoki yorug'ligi) bo'yicha ko'rinuvchi ranglarga baho bera olish va ularning farqlarini ko'rsatib bera olish rasm chizuvchining turli xil grafik texnikalarda qalam bilan rasm chizishida ham, rangtasvirdagi amaliy faoliyatida ham o'ta muhimdir. Rasm chizuvchi turli xildagi xromatik ranglarni oqishligi bo'yicha tenglashtirishga tez-tez to'qnash keladi, chunki bu ranglar jilosini shaklning umumiy rangtasviriy echimiga buysundirish (keltirish) uchun kerak bo'ladi.

**Ranglar tusi, to'yinganlik va oqishlik** har qanday ixtiyoriy bizga ko'rinuvchi rangni xarakterlab bera oladi. Ranglar xarakteristikalaridan birortasining o'zgartirilishi boshqa ranglarning ham o'zgarib ketishiga olib keladi. Masalan, agar yashil bo'yoqqa oqni qo'shadigan bo'lsak, u holda ushbu yashil rangning to'yinganligi (quyuqligi) ham, uning oqishligi ham o'zgaradi. Axromatik ranglar bir-biridan faqatgina oqishligi bo'yicha farqlanadi, ya'ni bir rang boshqasiga nisbatan oqishroq (ochroq) yoki qoraroq (qoramtir) bo'ladi. Biroq axromatik ranglar orasida o'ta turli xildagi oq, kul rang, qora tusli ranglar mavjud bo'ladi. Palitraning eng qoramtir bo'yog'i sifatida yonuvchi gaz qurumini (qora kuyani) hisoblash mumkin. Oq bo'yoqlar ichida eng yorug'i (oqish rang) – sinkli oq

bo'yoqdir. Oq va qora o'rtasidagi barcha oraliq kul rang tonlarni oq va qora bo'yoqni turli miqdorlarda aralashtirish orqali olish mumkin bo'ladi. Agarki, prizma orqali sinib o'tgan yorug'lik nurini kul rang va qora ekranga proeksiyalaydigan bo'lsak, u holda ularda ham to'liq spektr ko'rinadi, lekin barcha ranglar mos yoki tegishli tarzda qoraroq bo'lib ko'rinadi, ayniqsa qora ekrandagisi. SHunday qilib, axromatik (rangsiz) tUSDagi ekranlar – oq, kul rang, qora – ranglarni bir xilda akslantiradi va spektrning barcha ranglarini yutadi. Bunday yutilish tanlanmaydigan deb nomlanadi. Buyumning tUSi qanchalik oqishroq (yorug'roq, ochroq) bo'lsa, u yorug'lik manbaying spektral tarkibini shunchalik tekis va to'laroq akslantiradi. Toza oq tUSDagi (rangdagi) predmet va ob'ektlar ko'proq akslantirish qobiliyatiga ega bo'ladi, shuning uchun ularda yorug'lik manbaying rangi, ya'ni, yorug'likning rangi eng yutadi. Shunga ko'ra, yorug'likning rangi ularda bo'g'iqroq, xiraroq jilolanadi (jaranglaydi).

Agarki, yorug'lik nurini turli xildagi xromatik (rangli) tusli (rangdagi) ekranlarga proeksiyalaydigan bo'lsak, u holda spektr to'liq ko'rinmasligi yoki alohida ranglar quyuk-to'qligi (yoki intensivligi) sezilarli darajada so'nganligini ko'rish mumkin. Bu ekranning rangiga, shuningdek, u yoki bu yorug'lik manbaidagi ma'lum bir spektr nurlarining ustunligiga ham bog'liq bo'ladi. Agarki, ekranning o'z rangi yorug'lik rangi bilan mos tushsa, u holda ekranning (tabiatdagi buyumlarning) rangi oqishroq (yorug'roq), intensivroq bo'ladi. Aksincha, boshqa ranglar axromatlashadi – o'zidagi to'yinganlikni yo'qotadi, qoramtirlashadi, hattoki qorayadi ham. Bu narsa shuning uchun yuz beradiki, xromatik rangga ega bo'lgan predmetlar spektr nurlarining ma'lum bir qismini yutadi, boshqa qismini akslantiradi. Bunday yutish tanlanuvchi deb nomlanadi. Masalan, qizil rangga ega bo'lgan predmetlar yashil nurlarni ko'proq yutadi va qizil nurlarni kamroq yutadi. Yashil ob'ektlar, aksincha, qizil nurlarni ko'proq va yashil ranglarni kamroq yutadi.

Sun'iy yoritish manbaying yorug'ligida (masalan, sham yoki elektr lampalar) spektrning sariq-qizil nurlar qismlari ustunlik qiladi. Bir-biri

bilan mos tushuvchi ranglarga ega bo'lgan buyumlar ham oqishroq, to'yinganroq ko'rinadi, qarama-qarshi rang nurlariga ega bo'lgan buyumlar esa, ranglarini yo'qota boshlaydi (axromatlashadi). Shunga o'xshash sariq, to'q sariq, qizil ranglar yorqinlashadi. Och-sariq oq rangdan kamroq farqlanadi. Zangori ranglar yashil tusga kiradi, och-ko'k bir-muncha qoramtirlashadi, binafsha rang qizaradi, to'q ko'k juda qoramtir ko'rinadi. Shunga ko'ra, amaliy ish, ichki his sezgisi (savqi tabiiy) jihatdan katta tajribaga ega bo'lish, bo'yoqlarning xossalari va xususiyatlarini yaxshi bilish kerak bo'ladi, bularning barchasi, masalan, kunduz kuni boshlangan kompozision eskizni sun'iy yorug'likda ham unga ziyon etkazmasdan davom ettira olish uchun kerak bo'ladi.

Shunday qilib, tabiatdagi buyumlar bir yorug'lik nurini doimo yutadi, boshqalari esa akslantiradi. Yutishdagi tanlanuvchanlik buyumlar dunyosidagi ranglar tusining turli-tumanligini va ma'lum bir darajadagi mosligini, ularning doimiy o'z ranglarini aniqlab beradi. Yutilgan yorug'lik energiyasi asosan issiqlik energiyasiga o'tadi. Binobarin, qoramtir (qora) rangdagi (yoki tusli) buyumlar quyosh taftida oq rangli buyumga nisbatan ko'proq qiziydi. Berilgan ma'lum bir predmetga xos bo'lgan, shartli ravishdagi, tuslariga ega bo'lmagan asosiy rangni – o'zining, ya'ni o'zigagina xos (xususiy) yoki **mahalliy (lokal)** rangi deb nomlash qabul qilingan. Biroq tabiatda buyumlarning o'zigagina xos (xususiy) bo'lgan bir xil rang tusini ko'rish qiyin. Nisbatan doimiylikni saqlagan holda, buyumlar va ob'ektlarning o'z xususiy ranglari tabiatida quyidagi asosiy omillar ta'sirida albatta o'zgaradi:

- kontrastli ranglarning o'zaro ta'sirida;
- tasvirlayotgan buyumlarning yuza sirti xususiyatlari ta'sirida;
- havo muhiti va masofa ta'sirida;
- to'g'ridan-to'g'ri va akslanuvchi yorug'lik kuchi va spektral tarkibi ta'sirida.

Ushbu omillarning ta'siri buyum va ob'ektlarning o'z xususiy **shartli** rangini **shartlangan** (yoki **bog'liq**) bo'lgan rangga aylantiradi. SHuning uchun biz buyumlarning barcha asosiy ranglarini tabiatda ko'psonli rang tuslari bilan ko'ramiz. Masalan, qizil yoki oq atirgulni faqatgina birgina

qizil yoki birgina oq bo'yoq bilan berishimiz mumkin emas. O'z xususiy rangidagi buyumlarning shartli rangiga albatta yorug'lik ranglari bo'yog'ini, atrofdagi buyumlar va muhit ranglari bo'yog'ini qo'shish shart. Aks holda tasvirlangan buyum jonsiz, mavhum (noreal), atrof-muhit bilan aloqasiz tarzda bo'lib ko'rinadi.

## **7. Kontrastlar**

Ranglar tabiatda doimo boshqa ranglar bilan yonma-yon qo'shnichilikda yoki ular qurshovida joylashadi. Natijada, ranglar bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi, ranglar tusi va yorug'ligi (oqishligi) va to'yinganligi bo'yicha o'zgaradi. Bu hodisa bir vaqtning o'zida yuz beruvchi kontrastlik deyiladi. Turli bo'yoqlardagi predmetlar bir-biriga qanchalik yaqin joylashgan bo'lsa, ularning o'zaro ta'sirlari ham ravshanroq va aniqroq bo'ladi.

Binobaring, har qanday rang qoramtirroq, quyuqroq ranglar qurshovida bo'lsa, u yorug'roq, oqarganroq yoki oqishroq, va aksincha, agar yorug'roq, oqarganroq yoki oqishroq ranglar qo'rshovida bo'lsa – qoramtirroq yoki qorong'iroq bo'ladi. Bu hodisa oqishlik kontrasti yoki oqishlik bo'yicha kontrastlik deb nomlanadi. Agar masalan, qoramtir ton politrada kul rang ranglar aralashmasini tanlaydigan bo'lsak, u holda ular qoramtir fon qo'rshovida anchagina oqishroq (yoki ochroq) ko'rinishi mumkin. Agar hosil bo'lgan bo'yoqlar aralashmasini oq fonli xolstga o'tkazadigan bo'lsak, u holda ular politrada ko'ringaniga nisbatan “qoramtirroq” tusga kiradi. Qandaydir predmetning rangi yorug'ligi (yoki oqishligi) bo'yicha atrofini o'rab turgan buyumlarning ranglaridan qanchalik ko'proq farqlansa (ajralib tursa), uning toni shunchalik darajada oqarish yoki qorayish tomonga o'zgarib boshlaydi. Ushbu hodisa xromatik ranglar uchun ham, axromatik ranglar uchun ham bir xil darajada xarakterlidir. Bu aslida, illyuziya, ya'ni ko'rish qobiliyatimizning aldanishidir. Biroq rassom ishni to'g'ri bajarishi uchun ushbu illyuziyani anglagan holda, etyud rangtasvirining ixtiyoriy tarzda oqarib ketishi yoki qorayib ketishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

Illyuziyalarning yana ham murakkabroq turlaridan biri hududiy kontrast (yoki chegaraviy samara) hisoblanadi, bu holat yorug'roq (yoki oqishroq) maydon nisbatan qoramtirroq maydon bilan tutashadigan joylarda yuzaga keladi. Yorug'roq (oqishroq) maydon qoramtirroq maydon bilan tutashadigan chegarada yana ham oqishroq, qoramtir esa, yana ham qoramtirroq bo'lib ko'rinadi. Bunda u yoki bu maydonning notekis bo'yalganligidek taassurot paydo bo'ladi. Talabalar hududiy oqishlik kontrasti hodisasi bilan deyarli har bir ishda to'qnash keladilar: ko'pqirrali shaklga (kub, shar) ega bo'lgan buyumlarning chizilgan rasmi va yaratilgan rangtasvir asarlarida, shuningdek, odam boshi tasvirida ko'rish mumkin. Fon bilan birlashish joylarida boshning soyali tomoni nisbatan qoramtirroq, fon esa, aksincha, yorug'roq (oqishroq) ko'rinadi; yuzning yoritilgan qismi fonga nisbatan yorug'roq (oqishroq) ko'rinadi, yorug' bilan chegarada bo'lgan fon esa, o'ta qorong'u ko'rinadi. Ba'zida talabalar soyali qismni oqartirishga urinishadi, bosh ortidagi fonni qorong'uroq qiladi yoki yuziga yorug'lik berishadi. Bunday ish kontrastlik ifodasini yo'qotadi, "lanjlik" holatiga kelib qoladi. Eng avvalo, bunday hollarda predmetning soyali qismdagi chetki qismni oqartirish kerak bo'ladi, oqishlik (yoki yorug') bilan qoramtir chegarasida oqishlik chetlari bo'yicha predmetda engilgina yarimton (mayin nimrang yoki ochrang) berish kerak. Bunda chetki kontrastlikning ta'siri susayadi. Natijada, predmet yana ham hajmliroq, kengroq bo'lib ko'rinadi.

Ranglar bir-biri bilan qo'shnichilikda turishida nafaqat oqishligi bo'yicha o'zgaradi. Ular yonma-yon va bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatgan holda, u yangi rang tuslariga ega bo'ladi. Masalan, kul rang qizil rang qurshovida birmuncha yashillashgandek ko'rinadi, yashil fonda esa, aksincha, pushtiroq, qizarganroq, sariq-ko'kroq rang qurshovida qolgandek bo'ladi. Shunday taassurot paydo bo'ladiki, kul rang tonga har gal tegishli bo'yoqlar aralashtirilayotgandek bo'ladi, ya'ni axromatik ranglarda rang tuslari paydo bo'ladi. Keltirilgan misollarda kul rang tonlar o'zlari joylashgan fonlarga qarama-qarshi (yoki teskari qo'shimcha) rang tuslarini hosil qildilar. Shu kabi hodisalarni xromatik ranglarda ham kuzatish mumkin. Agarki, sariq rang, masalan, qizil rang qurshovida joylashgan bo'lsa, u holda u bir-muncha yashillashgandek, limonli-sariqroq tusga




kirgandek qabul qilinadi; yashil fonda esa u qizilroq yoki to'q sariq tus olgandek, ko'k fonda esa – yana ham to'yinganroq tusda ko'rinadi, binobarin, ko'k rang sariq rangga qarama-qarshi (yoki teskari) rang hisoblanadi. Qizil rang yashil rang qurshovida yana ham to'yinganroq qabul qilinadi, yashil rang yashil qurshovida, lekin fonga nisbatan kamroq to'yinganroq bo'lganda u axromatlashadi, kul ranglashadi. Ranglar o'zgarishidagi ushbu hodisalar xromatik (ranglar) kontrasti deb ataladi.

Ushbu qonuniyatlar har bir rasm chizuvchiga ma'lum bo'lishi zarur va asarning ifodali chiqishiga va ranglar yagonaligiga erishishda u vosita sifatida foydalanilishi zarur. Chetgi va bir vaqtning o'zida sodir bo'ladigan kontrastlar, ranglar o'rtasidagi kontrastlik munosabatlari, o'zaro ta'sirlarini kuchaytirish yoki kamaytirish (susaytirish) talabalarni qo'shni ranglar o'rtasidagi uyg'unlikni topishga undaydi (majburlaydi).

Agar turli rangdagi ikkita ob'ektni ketma-ket tarzda ko'rib chiqadigan bo'lsak, ketma-ket kontrastlik hodisasi yuzaga keladi. Masalan, qoramtir fonda joylashgan toza oq buyumga bir-muncha va nazarimizni neytral rangli devorga olib o'tsak, u holda bir-muncha vaqt buyumning obrazi yana ham qoramtirroq rangda ko'zimizda saqlanib qoladi. Shu kabi hodisa xromatik rang tuslariga ega bo'lgan buyumlarga qaraganimizda ham sodir bo'ladi. Agarki, 10—15 soniya ko'k rangli guldonga qarab turib, so'ngra tezgina nazarimizni oq rangli pardaga (drapirovkaga) o'tkazadigan bo'lsak, u holda bir-muncha vaqt guldonning sariq-to'q sariq rangga bo'yalgan izi (yoki muhrlangan o'rni) ko'rinayotgandek bo'ladi. Agarki, avvalo sariq rangli buyumga qarasak, u holda ushbu iz binafsha rangga kiradi. Shunday qilib, har qanday bo'yalgan buyumga bir-muncha vaqt davomida qarab turilsa, ko'zimizda qo'shimcha rang izini qoldiradi.

**Spektr ranglari** – qizil, sariq, ko'k ranglarni – **asosiy ranglar** deb qabul qilingan. Ularni boshqa ranglar aralashmasidan hosil qilish mumkin emas. Agarki, spektrning ikkita chetgi ranglarini – qizil va binafshani o'zaro aralashtiradigan bo'lsak, u holda yangi oraliq rang – qirmizi (ya'ni to'q qizil) rang hosil bo'ladi. Natijada, biz amaliyotda eng muhim deb hisoblaguvchi sakkizta rangga ega bo'lamiz: bu – sariq, to'q sariq (ya'ni oranj), qizil, to'q qizil (purpur), binafsha (fiolet), ko'k, zangori va yashil. Spektrda to'q qizil (purpur) rang yo'q. Agar sakkizta rangdan iborat


tasmani (yo'g'on chiziqni) halqa (yoki chambarak) qilib birlashtirsak, u holda spektrdagi kabi aynan o'sha ranglar ketma-ketligidagi rangli doiraga (aylanaga) ega bo'lamiz (rasm 2).



**Rasm 2. Ranglar spektri**

Agar sakkiz rangdan iborat ranglar doirasida qo'shni ranglarni turli xil proporsiyalarda aralashtiradigan bo'lsak, u holda ko'pgina oraliq rang tuslariga ega bo'lishimiz mumkin.

### **7.1. Ranglar aralashuvi**



**Ranglar aralashuvi**  
**a – fazoviy, b – bo'yoqlarning mexanik aralashuvi**

Binobarin, to'q sariqni sariq bilan aralashtirsak to'q sariq-sariq, yashil bilan zangorini aralashtirsak yashilroq-zangori rang tusiga ega bo'lamiz va h.k. Bunda sakkizta asosiy rangni saqlab qolgan holda, 16 yoki 24 va undan ham ortiq ranglardan iborat uzluksiz ranglar doirasiga ega bo'lamiz.



**Rasm 3. 24 tondagi uzluksiz ranglar doirasi**

Ranglar doirasi o'zida mavjud ranglar miqdori bo'yicha turli xil bo'lishi mumkin: 8, 16, 24, va h.k. Bizning ko'zimiz tahminan 150 xil ranglar tusini farqlay (yoki ajrata) olish qobiliyatiga ega. Yashil, zangori, ko'k va ularning qo'shimcha rang t uslari **sovuq ranglar** deb nomlanadi; sariq, to'q sariq, qizil va ularning rang t uslari – **issiq ranglar** deb nomlanadi. Binobarin, qizil, to'q sariq, sariq ranglar quyosh bilan, olov bilan assosiasiyalanadi; zangori, ko'k rang – muz (yax), osmon rangi bilan assosiasiyalanadi va h.k. Toza yashil rang neytral hisoblanadi. Unda sarg'ishroq, qizilroq rang t uslari, u issiq, bo'lishi, va agar unda zangoriroq va ko'kishroq rang t uslari bo'lsa, sovuq rang ham bo'lishi mumkin. Xuddi shu holatlarni boshqa ranglar to'g'risida ham aytish mumkin. Issiq va sovuq ranglar qo'shnihiligida issiq ranglar sovuq ranglarni yana ham sovuqroq qiladi, sovuq ranglar esa issiq ranglarni yana ham issiqroq qiladi. Issiq ranglar va ularning rang t uslari ham, sovuq ranglar va ularning

tuslari ham o'zaro turdosh deb nomlanadi. Turdosh ranglar – ranglar doirasida bir-birlariga yonma-yon joylashadi. Issiq ranglar ranglar doirasida o'ng qismda joylashadi; sovuq ranglar esa chap qismda joylashadi. Ranglarning qarama-qarshi rang juftlari kontrastli bo'ladi (masalan, sariq va fiolet, yashil va qizil, ko'k va to'q sariq va h.k.) Ostvald doirasida qarama-qarshi ranglar juftlari o'zaro **to'ldiruvchi** (qo'shimcha) hisoblanadi.

Har bir xromatik rangga boshqa xromatik rang topish mumkin, ularni ma'lum bir proporsiyalarda aralashtirib esa, axromatik (kul rang) ranglarga ega bo'lish mumkin. Bunday ikkita xromatik ranglar o'zaro **to'ldiruvchi** (qo'shimcha) ranglar deb nomlanadi. Asosiy o'zaro to'ldiruvchi rang juftlari quyidagilardir: qizil – yashil, to'q sariq – zangori, sariq – binafsha, yashil – to'q qizil (purpur). To'ldiruvchi (qo'shimcha) ranglarni aralashtirishda yangi tonlar yuzaga kelmaydi. Agarki, to'ldiruvchi ranglar ixtiyoriy proporsiyalarda aralashtirilsa, unda aralashtirilayotgan ranglarning birini olish mumkin bo'ladi, biroq bu susaygan (past) to'yingan rang tusida bo'ladi.

To'ldiruvchi ranglarning har biri bir-biri bilan qo'shnichilikda bo'lgani bilan o'z tonini o'zgartirmaydi, biroq uning yorqinligi va to'yinganligini oshiradi. Binobarin, qizil yashil bilan qo'shnichilikda yana ham ko'proq to'yinganroq va issiq ko'rinadi. Ushbu hodisalar har qanday to'ldiruvchi ranglar juftida kuzatiladi.

Ranglarning kontrastli o'zaro ta'sirlashuvi tufayli ulardan biri fazodagi o'zining joylashgan joyiga nisbatan yaqin yoki uzoq joylashgandek ko'rinadi. Shunga, ko'ra ba'zi bir ranglar bo'rtib chiqayotgandek, boshqalari esa, chuqurlikka qarab uzoqlashayotgandek qabul qilinadi. Issiq ranglar – sariq, to'q sariq, qizil, qirmizi (to'q qizil) ranglar bo'rtib chiqayotgandek, sovuq ranglar esa – zangori, ko'k, binafsha ranglar chuqurlikka qarab ketayotgandek (uzoqlashayotgandek) qabul qilinadi.

Ranglar moddiylikni, predmetlar sirtining fakturasini aniqlab berishi mumkin. Predmetning fakturasi silliq, g'adir-budir, jilosiz (nursiz yoki xira), yaltiroq va h.k. bo'lishi mumkin. Sirt fakturasi tushunchasi buyumlarning tuzilmasi, materiali tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Natijada, rang shaffof, engil yoki zich (qalin) va og'ir bo'lib qabul qilinishi mumkin. Qora ranglar og'ir ko'rinishi, yorug' ranglar –

engil ko'rinishi mumkin. Masalan, osmonning rangi haydalgan (shudgor qilingan) er maydonining qora (yoki qorong'u, qoramtir) rangiga nisbatan engil, tiniq, keng ko'rinadi. Er maydonining rangi zangori osmon rangiga nisbatan moddiyroq (material tarzida), og'irroq qabul qilinadi. Zich taassurot qoldiruvchilarga issiq ranglar (qizil, to'q sariq, sariq) kiradi. SHu bilan birga, sovuq ranglar – zangori, ko'k – havoli, engil bo'lib ham ko'rinadi.

## 7.2. Oqishlik va rang kontrastlari


Buyumning rangi shu predmetning o'zi joylashgan shart-sharoitlarga ko'ra doimo o'zgaradi.

Bunda yorug'lik katta rol o'ynaydi. Quyidagi rasimga e'tibor berib qaraydigan bo'lsak, aynan bir predmet tanib bo'lmas darajada o'zgargan. Agar buyumlardagi yorug'lik sovuq bo'lsa, uning soyasi issiq bo'lib ko'rinadi va aksincha. Bu holatlarni, biz berilgan namunalarda ko'rib o'tishimiz mumkin. Birinchi asar sovuq tabiiy yorug'lik bilan yoritilgan, ikkinchisiga esa, issiq sun'iy yorug'lik aks ettirilgan.



N.Gilmanova





N.Gilmanova


Yorug'lik va ranglar kontrasti shaklning “singan joylarida”, ya'ni buyumlar shaklining burilish joyida, shuningdek, kontrast fon bilan tutashish (bir-biriga tegish) chegaralarida ayniqsa aniq va tiniq idrok etiladi (ko'rinadi).

### 7.2.1. Oqishlik kontrasti

Oqishlik (yoki yorug'lik) bo'yicha kontrastlikni musavvirlar (rassomlar) o'z asarlarida qo'llaydilar, bunda ular buyumning turli xildagi tonlarini ifodalashda muhim e'tibor beradilar. Och rang (oqish, yorug' rang) ob'ektlarni qoramtir (qora, qorong'uroq rang) ob'ektlarga yonma-

yon joylashtirib ular ranglarning kontrastligi va jarangdorligini (jilosini) oshiradilar, shaklning ifodaliligiga erishadilar. Qora va oq fonda joylashgan, bir xil bo'lgan kul rang kvadratlarni qiyoslab ko'ring. Ular sizga turli xil bo'lib ko'rinadi. Kul rang qorada oqishroq (ochroq) ko'rinadi, oqda esa – qoramtirroq ko'rinadi. Bunday hodisa oqishlik kontrasti yoki oqishlik bo'yicha kontrastlik deb nomlanadi.


### **Oqishlik bo'yicha kontrastlikka misol**



### **7.2.2. Rang kontrasti**


Buyumlarning rangini – uning atrofini o'rab turgan fonga bog'liq tarzda idrok etamiz (yoki qabul qilamiz). Masalan, agar oq dasturxonga to'q sariq apelsinlarni qo'yadigan bo'lsak, u zangori rangda ko'rinadi, agar dasturxonga yashil olmalarni qo'yadigan bo'lsak, u pushti rangda ko'rinadi. Bu hodisa shuning uchun sodir bo'ladiki, fonning rangi buyumlar rangiga nisbatan to'ldiruvchi (qo'shimcha) rang tusiga ega bo'ladi (yoki kiradi). Kul rang fon qizil predmet bilan yonma-yonlikda sovuq ko'rinadi, ko'k va yashil bilan yonma-yonlikda esa, issiq ko'rinadi. Qarab ko'ring: uchta kul rang kvadrat bir xilda, ko'k fonda kul rang to'q sariq tus oladi, sariqda esa, binafsha, yashilda – pushti, ya'ni u fon rangiga nisbatan qo'shimcha (to'ldiruvchi) rang tusini hosil qiladi.

### Rang kontrastiga misol



Oqish (ochroq) fonda buyumning rangi qoramtir ko'rinadi, qoramtir fonda esa ochroq ko'rinadi.

### Rang kontrastiga misollar



Rang kontrasti hodisasi shundan iboratki, bunda rang o'zini o'rab turgan boshqa ranglar ta'sirida yoki birinchi (dastlabki) kuzatiluvchi ranglar ta'sirida o'zgaradi.

To'ldiruvchi (qo'shimcha) ranglar bir-biri bilan qo'shnichilikda turganda yorqin va to'yinganroq bo'lib qoladi. Bu narsa asosiy ranglar bilan ham sodir bo'ladi. Masalan, qizil pomidor petrushka ko'kati bilan yonma-yon turganda yana ham qizilroq ko'rinadi, binafsha baqlajon esa sariq bilan yonma-yonlikda sholg'om bo'lib qoladi. Ko'k va qizillarning kontrasti, bu – sovuq va issiqlar kontrastining proobrazidir. Bu xolatlar uzbek rangtasvirchilarining ko'pgina asarlarining koloritida mavjud va ularning asarlarida diqqat-e'tiborni tortadi va ranglarida g'ayrat yaratadi.



Bizni o'rab turgan borliqda bir rangning boshqasiga nisbatan ta'sir ko'rsatishi qarab, o'tgan misollarimizdagidan ko'ra anchagina murakkab, biroq yorug'lik va ranglar bo'yicha asosiy kontrastlarni bilishlik – rasm chizuvchiga ranglarning ushbu o'zaro munosabatlarini yana ham yaxshiroq ko'ra olishiga va olingan bilimlarni amaliy ishlarda foydalanishga yordam beradi. Yorug'lik (oqishlik) va ranglar kontrastining qo'llanilishi tasviriy vositalarning imkoniyatlarini oshiradi.

Bizni o'rab turgan atrofda rangli tabiiy saralash munosabatlarni ko'ramiz. Qo'plab o'simliklarda va gullardan bir- birini tuldiruvchi ranglar qonuni kelib chiqadi. Ko'plab qushlar patlari oqishlik va rang qarama-qarshiligi qonuniga asosan topilgan.

### **Rang va oqishlik nyuanslariga misollar (ranglardagi nozik farqlar)**



### **Rang nyuanslariga misollar**



## Rang kontrastlaridan foydalanish namunalari



Tonli va rang kontrasti dekorativ (manzarali) ishlarda ifodalilikka erishish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

### Tabiatda va amaliy san'at asarlarida rang kontrasti:



### 7.3. Lokal (mahalliy) rang

Xonangizdagi buyumlarga qarang, derazaga qarang. Siz ko'rib turgan barcha narsa nafaqat shaklga ega, balki rangga ham egadir. Siz ularni



onsongina aniqlab olishingiz mumkin: olma – sariq, piyola – qizil, dasturxon – ko’k, devorlar – zangori va h.k.

Predmetning lokal rangi, bu – shunday toza, aralashmagan, sinmagan tonlar bo’lib, ular bizning tasavvurimizda ma’lum bir buyumlar bilan, ularning ob’ektiv, o’zgarmas xususiyatlari kabi bog’liqdir.

Lokal rang – ixtiyoriy har qanday buyumning asosiy rangi bo’lib, unda tashqi ta’sirlar hisobga olinmaydi. buyumning lokal rangi bir xil tonli, biroq turli xil tuslardan tashkil topgan bo’lishi mumkin. Y.U. Pansirev asaridan namuna:




Siz ko’rasizki, pion gullarining asosiy rangi oq yoki qizil, biroq har bir gulda lokal rangning bir nechta tuslarini sanab o’tish mumkin. Naturadan rasm chizishda buyumlarning lokal ranglaridagi xarakterli xususiyatlarini, uning yorug’likdagi, yarim soya va soyadagi o’zgarishini xotira bo’yicha (eslab qolgan holda) ko’rsatib berish kerak. Biror-bir lokal rang yorug’lik

ta'sirida, havo ta'sirida, boshqa ranglar bilan birlashuvda soyada ham, yorug'likda ham mutlaqo turli xil tonlarga ega bo'ladi. Quyosh yorug'ligida buyumlarning o'z rangi yarim soyalar joylashgan joyda eng yaxshi tarzda ko'rinadi. Buyumlarning lokal rangi – unga to'liq soya tushib turgan joylarda yomonroq ko'rinadi. U yorqin yorug'likda oqaradi (oqarib, yaltiray boshlaydi) va rangsizlanadi.

Rassom bizga buyumning go'zalligini ko'rsatar ekan, lokal rangning yorug'dagi va soyadagi o'zgarishini aniq ko'rsatib beradi.

Siz, agarki, asosiy, tarkibiy (tashkiliy) va qo'shimcha (yoki to'ldiruvchi) ranglardan foydalanish nazariyasi va amaliyotini o'zlashtirar ekansiz, endi siz buyumning lokal rangini, uning yorug'likdagi va soyadagi tuslarini onsongina chiqarib bera olasiz. Soyada, predmet tomonidan chiqariluvchi yoki uning o'zida joylashuvchi, buyumning o'z rangiga qo'shimcha (yoki to'ldiruvchi) hisoblanuvchi rang doimo ishtirok etadi. Masalan, qizil koptokchaning soyasida qizilga qo'shimcha sifatida albatta yashil rang ishtirok etadi. Bundan tashqari, har bir soyada buyumning o'z rangidan birmuncha qoramtir bo'lgan ton va ko'k ton ishtirok etadi.



Unutmaslik lozimki, buyumning lokal rangiga uning atrofidagilari ta'sir ko'rsatadi.

To'q sariq nok mevasining yon-atrofida yashil parda paydo bo'lsa, mevada o'sha pardaning rangi paydo bo'ladi, ya'ni nok mevasining o'z



soyasi, albatta, yashil rang tusiga ega bo'ladi. N. Gilmanova asaridan namuna:



N. Gilmanova

## **8. Qarash va ko'ra olish san'ati**

Rangtasvirda biz quyoshgagina bo'ysunuvchi cheksiz boy darajadagi ranglar dunyosiga tushib qolamiz. Sog'lom odamning ko'zi ko'rishi mumkin bo'lgan barcha 40 000 ta rang tusi insoniyatga va san'atga xizmat qiladi. Aslida (mohiyatan qaraganda), odam u yoki bu rang egallagan maydonning rangi, uning o'lchamlari va shakllaridan tashqari hech narsani ko'rmaydi. Chiziqlarni ko'rmaydi – ular yo'q, faqatgina tekisliklarning chegaralarigina bor. Ranglarning turli xilligi tufayli biz hamma narsani : shakl va materialni, kenglik va yorug'likni, butun olamni – uning barcha jozibadorliklari bilan ko'ramiz.

Biroq bu erda qandaydir qarama-qarshilik yo'q emasmikin: biz buyumlarni ranglar tufayli bilib olamiz, rang esa o'zgaruvchandir, u yorug'lik va havoga bog'liqdir, mana, sizga jumboq - ? O'rmon, bir qarasang, yashil, bir qarasang, ko'k yoki zangori, ertalab esa to'q sariq, quyosh botishida esa to'q qizil tusga kiradi. Buni qanday tushintirish mumkin, axir, odam baribir o'rmonni ko'rayapti-ku, boshqa narsani emas - ? Va, aytgancha, nima uchun tajribasiz rangtasvirchilar uni doimo yashil rangda yaratadilar ?

Jumboqning echimini psixologiya fani taqdim etadi. Inson, predmetlar bilan har kuni to'qnash kelganligi, ularni doimo yoki tez-tez uchratganligi tufayli ulardagi rang tuslarining o'zgarishlarini sezmay qolishga (yoki sezmaslikka) o'rganib qolishgan. Uzoqdagi o'rmon ko'k bo'lib ko'rinadi. Bunday tarzda odat bo'lib qolgan idrok etish inson uchun foydali hamdir, chunki bu predmetlarni onsongina tanib olishga va eslab qolishga imkon beradi. Rassomga esa o'z ko'ziga ishonishga, doimo o'zgarib turuvchi kartinani ko'rishga, aslida buyumlarning qotib qolgan lokal ranglarinigina ko'rish mumkin bo'lgan joyda tirik, jonlangan ranglar o'yinini ko'rishga to'g'ri keladi.

Biroq rangni nafaqat yorug'lik va havo o'zgartiradi. Uni insonning o'z ko'zi ham o'zgartiradi. Bu taajjublanarli hol, lekin shunday. Ko'zning biologik qurilmasi-yu, tuzilishi va uning ishi – tabiat mo'jzasidan biridir. Shunday ekan, uning sirlariga ko'z tashlab ko'raylik.

Yorug'lik nurlari kattalashtiruvchi oynachaga o'xshash ko'z gavhari orqali ko'zga kirib boradi va ko'zning ichki yuza sirtiga to'shalgan (yoki qoplangan) to'rsimon qobiqqa borib tushadi. Va buyumlarning tasvirlari paydo bo'ladi. Aynan shu tarzda fotoapparatda ham ob'ektiv yordamida tasvirlar plyonkada paydo bo'ladi. Biroq mo'jiza hali oldinda. To'rsimon qobiq asab (nerv) tolachalaridan – “kolbacha” va “tayoqchadan” tashkil topgan. Kolbachalar rangga nisbatan o'ta sezgir. Ular uch turda: birlari qizilni, boshqalari yashilni, uchinchilari esa, ko'kni qabul qiladi. Tayoqchalar ranglarning oqishlik tuslarini “sezadi”. Miyaning ko'rish markaziga signallarni uzatgan holda, ularning barchasi birgalikda ko'z nimani ko'rayotgan bo'lsa, o'shaning to'liq kartinasini yaratadi. Agarki ko'zlar sariq rangni ko'rsa – qizil va yashil kolbachalarni signallashtiradi (ajablanmang – qizil va yashil ko'zda aynan sariqni vujudga keltiradi, bu fanda isbotlangan), agar – binafsha bo'lsa – qizil va ko'k, agar to'q sariq bo'lsa – qizil va yashilni signallashtiradi, biroq oxirgilari kamroq ulushda yuz beradi.

Fotoapparat charchamaydi. Ko'zlar toliqadi. Aynan mana shu joyda esa, haqiqiy mo'jiza boshlanadi. Aytaylik, kartinadagi va, shu bilan birga, ko'rish markazida ham paydo bo'luvchi (yaratiluvchi) qizil rangni qabul qiluvchi kolbachalar charchaganda yashil va ko'k ranglarni kuchliroq namoyon etadi. Yashillari toliqqanda – qizillari, binafshalari kuchayadi. Yana bir holatni kuzatamiz: Kul rang fonga qizil kvadratchalarni qo'yamiz va unga ko'z uzmasdan bir daqiqa qarab turamiz. So'ngra kvadratchalarni olib tashlaydigan bo'lsak, uning o'rnida yana aynan shunday, biroq endi qizilni emas, balki yashilni ko'ramiz. Har qanday rangdagi kvadratchalarni qo'yib ko'rishimiz mumkin, biroq yana uning o'rnida endi unga qarama-qarshi bo'lgan rangni ko'ramiz. Bu – rang kontrastidir. U yon-atrofida joylashgan qizil bilan yashilning, binafsha bilan sariqning, to'q sariq bilan ko'kning kuchliroq jilvalanishiga (jaranglashiga) majbur qiladi (ba'zida ko'zlarni yoqimsiz jimirlashlargacha olib keladi). Spektr bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan ikkita rang yonma-yon joylashgan bo'lsa, ular biri-biridan itarilayotgandek tuyiladi. Yonma-yon qo'yilgan sariqda va sariq-

to'q sariqda – birinchisi sal yashilroq, boshqasi esa – qizilroq ko'rinadi. Agar bir-muncha vaqt yashil rangga qarab tursak, uning atrofida pushtiroq yoki binafshasimon tumanlik paydo bo'ladi. Mana, nima uchun peyzajda yashil ekin maydoni o'rtasidagi kul rang yo'l binafshasimon yoki pushtiroq, barglar ortiga yashiringan daraxt ustunlari va xodalari binafsha yoki pushtiroq ko'rinadi, barglarning o'zida esa ko'pgina zangori, binafshasimon, pushti rang tuslari paydo bo'ladi. XIX asr boshlarida ijod etgan taniqli ingliz peyzajisti Djon Konstebll yashil ko'kat va maysalarda pushti rang tuslarning borligini ko'rgandagina ko'kat va maysalarni yarata olishni o'rgana olgan edi.

Bir vaqtlar biz qiziqarli tajribani o'tkazishga muyassar bo'lganmiz. Qorong'u xonadagi ekran yashil nurlar taratayotgan edi. Keyin yana oq rangli yorug'lik berardi. Yashil rang oqarib (xiralashib) ketdi. Oxirida ekran yo'lidagi nurlar yo'qolgach, yupqa taxtacha to'siq qo'yildi. Va, mana qarangki, ekran nafaqat yashil, och-yashil, oq tusda yorishib ketdi – ekran markazidagi soya to'q qizil (purpur) rangga bo'yaldi. Hatto oqda ham pushtiroq tus paydo bo'ldi. Ular qaerdan paydo bo'lishdi - ? Biroq bu kontrast edi – u fotoapparatda, ko'rinmaydi, bunga uning mexanik ko'rish qobiliyati qodir emas edi va bu faqatgina insongagina ko'rinishi mumkin. Ushbu tajribadan xulosa shuki, olamning rangli kartinasini yaratishda nafaqat predmetlarning spektrdagi u yoki bu nurlarini akslantirish qobiliyati va nafaqat yorug'lik va havoning ta'siri, balki inson ko'zi ham ishtirok etadi. Bizga ko'rinayotgan real olamning ranglar boyligi beqiyosdir. Va shuning uchun ham, rangtasvirda har bir surtilgan (berilgan) bo'yoqning rangi uchun uning o'z tusini topib (tanlab) berishga to'g'ri keladi («nyuans» – nozik farqlar).

Svetlot kontrastlar ham biz uchun o'ta muhimdir. Qora rang oqish fonda yana ham qoramtir bo'lib ko'rinadi va o'shaning o'zi qora fonda oqishroq bo'lib ko'rinadi. Bu erda endi “tayoqchalar” ishlaydi. Agarki, oq fondagi qora kvadratchaga bir daqiqa qarab turib, so'ngra uni olib tashlaydigan bo'lsak, uning o'rnida fonga nisbatan yana ham oqishroq kvadratcha hosil bo'ladi. Kunning yorqin kunlarida rang o'zining barcha rang-barangligi bilan aniq namoyon bo'ladi: bu erda ko'zning



“kolbachalari” ham, “tayoqchalari” ham ishlaydi. Yorug’lik o’chadigan bo’lsa, “tayoqchani” vaqti boshlanadi. Bu vaqtda ranglar asosan o’z oqishlik tuslari bilan farqlanib (yoki ajralib) turadi. Bu g’ira-shiralikka oid ko’rish deb nomlanadi. Bunda binafsha, ko’k ranglarning sezilishi ko’proq, uzoqroq saqlanib qoladi; zangorini oqdan farqlash qiyin bo’ladi; qizil, to’q sariq, sariqlar esa, asta-sekin kul rangga, ko’proq yoki kamroq darajada qoramtirroq tusga aylanib borgan holda o’chib boradi. Mana, nima uchun kechki oqshom zangorilashadi, kechroq esa – ko’k va binafsharoq tusga kira boshlaydi. Quyosh botishida esa umumiy qoidalardan istisno bo’lgan ajoyib holatni kuzatish mumkin bo’ladi. Quyoshning qizil nurlarida har qanday yashil predmet deyarli qora bo’lib ko’rinadi. Biroq daraxtlar va shoxlarning barglari qizil rangga kira boshlaydi. Bunday jumboq shundan iboratki, yashil o’simliklar, ko’kat va maysalar xlorofillga ega bo’ladi, u esa nafaqat yashil nurlarni, balki qizil nurlarni ham akslantiradi.

Ko’zdagi kolbachalar etarlicha yorug’lik olmay qoladigan bo’lsa, oqishlik yana ham yaxshiroq farqlana boshlaydi. SHuning uchun ham, rassom nima oqishroq, nima qoramtirroq va qay darajada ekanligini aniqlashi kerak bo’lib qolganda, yaxshiroq ko’rish uchun ko’zini qisibroq tikilib qoladi. Bunda u ko’zga tushayotgan yorug’lik miqdorini kamaytiradi va g’ira-shiralikka oid ko’rish sharoitini yaratib oladi. Aksincha, agar rangni yana ham yaxshiroq ko’rish va ranglar munosabatini aniqlab olish kerak bo’lsa, u ko’zlarini yana ham kengroq ocha boshlaydi, bu bilan u barcha rang boyliklarini o’ziga tortib olishni istayotgandek bo’ladi. Kolbachalar toliqa boshlaydi, o’z navbatida rang tetik va hali charchamagan tiniq qarash bilan yaxshiroq qabul qilina boshlaydi. SHuning uchun ko’zlarni qarab turilgan narsalardan birmuncha chetga olishga va so’ngra kengroq ochilgan ko’z qarashlari bilan ko’rish maslahat beriladi. Bir rassom aytganidek: “gangib” qolgan ko’zlar bilan qarash kerak (gangigan – hech narsani tushinmay qolgandek).

Bularning barchasini ko’rish uchun qaray bilish talab etiladi, ko’zlarning ko’rish qobiliyatini rivojlantirish, uni tabiatdagi ranglar

munosabatining go'zalliklarini seza olishga o'rgatish talab etiladi. Bu barcha narsalarda: dala maydonlarida, o'rmonlarda, uzoq tepaliklarda, qordagi, osmon va eng mayda narsalardagi kamalak ranglar jilolari va tovlanishlarida, so'ligan barglarda ham, kapalaklar qanotidagi naqshlarda, daryo chig'anoqlarining sadaf (perlamutr) ranglarida, baliq tangachalari va oddiy tosh ranglarida ham – hamma joyda, avvaliga ko'rimsiz bo'lib ko'ringan har bir predmetda talab etiladi.

Rangtasvir ham, shuningdek, kulolchilik, mato, amaliy va xalq san'atining boshqa asarlari ham ko'zni tarbiyalaydi. To'g'ri, bu erda kamchilik va nuqsonlar bo'lishi mumkin: hamma asarlar ham koloriti bo'yicha yaxshi emas, albatta, amaliy san'atning har qanday (yoki har bir) buyumlari ranglarning eng muvaffaqiyatli (yoki eng munosib) tarzda topib berilgan namunasi bo'lavermaydi. Bu erda ehtiyotkorlik, nozik qarash, did mashqlari, eng yaxshisini tanlay olish qobiliyati kerak bo'ladi. Biroq agarki muvaffaqiyatsizliklarni, no'noqlik, mahoratsizlik va noxush did mevalarini uloqtirib tashlaydigan bo'lsak, san'atda shunday xazinalar, shunchalik ajoyibotlar, insonning ma'naviy dunyosini boyitish va hayotning qadr-qimmatini oshirishning shunday imkoniyatlari ochiladiki, hatto nima uchun ko'pchilik san'atning bor boyligidan foydalanmasligiga, ularning yonidan e'tiborsiz o'tib ketaverishlariga tushinmaysan kishi.

Ko'zni tarbiyalashning uchinchi yo'li – bu sening shaxsiy ijodingdir. Asosiy kuch ham, ranglarning va ularning birlashuvi va uyg'unlashuvining go'zalligini tushinishdagi asosiy yo'l ham, mana shunda. Aynan mana shuning uchun ham bo'yoqlarni aralashtirishga, eng qimmatbaho ranglar to'plami va to'pgullarni qidirishga, mo'yqalam va bo'yoqlar bilan o'z do'stligingni mustahkamlashga erinmaslik va bu yo'lda sustkashlik qilmaslik lozim. Bu erda boshqa narsani o'ylab topa olmaysan: qanchalik ko'proq bo'yoqlardan boxabar bo'lsang, ranglar tanlashda ham shunchalik ko'proq muvaffaqiyatga erishasan.

Hamma ham ranglarni bir xilda ko'ra olmaydi, ba'zi birovlar kuchsizroq qabul qilishadi yoki hatto qizil yoki yashilni, bir xilda ko'kni, ba'zida esa barcha uchta rangni ham umuman ko'ra olishmaydi. Ular rangli olam o'rniga kul rang dunyoni ko'rishadi. Bu hol – san'at ular

uchun yopiq degani emas: grafikada, haykaltaroshlikda, arxitekturada bemalol ular uchun yo'l ochiq, shunday holatlar ham bo'lganki, ular rangtasvir bilan ham shug'ullanishgan. Biroq ba'zi bir kasblarda ranglarni his qilish majburiy shartlardan biridir, ba'zida esa sezgirlik va nozik didlik ham zarur bo'lib qoladi. Ranglarda yana boshqa qiziqarli xususiyatlar ham mavjud. Masalan, sariq, to'q sariq rangga bo'yalgan, shuningdek, yorqin barcha predmetlar qoraga, ko'kka, binafsha ranglarga nisbatan yana ham yaqinroq ko'rinadi. Yorqin ranglar esa kengligi (kattaligi) bo'yicha ham asliga qaraganda kattaroq ko'rinadi, qoralar esa – kichikroq ko'rinadi.

### *9. Soya-yorug'*

Yorug'lik tufayli biz buyumlarni nafaqat rangli ko'ramiz, balki hajmli tarzda ham ko'ramiz. To'g'ri tushuvchi yorug'lik bilan yoritilgan dumaloq va qabariq buyumlarning tomonlarida eng yorqin (oqish) dog' o'zgacha ajralib turadi bu – **shu'ladir**. Buyumning shakliga, materialiga, yorug'likning intensivligi (quyuqligi, to'qligi) va rang tuslariga ko'ra, shula har xil bo'ladi. U judayam yorqin, yaltiroq yoki buyumning yoritilgan tomoni faqatgina birmuncha oqishroq bo'lishi mumkin. SHu'la sayqallangan, silliqlangan, yarqiroq va yaltiroq sirtlarda ayniqsa bilinadi (masalan, metall, sopolli (keramik), sirlangan, shisha idishlarda, metall va shisha taqinchoqlarda va h.k.).

Shu'laning rangi yorug'lik manbaining rangiga, shuningdek, buyumning materialiga va uning o'z rangiga bog'liq bo'ladi. Metall buyumlarda, masalan, mis buyumda shu'laning rangi osmon aksi (refleksi) ta'siri ostida sovuq zangori tusga ega bo'ladi. Xonada, sun'iy yorug'lik bo'lganda mis va oltinda shu'laning rangi sariq va to'q sariq bo'ladi. Rangi, intensivligi bo'yicha to'g'ri olingan shu'la kompozisiyaning tonal-rangli echimida o'ziga xos kamerton bo'lib xizmat qiladi. Turli shu'la serqatnovligida va turli muhitda yoritilgan narsalar va ularni fakturasini (uslubini) ko'rib o'tamiz. Asarlar mato, moy bo'yoq usulida (texnikasida) ishlangan.



N.Gilmanova



N.Gilmanova





N. Gilmanova

Rangtasvirda shu'laning o'rnida akvarelda qog'ozning oq dog'ini qoldirib ketiladi, so'ngra shulaning shakli va rangi aniqlashtiriladi, kerakli kuch va rangda engilgina chiziqlar tushiriladi. Agar zarur bo'lsa, shu'laning eng yorqin, oqish joyini bo'yamasdan qoldirish yoki qog'ozning oq tusi ko'ringuncha o'tkir narsa bilan bo'yoqni engilgina tozalash kerak.

Buyumning soyali qismini uning – **o'z soyasi** deb nomlash qabul qilingan. Buyumga va shu buyum turgan tekislikka tushayotgan soya – **tushayotgan soya** deb nomlanadi. Tushayotgan soyaning shakli soya berayotgan buyumlarning shakl-shamoyiliga, soyasi tushayotgan buyumning shakliga va buyumlar joylashgan yuza sirtning (tekislikning) xarakteriga bog'liq bo'ladi. Bu holatni quyidagi “Anorlar natyurmorti”, “Tungi kapalak” ishlarda aniq ko'rish mumkin:



N.Gilmanova




N.Gilmanova

Buyumdagi yoritilgan va soyali qismlar o'rtasidagi joyni **yarimsoya** yoki **yarimton** deb yuritiladi. Bu joylarga yorug'lik nurlari faqatgina qisman tushadi. Yarimsoya buyumlarning yoritilgan qismiga nisbatan



qorong'uroq (qoramtirroq), biroq o'z soyasidan oqishroq bo'ladi. Yarimsoya sferik sirtlarga ega bo'lgan buyumlarda ayniqsa yaxshi bilinadi.

Yoritilgan buyumlar ba'zi bir nurlarni o'ziga yutadi, boshqalarini esa aks ettiradi. Aks ettirilgan nurlar atrofdagi qo'shni narsalarga tushib, ularning yorug' tuslariga va rang tuslariga ta'sir ko'rsatadi. Boshqa yoritilgan sirtlardan akslanayotgan yorug'lik nurlari ta'sirida buyumning o'z rangining yorishishi (ocharishi) va o'zgarishi – **refleks** deb yuritiladi. Reflekslar buyumlarning soyali joylarida ayniqsa yaxshi bilinadi. Reflekslar tufayli biz soyalardagi releksni ajrata olamiz, soyalarning o'zini esa bo'g'iq, xira va qora tusda emas, balki rangli, tiniq, havoii (yoki fazovii), engil tarzda ko'ramiz. Refleksning ta'siri nafaqat soyali joylarda balki boshqa joylarda ham bilinadi.



N.Gilmanova

Natyurmotda har bir buyumning o'z rang tusiga boshqa buyumning rangi qay darajada ta'sir etayotganligini kuzatish mumkin. Bunda oq rangli ko'zacha va limonlar solingan likobchada tuzalgan dasturxondan (yoki mato, drapirovka), ko'zaning atrofida yotgan limonlar va barglardan tushayotgan ranglar tufayli sarg'ish, zangoriroq-ko'k tuslar ko'rinib turibdi. SHunday ekan, boshqa predmetlar qurshovida joylashgan buyumning rangini reflekslarning o'ziga xos mozaikasi sifatida tushinish lozim. Buyumning atrofida qanchalik turli-tuman muhit bo'lsa, yorug'likni aks ettiruvchi manbalar ham shunchalik ko'p bo'ladi va buyum qanchalik ko'p aks ettirish imkoniyatiga (qobiliyatiga) ega bo'lsa, uning yorug'-soyasi ham shunchalik murakkabroq va ranglar reflekslari ham shunchalik turli-tuman bo'ladi. Misol tariqasida o'zbek rassomi R. Axmedov asari xizmat qiladi, buerda oq dasturxon hamma atrofdagi mevalarni palitrasini (rangini) o'z ichiga oladi.



R.Ahmedov



Aks ettirilgan yorug'likka ega bo'lgan – rangga oid refleksli o'zaro bog'liqlikni – XVII asrdagi kichik gollandlarning asarlarida kuzatish mumkin. Bunday holatlarni YA.Vermeer, aka-uka Ostadlar, P.Klass, V.K.Xeda, rus rassomlari V.A.Serov, I.I.Levitan, K.E.Makovskiy, shuningdek, bizning o'zbek rangtasvirchi ustalarimiz P.Benkov, A.Abdullaev, Akmal Ikromjonovlarning asarlarida ham kuzatish mumkin.



A.Ikromjonov

Refleksli o'zaro bog'liqliksiz buyumning rangi “quruq” va “jonsiz” bo'lib ko'rinadi, tasvir esa, plastik va ranglar jihatdan tekis va kambag'al bo'lib ko'rinadi. Shunday qilib, hajmli predmetlarni tasvirlashda yorug'-soyaning izchilligini (ya'ni gradasiyasini – bir bosqich yoki holatdan ikkinchi holat yoki bosqichga o'tishdagi izchillik) hisobga olish lozim, ya'ni bular – yorug'lik, shu'la, buyumning o'z soyasi va tushuvchi soya, yarimton va refleks. Talaba ushbu gradasiyalarni berish bilan bir vaqtda

hajmli tarzda ham aks ettiradi – buyumlarning plastik, ranglar, material, fakturaviy xarakteristikalarini, ularning yorug'lik xarakterini va ular joylashgan muhitni ham aks ettiradi. Issiq, tiniq, ravshan soyalarni buyumning yoritilgan qismida bo'yoqlar bilan pastoz tarzda berilgan sovuq yorug'lik bilan qiyoslanishi natijasida talaba shaklning plastikligi, hajmliligi, reliefi va sirtga oid taassurotlarni chiqarib beradi. YOrug'lik va o'rab turgan atrof sharoitlarining o'zgarishi bilan buyumlar shaklining tashqi ko'rinishi ham turlicha ko'rinadi. Kunduzi ular aniq, tiniq ko'rinadi, qorong'u-kechada esa, g'ira-shira ko'rinadi yoki umuman ko'rinmaydi. Aynan shu holatlarni buyumning yoki umuman natura buyumlarining yoritilgan va soyalashtirilgan qismlarini qiyoslashda sezish mumkin. YOritilgan buyumlar va ularning detallarini biz aniq va tiniq ko'ramiz, soyalashtirilganlarini esa, ya'ni soyada joylashganlarini – engil g'ira-shira qiyofada, noaniqroq tarzda ko'ramiz. Namuna sifatida “Sholg'omli natyurmort” asarini ko'rishimiz mumkin:



N.Gilmanova



Nur taratayotgan jismlar (quyosh, sham, gulxan alangasi, lampachiroqlar va h.k.) o'z atrofida gardish paydo qiladi. Gardishning rangi porlayotgan (yoki nur taratayotgan) jismning rangiga nisbatan ravshanroq ifodalangan.




Z.Sharipova

Bunda shamning gardishi sarg'ish-to'q sarg'ish rangga ega, alangasining o'zi esa, deyarli oq rangda.

Gardishni buyumlardagi shu'lani tasvirlayotganda hisobga olish lozim, aks holda yamoq kabi qo'pol, oq dog'ga o'xshab qoladi. Gardishning yashirin tarzda ko'rinishini oq va och (oqish) rangli buyumlarda ko'rsa bo'ladi, ayniqsa ular qora fonda ko'rinsa va yorqin yorug'lik bilan yoritilgan bo'lsa. Natijada, ular buyumning o'ziga nisbatan yirikroq, biroq qoramtir tusda ko'rinadi. Shuning kabi, och rang (oqish) yoki oq rangli kiyim kiygan odamlar qoramtir kiyim kiygan odamlar yonida yirikroq ko'rinishadi. Buyumlarning yuza sirlari, o'lchamlari ularning ranglari va oqishligiga ko'ra o'zgarayotgandek ko'rinishi

**irradiasiya** deb yuritiladi (irradiasiya – rangi ochiq narsalarning qora fonda kattaroq bo'lib ko'rinishidan iborat optik aldanish).

Irradiasiya hodisasini talabalarning o'quv ishlarida albatta hisobga olish lozim. Qora fonda joylashgan oqish buyumlarning yoki gipsli modellarning (kub, silindr va h.k.) tasvirlarida yoki umuman buyumlarning qora tusga ega bo'lgan predmetlarga nisbatan ularning proporsiyalaridagi munosbatlarning (kengligiga nisbatan uzunligi, balandligi) sezilarli tarzda ortganligi bilinadi.



### ***10. Masofaga bog'liq bo'lgan rang o'zgarishlari. Havo (fazoviy) va yorug'lik prespektivasi***

Rasm chizuvchiga nisbatan yaqin masofada joylashgan buyumlarda ularning o'lchamlari, shaklining xarakteri, hajmi, materiali, fakturasi, detallari, yorug'-soyasi, rangi va boshqa sifatlari yaxshi ko'rinadi. Buyumning uzoqlashuviga qarab ushbu sifatlari sekin-asta o'zgarib boshlaydi yoki umuman ajratib bo'lmaydigan holga kelib qoladi, bu esa, havo va yorug'lik perspektivasining ta'sir ko'rsatish oqibati (natijasi) hisoblanadi (perspektiva – ko'rinib turgan manzarani to'g'ri, butun boricha tasvirlash san'ati). Shuning uchun havo va yorug'lik perspektivasi fazoni, bo'shliq va kenglikni, naturaning hajmiy-plastik, yorug'-soyali, ranglarga

oid, materialli (yoki moddiy) hususiyatlarini ko'rsatib (chiqarib) berish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

### **10.1. Havo perspektivasining xususiyatlari**

Havo – chang, namlik bug'lari, qurum va h.k. lar kabi ko'pgina aralashmalardan iborat bo'lgan gazsimon moddiy muhitni o'zida namoyon etadi. Bularning barchasi yorug'lik nurlarining o'tishiga to'sqinlik qiladi, uning rang-tuslarini sohib yuboradi va o'zgartiradi. Havoning qatlami, uning harorati, namligi, unda mavjud bo'lgan o'zga turdagi aralashmalarning xarakteri va miqdoriga ko'ra, atmosferaning rang-yorug'lik muhiti turlicha bo'ladi. Natijada, buyumgacha bo'lgan masofa, atmosferaning holati buyumlarning lokal rang-tusiga sezilarli va ahamiyatli darajada ta'sir ko'rsatadi. Buyumning rangi yaqindagidan ko'ra uzoqdan neytralroq ko'rinadi. Ba'zida bizdan juda ham uzoqlashgan buyumlarning rangini aniq aniqlab olish qiyin bo'ladi. Oqish rang tusli predmetlar uzoqlashganda qoramtirlashadi, qoramtirlari esa – oqara boshlaydi. Natijada, qoramtir buyumlar massasining umumiy toni, masalan, rasm chizuvchi bilan yonma-yon joylashgan buyumlarning toniga nisbatan uzoqdagi daraxtlarning toni nisbatan (yoki sezilarli darajada) oqishroq (ochroq). Buyumlar (ayniqsa qoramtir tusga ega bo'lsa) uzoqdan zangorisimon, binafshasimon bo'lib ko'rinadi.

Uzoqlashgan sari predmetlarning nafaqat o'z rang-tuslarigina o'zgaradi, balki havo qatlamini qalinlashtiruvchi barcha narsalar tashqi ko'rinishini (konturini) va yorug'-soya kontrastini ham yuvib yuboradi. Buyumlar g'ira-shira, umumiydashgan xarakterga ega bo'la boshlaydi. Katta masofalarda buyumning hajmi, reliefi, detallari, materiali ko'rinmaydi. Ular uzoqdan umumlashgan, yumshoq (yoki engil), kichikroq tekis dog' day ko'rinadi. Ba'zida, u yoki bu buyumlar o'z siluetining xarakteri, tashqi ko'rinishi yoki harakatlari bo'yichagina bilinishi (tanilishi) mumkin. Binobarin, buyumgacha bo'lgan masofa qanchalik katta bo'lsa, buyum bilan kuzatuvchining ko'zi orasidagi havo qatlami qanchalik qalin bo'lsa, havo qanchalik xira bo'lsa, buyumlarning tashqi ko'rinish qirralari ham, uning xususiyatlari ham shunchalik noaniq bo'ladi. Yomg'ir, tuman, yog'ayotgan qor, hattoki kuzatuvchidan uzoq masofada joylashmagan buyumlarning ham ko'rinish xarakteristikasini o'zgartiradi. Havo qanchalik toza bo'lsa, u shunchalik ravshan va unda

ko'k-zangori, binafsha nurlar shunchalik ko'proq ishtirok etadi. Bu ayniqsa tog'larda juda ham seziladi, u erda ranglar uzoq masofada tekislikdagiga nisbatan kamroq o'zgaradi, soyalar va juda ham uzoqdagi tog'lar moviysimon-ko'kimtir yoki binafshasimon-kul rang tusda ko'rinadi. Bu erlarda ba'zida ob'ektgacha bo'lgan masofani aniqlash va kenglik, bo'shliq va fazoviy etyudda berish birmuncha qiyin. Tabiatda yorug'lik perspektivasi hodisasi ham kuzatiladi. Ular, ayniqsa, xona ichidagi sharoitlarda va sun'iy yorug'lik muhitida bilinadi va buyumlarni anglab olishda sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Yorug'lik perspektivasi yorug'lik manbaigacha bo'lgan masofa va buyumning unga nisbatan turgan holati bo'yicha aniqlanadi. Xona sharoitlarida yorug'lik manбайдan (lampa-chiroq yoki deraza) uzoqlashgan sari predmetlarning yorug'ligi susayib boradi. Shunga ko'ra buyumlar rangining to'yinganligi va svetlotasi o'zgaradi. Kuchli qorong'ulashtirilgan xonada buyumning rangi qora, kul rang va ma'lum bir aniq rang ifodasisiz ko'rinishi mumkin. Sun'iy yorug'likda yorug'lik manbaiga yaqin joylashgan predmetlar rang bo'yicha yorug'lik manбайдan uzoqda joylashgan buyumlarning rangiga ko'ra, sezilarli darajada oqishroq, yorug'roq ko'rinadi. Rasm chizuvchi ushbu o'ziga xosliklarni, farqlarni chiqarib berish bilan birga, tasvirda shartli fazoni yaratib oladi. Yorug'lik perspektivasininining chiqarib (ko'rsatib) berilishiga misol sifatida P.Benkov, R.Ahmedov, U.Tansiqboevlarning asarlarini ko'rsatish mumkin.



U.Tansiqboev





U. Tansiqboev



P. Benkov



R.Ahmedov

Natyurmort, portret, kompozitsiyalar ustida ishlayotganda yorug'lik perspektivasini hisobga olish va chiqarib bera olish juda muhim. Oldingi plandagi buyumlar yoki figuralarning yaqin qismlari rangi, yorug'lik




kontrastlari, detallari bo'yicha uzoq planli postanovkaning buyumlaridagiga nisbatan ravshanroq bo'ladi, unda konturlar o'zining aniqligini yo'qotadi, ranglar to'yinganligi esa kuchsizlanadi.



N.Gilmanova

Shunday qilib, tabiatda buyumlarning ko'rinuvchi va o'z ranglari o'rtasida katta farq mavjud. Bularning barchasini naturaning rangtasvirli ifodalanishida hisobga olish zarur. Biron bir rangli dog'ni o'zining atrofidagi havo muhiti va fazoning ta'sirlarini hisobga olmasdan olinishi mumkin emas.

Quyidagi jadvalda uchta shkala buyumlarning yorug'-soyasi va rangi rasm chizuvchidan uzoqlashgan sari qanday o'zgarib borishini shartli tarzda ko'rsatadi. Birinchi ikkita shkala to'yinganlik va rang tuslarining (ottenkasining) o'zgarishini, uchinchi esa predmetlar yorug'-soyasining qanday almashinayotganligini ko'rsatmoqda.



### ***11. Naturaning umumiy tonli va rangga oid holatlari***

Rasm chizuvchi naturani rangtasvirda tasvirlashda ob'ektlarning moddiy-fazoviy sifatlarini chiqarib berishdan tashqari, yorug'lik masalasini ham hal qiladi. Yorug'likning (quyoshli, oyli tun, bulutli kun va h.k.) shart-sharoitlari va uning xarakteri tasvirga emosional kayfiyat bag'ishlaydi. Kunning yoki yilning turli xil vaqtlarida, ob-havoning turli xil holatlarida yaratilgan aynan o'sha bitta peyzaj bizga turli xilda ta'sir ko'rsatadi. Issiq quyoshli ob-havo kishida tetiklik va quvnoqlik hissini uyg'otadi, g'ira-shira, qosh qoraygan yoki hali endigina tong yorishayotgan payt – o'ychanlik va g'amginlik, g'ira-shira kun esa g'amgin-lirik yoki ma'yus va ruhiy tushkunlik kayfiyatini olib keladi. Yorug'likning o'zgarishi bilan tabiatdagi ranglarning oqishlik tusi va ranglar to'yinganligi ham o'zgarishini talabalar ba'zida sezishmaydi ham, bunday paytlarda, albatta, naturaning umumiy ko'rinishi ham o'zgaradi (naturaning umumiy toni qoramirlashadi yoki oqroqlashadi).

Shunday qilib, har qanday yorug'lik manbai nafaqat buyumlarni tanib (anglab) olish uchun shart-sharoit yaratadi, balki ularning oqishligi va ranglar bo'yog'iga, rang tusiga ham ta'sir ko'rsatadi, shu bilan bir vaqtda, tabiatda ma'lum bir tonal-rangga oid holatni ham yaratadi. Sutkaning turli vaqtlaridagi umumiy yorug'lik kuchining o'zgarishi bilan buyumlarning ranglari ham o'zgaradi. Bulutli kunda maysa va o't-o'lanlarning ranglari quyoshli ob-havoli kundagiga nisbatan kamroq to'yinganroq ko'rinadi; honada derazadan uzoqlashgan sari ranglar susaya boradi (yoki kuchsizlashadi, zaiflashadi). Qorong'u tunda notanish xonaning va undagi



buyumlarning ranglarini aniqlab olish umuman qiyin bo'ladi. Faqatgina tong yaqinlashib borishi bilan alohida ranglarni ajratib olish mumkin bo'ladi. Dastlab zangori, ko'k, yashil, so'ngra sariq va nihoyat qizil ranglar bilina boshlaydi. Quyoshli tong yorug'ligida tabiat o'z rang-barang tusiga ega bo'ladi. Tush paytida, yorqin quyosh ostida barcha narsalar ravshanlashadi, ranglar tongdagiga nisbatan kamroq to'yingan tusda bo'ladi. Yorqin quyosh yorug'ligida zangori, ko'k va yashil ranglar birmuncha oqishroq tus oladi. Qizil, to'q sariq ranglar kamroq o'zgaradi. Tushdan keyin, kechga yaqin ranglar yana nisbatan zichroq, quyuoqroq va intensivlasha boshlaydi. Oqshomdan keyin, g'ira-shira boshlanishi bilan dastlab qizil, to'q sariq, so'ngra yashil, ko'k, zangori ranglar ketma-ket tarzda xiralashib so'na boshlaydi. SHunday qilib, yorug'likning intensivligi o'zgarishi bilan ranglarning ochiqligi va to'yingaligi ham o'zgaradi boshlaydi. SHuning uchun kunning turli vaqtlarida yoki turli xil ob-havo sharoitlarida yaratilgan etyudlar eng avvalo o'zining umumiy tonal-rang echimi bo'yicha ajralib (yoki farqlanib) turishi zarur. Bu borada rassomlarning asarlarini qarab o'tamiz. D. Mamedova asarida, biz issiq kun holatini, quyoshning yorqin ranglar o'yinini, quyoshda issiq, soyada esa sovuq ko'k ranglar paydo bo'lishini ko'rayapmiz. Rangtasvir ustasi R. Ahmedov asarida esa aksincha, oqshom holatida ranglarning tiniqlashganligini, asosan ko'k ranglar paydo bo'lishini kuzatishimiz mumkin.



D.Mamedova



R.Ahmedov

Ranglarning o'zgarishini natyurmortlarda ham ko'rish mumkin. Agar natyurmortni ochiq deraza oldida va qorong'ulashgan xona ichida chiziladigan bo'lsa, u holda birinchisida natyurmortning tonal-rang echimi yorug'lik manбайдan uzoqda joylashgan natyurmortdagi holatlarga nisbatan oqishroq, yorqinroq va rangi intensivroq bo'ladi.





N.Gilmanova



T.Serov

## ***12. Ranglar birligi, natura ranglarining uyg'unligi (kolorit)***

U yoki bu yorug'lik manbai nurlarining rangi predmetlar dunyosining bo'yoqlarini umumlashtiradi, ularni turdoshlikka olib keladi. Naturaning bo'yoqlari har qancha turli-tuman bo'lmasin, uning barcha buyumlarida va detallarida ishtirok etuvchi yorug'lik rangi ularni koloritlik jihatdan birlashtiradi.

O'zida bir qancha turli xil nurlanishlarni mujassamlashtirgan xona yorug'ligi – xonada joylashgan devordan, shipdan, poldan, buyumlardan aks etgan yorug'lik, derazadan tushgan yorug'lik va h.k. lar – barchasi u yoki bu rang tuslariga ega bo'ladi. Har bir yorug'lik manbaiga xos bo'lgan rang tuslari yoritilayotgan buyumlarning hamma ranglarida ishtirok etadi va bu naturaning ranglar birligini – **koloritni** yaratadi. Koloritning mohiyatini yaxshi tushunish uchun rangli shishalardan foydalanish mumkin. Agarki naturaga, masalan, sarg'ish-qizil shisha orqali qaraydigan bo'lsak, u holda kechki (oqshomli) quyosh yorug'ligiga yaqinroq bo'lgan taassurot hosil bo'ladi. Kunduzgi yorug'lik sovuq, birmuncha keskinroq



kolorit effektini beradi. Agar, bulutli kun holati yoki oyli tun yorug'ligini aks ettiruvchi etyudlarni yorqin quyoshli kunda yoki sun'iy yorug'likda yaratilgan (chizilgan) etyudlar bilan qiyoslab (taqqoslab) ko'rilsa, kartinalar va etyudlar koloritidagi farqlar yana ham ko'proq bilinadi.



N. Gilmanova

Naturani rangtasvirda ifodalashda yorug'lik manbaining kuchi va ranglari bilan aniqlanuvchi (belgilanuvchi) nafaqat ranglarning turli-

tumanligini, balki ularning birligini ham hisobga olish zarur. Hech qanday rang dog'ini umumiy ranglar holati bilan moslashtirmasdan turib tasvirga kiritish kerak emas. Har bir buyumning rangi yorug'da ham, soyada ham ranglar bir butunligiga (umumiyligiga) turdosh bo'lishi zarur. Agar tasvir bo'yoqlari yorug'lik ranglari ta'sirini ko'rsatib bera olmasa, ular yagona koloristik gammaga bo'ysunmaydi. Bunday tasvirda har bir rang mazkur (yoki berilgan) yorug'lik holatiga qandaydir yot-begona narsaday ajralib qoladi; u tasodifiy narsaga o'xshab qoladi va tasvirning ranglar bir butunligini buzadi. Shunday qilib, bo'yoqlar yorug'likning umumiy ranglari bilan tabiiy tarzdagi birlashuvi – etyud yoki kartinada uyg'unlashgan ranglar tizimini yaratishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Bu holatni biz “Qovoqli” natyurmortida kuzatishimiz mumkin. Bu erda hammasi umumiy ranglar bo'yoqlariga bo'ysunadi, narsalar va atrof ma'lum rang uyg'unligi kayfiyatini yaratadi, xuddi bir yagona iliq chiroq bilan yoritilgandek.

### ***13. Tasvirning bir butunligi (yaxlitligi)***

Kartina tekisligida naturaning yorug'-soyasini va ranglar munosabatini to'g'ri bera olish uchun ularni aniqlay yoki **ko'ra olishni** o'rganish kerak. Rangtasvirchining mahoratida badiiy (musavvirona) ko'ra olish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Endigina boshlayotgan rangtasvirchilarda eng ko'proq xarakterga ega va tez-tez uchrab turuvchi xatolik – bu ularning ishlarida tasvirlarning rangtasviriy **yaxlitligining** yo'qligidir. Bunday ishlarga bir xil oqishlik tusidagi va to'yinganlikdagi rang dog'larining ko'p martalab takrorlanishlari, buyumlarning shakllari va detallariga bir xilda ishlov berilganligini misol qilib aytish mumkin. Barcha buyumlar va detallar ulardagi rang va kontrastlikning bir xildagi faollikka egaligi tufayli tasvirning birinchi planiga “chiqib” oladi. Bunday holatda u yoki bu etyudda nima asosiy narsa ekanligini, unda muallif nimani ko'rsatib berishni xohlaganligini tusho'nib olish qiyin bo'ladi.

Mazkur badiiy (musavvirona) ko'rishning o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?

Naturada yorug'-soya va ranglar munosabatini aniqlab olishga “bir vaqtning o'zida qiyoslash” metodi orqali erishiladi. Mazkur metodning samaradorligi naturani maxsus ko'ra olish bilan – ko'ra olishning **yaxlitligi** yoki rassomlar aytganidek “keng qamrovli qarash” bilan shartlangan. Rasm chizuvchi o'z nazarini (qarashlarini) alohida buyumlarga, xususiyliklar va qismlarga mujassamlashtirishi emas, balki butun naturani butunligicha, birdaniga qamrab olishi zarur, bunda buyumlarning oqishlik, yorqinlik tuslari, ranglari, reliefi va b. lar bo'yicha farqlarini qiyoslashi, taqqoslashi zarur. Bunday, keng qamrovli ko'rish natijasida barcha buyumlar guruhi noaniq, g'ira-shira va chaplangan tarzda ko'rinadi. Biroq ushbu umumlashgan “dog'da” buyumlarning rang farqlarini, bir rangning faolligi va boshqasining bo'g'iq va xiraligini ko'rish va aniqlab olish oson. Faqatgina doimiy tarzdagi qiyoslash va taqqoslash yo'li bilangina rangtasvirning asl mohiyatini anglash mumkin. Tajribali chizuvchi hammasini bir vaqtning o'zida ko'ra oladi, shuningdek yaxshi dirijyor kabi skripkani ham, fleytani (nayni) ham, fagotni ham bir vaqtning o'zida eshita oladi. Bu esa, aytish mumkinki, mahoratning cho'qqisidir va bunga asta-sekinlik bilan erishiladi. Naturadagi ko'rinuvchi munosabatlarni to'g'ri aniqlashga turli xil usullar yordam beradi. Binobarin, ko'pgina ustalar kuzatish vaqtida ko'zni bir oz qisibroq qarashni, buyumlarga fokusda emas, balki huddi “yonginasidan va tezgina”, “nuqtasiga emas, yon-atroflariga” qarashni maslahat berishadi. Ko'pgina boshlovchilarga ba'zida qora shishadan, oynadan, “video qidiruvchi” – ramkadan foydalanish, naturaning ko'rinuvchi ranglarini palitraning toza rang bo'yoqlari bilan qiyoslash tavsiya etiladi.

#### ***14. Bo'yoqlar aralashuvi***

Bo'yoqlarning bir-biri bilan aralashuvi mexanik yoki optik tarzda bo'lishi mumkin. Birinchi holatda ikki yoki bir nechta bo'yoqni politrada bir-biri bilan aralashtiriladi, so'ngra esa paydo bo'lgan aralashma asosga olib o'tiladi. Bunda aralashtirilayotgan bo'yoqlar o'zining yorug'lik tusini, to'yinganlik va oqishligini o'zgartirishi mumkin. Ba'zi bir bo'yoqlar

aralastirilishida noxush (yoki yoqimsiz) kimyoviy o'zaro ta'sirlashuvga kirishishi mumkin. Aralastirilishdan hosil bo'lgan rang o'zgarishi, ya'ni kul rang tusga kirishi, qorayishi mumkin.

Sariq, qizil, ko'k bo'yoqlarni qandaydir bo'yoqlarni aralastirish yo'li bilan hosil qilish mumkin emas. Biroq, shu bilan bir vaqtda, ularning bir-biri bilan aralashuvidan hosil bo'lgan aralashma ko'pgina turli xildagi ranglar birikmasini beradi. Biroq agarki, yashil rangni qirmizi (purpur) yoki to'q sariq bilan aralastirilsa, hosil bo'lgan rang axromatik (kul rang) rangga yaqinlashadi, bundan kelib chiqadiki, ranglar doirasi bo'yicha qanchalik bir-biridan ko'proq uzoqlashadigan bo'lsa, ular shunchalik qo'shimcha rang tuslariga yaqinlasha boradi, shu bilan birga, kamroq to'yingan rang ularning aralashuvidan hosil bo'ladi. Va aksincha, ranglar rang doirasida bir-biriga qanchalik yaqin joylashgan bo'lsa, ularning aralashmasi shunchalik toza va to'yinganroq ko'rinadi. Kul rang tusli rang oq va qora bo'yoqlarning (guash, moy) aralashmasi natijasida hosil bo'ladi. Akvarelda kul rang tusli rang qora bo'yoqni suv bilan aralastirish va oq tonli qog'ozdan foydalanish yo'li bilan hosil qilinadi. Kul rang tusli rang sovuq va issiq rang tusiga ega bo'lishi mumkin. Birinchi holatda kul rangga ozroq miqdorda ko'k yoki yashil bo'yoqlarni aralastirish mumkin; ikkinchisida esa – oqish oxrani (sariq yoki qizil tusli mineral bo'yoq), tabiiy sienani (tabiiy to'q sariq) yoki umbrani (jigar rang mineral bo'yoq) aralastirish mumkin.

Rasm chizuvchi ko'p ranglilik (rang-baranglik) taassurotini hosil qilish uchun imkon qadar minimal (kam sonli) miqdordagi bo'yoqlardan foydalanishga intilishi (harakat qilishi) zarur. Binobarin, u bo'yoqlar to'plamidan kam turuvchi (beqaror, nomustahkamroq turuvchi) – qorayib boruvchi, aynib ketuvchi va h.k. bo'yoqlarni chiqarib tashlash uchun qaysi bo'yoqlarni o'zaro aralastirishi mumkin, qaysilarini aralastirish mumkin emasligini bilishi zarur. Mustahkam bo'yoqlar aralashmasini hosil qilish va keraksiz aralashmalardan qochishda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish uchun ta'lim oluvchilarga rassomlik (badiiy) moyli bo'yoqlarining

keraksiz aralashmalari jadvalini e'tiborli tarzda o'rganishlari tavsiya etiladi.

### *15. Akvarel*

Hozirgi paytda o'zida yarqiroq va yarim yarqiroq bo'yoqlarni, guashlarni mujassam etgan – bo'yoqlar bilan yaratiluvchi rangtasvirni akvarel deb nomlanadi, aralash akvarel va guash texnikasida esa u yoki boshqa bo'yoqlar ham qo'llanilaveradi. Suv erituvchi (aralashtiruvchi), gummiarabik esa – modda va narsalarni ulovchi (bog'lovchi) sifatida rol o'ynaydigan barcha rangtasvir usullari vaqt bo'yicha judayam eski; akvarel esa toza ko'rinishda, ya'ni rangli lavis (yuvuvchi) – unda yorug'liklar uchun oq qog'oz saqlanib qolinadi, Afsuski XIX asr boshlaridan avval mavjud bo'lmagan, binobarin bu vaqtga qadar rassomlar o'z eskizlarida deyarli bir rangdagi rasm chegarasidan chiqib ketmagan holda, bir nechta neytral tonlar (lavis) bilan chegaralanishgan.

Quruq qog'ozdagi akvarelli rangtasvir o'zida syujet predmetlarining shakllarini aniqlagan va qog'ozning oqligidan foydalanilgan holda yarqiroq rangli rasmni namoyon etadi. Biroq bu bajarilayotgan ishni umuman havodan mahrum etuvchi tonlar gradasiyasining yo'qligini yoki dumaloq shakllarning osonlashtirilmaganligini (nisbatan yumshatilmaganligi yoki engillashtirilmaganligini) yoki ma'lum bir qat'iy belgilangan fonning yaratib olinmaganligini bildirmaydi. Akvarel quruq sirt yuzasida tezgina yutilib (singib) ketishini e'tiborga olgan holda, biz oqishlikdan qoramtirlikka qarab borishimiz zarur bo'ladi, bunda avval ko'pincha nisbatan kengroq tarzdagi oqargan, xira tortgan, rangsizlangan joylarni to'ldirgan holda, sekin-asta qoramtir qismlarga o'tib boriladi. Quruq qog'ozga chizish texnologiyasining ifodalanishi bu-faqatgina nam yuza sirtga akvarel bilan chizilgan rasmdagi farqlarning ko'rsatilishinigina bildiradi, bu esa o'z navbatida qator muhim xususiyatlarga ega. “Quruq” akvarelni an'anaviy shakllarga kiritish mumkin.

“Namlikka – namlik bilan yondashish” texnikasida nam qog'oz qo'llaniladi, demakki, unda konturlar yuvilib ketadi va noaniqlashib qoladi, hattoki keyingi orqa fon ham. Qog'oz qanchalik nam bo'lsa, konturlar ham shunchalik noaniq bo'ladi va bo'yoq ham ko'proq yuvila boshlaydi. Har doim qog'ozning namgarchilik darajasini kuzatib borish va buning uchun jarayonni mo'y qalam yoki bosma qog'oz bilan nazorat qilib




borish zarur. Biroq biz namlangan qog'oz to'g'risida gapirganimizda ko'loqlab suv bo'lib ketgan qog'ozni nazarda tutmaymiz, albatta.

## **16. Akvarel bilan ishlash metodikasi**

### **16.1. Tonli yuvib tozalash (grizayil)**

Tasvirning umumiy toni – bir tonni boshqasining ustiga bir xil quyuqlikka (konsentrasiyaga) ega bo'lgan aralashma bilan takroran berib (surtib yoki yotqizib) chiqish orqali erishiladi. Har bir takroriy bo'yoq berish qurishga ulgurgan bo'yoq qatlami uzra beriladi.




### **16.2. Ko'p qatlamli akvarel bo'yoq'ini berish (lessirovka)**

Tasvirdagi buyumlarning shakllariga batafsil ishlov berishda uzoq muddatli ko'p seansli ishlarda keng foydalaniladi. Kompozitsiyadagi fazo ko'p qatlamli suv bo'yoq aralashmasini berilishidan kelib chiqadi.



Bo'yoqlardan asosan qora, umbra (jigar rang mineral bo'yoq) va to'q sariq (tabiiy bo'yoq) foydalaniladi.

**Ko'pqatlamli akvarel bo'yog'ini berish namunalari (lessirovka)**





### 16.3. “Alla-prima” metodi

Bir qavat bo’yoq aralashmasidan kerakli kuch, ton va rangni berish bilan, ishning holatini tezlashtirish uchun foydalaniladi.



### 16.4. Namlik bo’yicha ishlash usuli nam yuzali asos bo’yicha

Bunday ish engil o’rishlar orqali engil, yorqin rang tuslarini berishga imkon yaratadi va oynaga qo’iyilgan namlangan qog’oz ustidan olib boriladi. Ko’proq bu usul manzarali rangtasvirda qo’llaniladi.



### **16.5. Aralash metodlar bilan bo'yoq berish**

Bu usul qo'p qatlamli akvarel bo'yog'ini berish bilan birgalikda, namlik bo'yicha ishlash va "alla-prima" usullarini qoldirishga imkon yaratadi.




### **17. Guash**

Guashli rangtasvir elimli rangtasvirdan deyarli hech narsasi bilan farqlanmaydi, faqatgina bo'yoqlar oddiy elim bilan emas, suvda gummiarabika bilan o'chiriladi. U shisha bankachalarda sotiladi, eng yaxshi guash turi – "xudojestvennaya". Akvarelni guash bilan bog'lash mumkin, ko'plar shunday chizishadi. Bunday holda yaxshisi akvarel bilan boshlash, so'ngra esa guash qo'shib, keyin chizish kerak, biroq shunday qilish kerakki, bunda rangtasvir qavati bir turga (ya'ni bir xilga) o'xshash



bo'lishi zarur. Va albatta guash suv bilan yuviladi. Mohiyatiga ko'ra u ham suvli bo'yoq. Guashni xira tusli qatlamda beriladi, uni qaymoq quyugligiga qadar suvda eritiladi. Avval chizilgan (yoki berilgan) ning ustidan qora rang bilan ham, oqish tusli rang bilan yana chizish mumkin. Biroq har bir qavatni ehtiyotkorlik bilan oshirib borish lozim: rangtasvir quriganda ko'chib, to'kilib tushishi mumkin. Qurigan bo'yoq judayam oqarib ketadi. Shuning uchun guash bilan ishlaganda namlik bilan ishlashni, rangtasvirni doimiy tarzda ho'llab, ivitib, namlab turishni maslahat berishadi. Aks holda yangi chizilgan (berilgan) chizgilar eskilari bilan mos tushmasligi mumkin. Guash uchun ishlatiladigan qilqalamlarga egiluvchan mo'y, tuklardan – kolonok, bo'rsiq va tabiiy o'simlik tuklaridan foydalaniladi.

### **Guashda ishlangan natyurmort namunalari:**







## ***18. Tempera***

### **(Maxsus tayyorlangan bo'yoqlar)**

Tempera – elimli rangtasvir. Elimli rangtasvir uchun bo'yoqlar suvda eritiladi va ularga ishlash paytida qizdirish orqali suyuq holga keltirilgan bo'yoqchilik elimi qo'shiladi. Qadimda suv bilan pigmentlar surkalgan va so'ngra ularga sovuq suvda eritilgan tuxum sarig'i qo'shilgan (emulsiya), – bu tuxumli tempera deb nomlangan. Guashli temperaga o'xshash, u guash va moyli bo'yoq o'rtasidagi qandaydir oraliqni o'zida namoyon etadi. Bu qadimgi bo'yoqlardan biridir: Qadimgi Rusda tuxumli tempera bilan chizishgan. Xozirda esa uni emulsiyalarda tayyorlashadi, u moy yoki sintetik elim (PVA) aralashmasi bilan suvli elim qorishmasidan iborat bo'ladi. Rangtasvirda tempera guashga nisbatan qattiqroq ko'rinadi, qalin, quyugroq surkalganda sal yaltiraydi, suv bilan suyultirilgani akvarelga o'xshaydi. Tempera sotib olishda kazeinli-moyli yoki sintetik turini olish kerak, ularni aralashtirib bo'lmaydi. Akvarel va guash – ularga qancha miqdorda kerak bo'lsa ham, qo'shish mumkin. Ba'zida temperali oq bo'yoqdan iborat pasta idishli (tyubikli) akvarel bilan chizishadi. Biroq esda tutish zarurki: tempera qurigandan so'ng qayta erimaydi (cho'tkachalarni ishlatib bo'lgach tez va yaxshilab yuvish kerak).

## ***19. Pastel***

### **(Rangdor bo'r qalamlar)**

Pastel – bu toza suv bilan qorilgan bo'yoqlar; biror-bir massaga keltirib aralashirilgan gil-loy (asosan oq tusli trubkachalar shaklida), ularni ko'pincha quruq qalamchalar ko'rinishida tasvirlashadi; faqatgina tarkibida gil-loy bo'lmagan ba'zi bir bo'yoqlargina suvda oz miqdordagi kamedi (gummi) elimi aralashmasi bilan eritiladi. Shunday qilib, ayon bo'ladiki, pastel rangtasviri chiziluvchi asosda – qog'ozda, kartonda, xolstda (bo'zli asos) va b. – mexanik tarzda esa, faqatgina g'adir-budur yoki dag'al sirtli yuzada bo'lishi mumkin. Bu esa, tabiiyki, pastel bilan ishlash uchun xuddi shunday sirtga ega bo'lgan materialni tanlab olishga yoki unga pemzoli kukun qavatini yoki birmuncha miqdorda elim qo'shilgan qum qoplash yo'li bilan sun'iy tarzda g'adir-budirlik hosil qilishga majbur qiladi. Pastelga mos material tanlashda shu narsani nazarda tutish zarurki, kukunli bo'yoqlar berilgan yuza sirtidan osongina



sochilib yoki to'kilib ketadi va bunday bo'yoqlar hech qanday bog'lab (yopishtirib yoki ushlab) turuvchi moddalarsiz boshqalariga qaraganda ko'proq darajada namgarchiliklar va gazlarga chidamsiz bo'ladi.

Imkon qadar kamroq vibrasiyalanuvchi va etarlicha qalinlikdagi materiallarni tanlab olish zarur, masalan, kartonni tanlash mumkin, uni ikki tomonidan ham akvarelli fiksator yoki rangtasvirlik loki bilan qoplab namgarchilikdan saqlash qiyin emas.



## II. SODDA VA MURAKKAB MAISHIY PREDMETLAR RANGTASVIRI

Natyurmort fransuzchadan tarjima qilinganda – “jonsiz natura”, ingliz tilida esa – “sokin, qo'zg'almas hayot” degani. Natyurmort rangtasviriga kirishishdan avval uni “qo'yib olish”, ijod qilish, to'qib, yaratib olish lozim. Birinchidan, g'oyaviy o'ylangan niyat bo'lishi zarur. Siz o'z natyurmortingizda nimani ifodalashni xohlaysiz, nima haqda gapirmoqchisiz? To'kin-sochin, farovon hayot quvonchi, atrofni o'rab turgan narsalarning rangtasviriy jozibadorligi. Yoki sport yoki san'at turlaridan birining (musiqa, teatr) atributlari bilan bog'liq bo'lgan buyumlar. Yoki bo'lmasa, qadimgi narsalardan – mis idish, shamdonlar, farfor va keramik buyumlar, barcha choy ichishga kerakli bo'lgan buyum-narsalardan tashkil topgan natyurmort. Muhimi – ular umumiy g'oya bilan

birlashtirilgan bo'lishi zarur. Ikkinchidan, buyumlarni guruhlash o'ta muhim ahamiyatga ega. Ular zerikarli darajada turli xil kattalikda va o'lchamlari bo'yicha bir xilda bo'lishi mumkin emas. Har qanday postanovkaning asosiy ob'ekti ko'pincha eng yirik buyum bo'ladi, uning atrofida fazoviy uyg'unlikni hisobga olgan holda, boshqalari komponovka qilinadi. Uchinchidan, postanovkani imkon qadar yagona koloristik tizimda ushlab turgan ma'qul. Natyurmortni tuzishda qo'shimcha ranglar qonun-qoidalaridan foydalanish yakuniy nuqta sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, postanovkada ko'pincha zangori tonlarning mos va muvofiq tarzda uyg'unlashuvi, ustunlik qilishi, ora-sira sariq, oxrasimon, oltin-rang-issiq narsa va zarralar joylashtirilishidan foydalanish ham yomon bo'lmaydi.

Yashilsimon ranglar qizil va uning tuslari ishtirokida muvofiqlashtiriladi, vazminlik bag'ishlanadi. Natyurmort ustida ishlaganda doimo predmetlarni o'lchamlari, uzoqligi va bir-biriga yaqinligi, gorizont chizig'iga nisbati, postanovka mujassamlashgan tekislikning yaqin va uzoq chetlari va qirralari bo'yicha qiyoslash va taqqoslab turish lozim. E'tiborni alohida qismlarga mujassamlashdan qochish, xolstdagi va natura postanovkasidagi ranglar va tonlar munosabatlarining yagonaligi va yaxlitligini ko'ra olish zarur.





## **20. O'quv natyurmortida yorug'likning roli**

Talabalar tasviriy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida u yoki bu tarzda quyidagilarni o'rganishlari zarur bo'ladi:

**1. Predmetlarning shakllari; 2. Soya-yorug; 3.Prespektivalar; 4.Ranglar qonunlari.**

Talabaga jiddiy, puxta va mustahkam professional maktab bilimiga ega bo'lish imkoniyatini beruvchi, kasbiy bilimga ega bo'lishning buyuk "trenajyori" **natyurmort** hisoblanadi.

**Natyurmort** – bu bizni o'rab turgan dunyoni aks ettirish yo'llari va metodlarining ijodiy laboratoriyasidir. Birlari koloriti, yangiligi, texnik usullari bilan ifodali bo'lsa, boshqalari moddiyligi (materialiyligi), yorug'-soya echimlari bilan ifodalidir. Natyurmortlar o'zining maqsadiga ko'ra **o'quv** yoki **ijodiy** bo'lishi mumkin.

Natyurmort san'ati o'zining ajoyib va uzoq tarixiga ega. Mustaqil janr sifatida u XVII asrda rasmiylashtirildi. Kompozisiya qonunlari bo'yicha tuzilishiga ko'ra u davrni, dunyoni hissiyotlarni aks ettirishga qaratilgan. Turli davr rassomlari natyurmort kompozisiyalari qiziqarliroq bo'lishi, buyumlari relefliroq, moddiyroq (materiliyroq), muayyanroq bo'lishi yoki bulutli kun og'ushida tumanlar ichra g'oyib bo'lib ketishi uchun yorug'likning qaysi shart-sharoitlarini, hodisasi va holatlarini, qaysi xususiyatlarini tanlashgan?

Natyurmort janri klassiklarining va zamonaviy rassomlarning tajribalarini tahlil qilib, shuningdek, ularning o'quv natyurmorti metodlari quyidagi hulosalarni keltirib chiqaradi:

1. Yorug'likni rasm chizuvchi oldida turgan vazifadan kelib chiqqan holda tanlash;

2. Natyurmortlarni turli xil darajadagi (tarqoq, sochilgan va yo'naltirilgan) yorug'liklar va shart-sharoitlar ta'sirida bajarish:

- ustaxonada;
- uyda;
- ochiq havoda;
- soyada;
- quyoshda.

3. Natyurmortning g'oyasi eng aniq tarzda namoyon bo'luvchi yorug'likni tanlash zarurligi;

4. Predmetlarni, drapirovkalarni tanlab olish va natyurmort kompozitsiyasini tuzish bilan bir qatorda uning muvoffaqiyatli tarzda yoritilish postanovkasini ham yaratish;

5. Rasm chizuvchi oldida o'quv vazifalari bilan bir qatorda, ijodiy ma'nodagi – postanovkaning obrazli holatlaridagi (asoslaridagi) poeziyani, go'zallikni ko'rsatib, (chiqarib) bera olish vazifasi ham qo'yiladi;

6. Yorug'lik ham rang kabi rangtasvirda – kompozitsiyaning muhim elementidir. Uning yordamida tomoshabinning idroki, zehni tashkillashtiriladi;

7. Yorug'lik postanovkada asosiy narsani – kompozision markazni belgilab, ajratib, aniqlab olishga yordam beradi, yorug'likdan hosil bo'luvchi soya esa, aksincha, ikkinchi darajalilarni yutadi, bo'yoqlarning, predmetlarning tashqi ko'rinishidagi keskinlikni, zo'riqishni kamaytiradi.

Gollandiya san'atida XVI–XVII asrlar oralig'ida natyurmort Piter Klass, Villem Xeda, Frens Sneyderslar kabi ajoyib rangtasvirchilarning ijodlarida o'zining eng yuqori yuksakligi va ravnaqiga, gullab-yashnashiga erishgan.



Villem Klas Xeda

Gollandlarning sevgan mavzulari (mativlari) – “nonushtalar”: idishlar, mevalar, baliq, parranda (qush) go’shti edi. Postanovkalar bir butun (yaxlit) tarzda neytral fonda olinar (qabul qilinlar) edi. Golland ustalari natyurmortlarni butun postanovka uchun ham, polotno uchun ham yaxshigina yorug’lik shart-sharoitlarini yaratib beruvchi, yon tomondan tushuvchi, bir tekis kunduzgi yorug’likka ega bo’lgan xonalarda chizar (yaratar) edilar. Golland natyurmortlari hotirjam, sokin yorug’lik bilan to’ldirilgan, buyumlar eng yutuqli tomondan ko’rsatilar edi. Kartina ustida uzoq muddat davomida ishlab, ular buyumlarning yoritilgan qismlarini, o’z soyasi va va tushuvchi soyalarni, bularning barchasini umumiy koloritga birlashtirgan holda mukammal tafsilotlari bilan qayd etishar edi. SHunday qilib, golland natyurmortlarining muhim omili yorug’likdan iborat bo’ldi, uning ahamiyati birinchi marta to’liq tarzda ochib berilmoqda. Erkin, ihtiyoriy joylashgan predmetlar orasidagi asosiy bog’liqlik (aloqa) sifatida yorug’lik xizmat qiladi. Yorug’lik bir narsadan boshqasiga chopib o’tishi orqali, u butun tasvirga o’ziga xos (o’zgacha) joziba baxsh etadi.

Rang yorug’likning sehrli ta’siri ostida jonlangandek tuyuladi. Yorug’likning sehrli kuchi natyurmortni jonlantiradi, ranglarni to’liq jarangli akkordga (tovushlar hamohangligiga) olib o’tadi. Qaysidir chap tomondan kelayotgan yorug’lik mevalarga kelib tushadi, ularning shakllaridagi dumaloqlikni qayd etadi, po’stining egri-bugri chekka va qirralaridan yugurib o’tadi, ramka va kub idishning past-baland, g’adir-budir yuzasidagi shu’lalar bilan o’ynashadi. O’zbekistonda mo’l-ko’l gullar va mevalarining ko’pligidan rassomlarning doimiy e’tibori ham natyurmortda bo’ladi.

Natyurmortning taniqli, shuhrat qozongan mohir ustasi O.K.Tatevosyan bo’ldi. U ayniqsa gullarni sun’iy yorug’lik ostida chizishni yaxshi ko’rar edi; bunday natyurmortlar ko’rkam va teatral jihatdan ham samarali va kuchli taassurot qoldiradi. Biroq asosan mevalar – qahrabo (yantar) rang uzum va anorlar ayniqsa muvaffaqiyatli chiqar edi; ularda rangtasvir koloritning boyligi bilan yarqirab ajralib turadi, zero, umuman olganda, ular birmuncha manzaralilikka xosdir (dekorativ tarzdadir).





O.K.Tatevosyan

Bu borada V.Ufimsev, N.Kashina, A.Lunev, R.Ahmedovlarning natyurmortlari o'ta qiziqarlidir. R.Ahmedovning asarlari ko'pincha tasviriy san'at janrlarining sintezlanishiga oid yangicha vazifalarni qo'yadi: plener-peyzajli rangtasvirning natyurmort bilan, peyzajning portret bilan muvofiqlashuvi, uyg'unlashuvi, birikuvi shular jumlasidandir.



N.Kashina





R.Ahmedov





R.Ahmedov

Ushbu rassomlarning ijodlari naturaning rangtasviriy idrok etilishi va taasurolarning umumlashtirilishi tomonga rivojlanib bordi. Rassomlar natyurmortlarning kompozitsiyalarini turlicha hal qiladilar, ko'proq ochiq havoda plenerli rangtasvir masalalarini muvofiqlashtirgan holda chizishni ma'qul ko'rishadi. Rang jiloliroq (titroq, jimjimali), harakatchan, chaqnovchi bo'ladi, nozik tuslar bilan boyitiladi, soyalarda osmondan olinuvchi sovuqlik tuslari bilan, quyoshning issiq reflekslari bilan boyitiladi. Shunday qilib, hulosa qilish mumkinki, ob-havoning holati, yil fasllari va kunlari, yorug'likning holati va shart-sharoitlari, bularning barchasi natyurmortning butun obrazli qiyofasiga (tuzilishiga) ta'sir ko'rsatadi, uning koloristik va kompozision birligini (yaxlitligini) aniqlab, belgilab beradi.

### **Natyurmortning sun'iy tarzda yoritilishi nima beradi ?**

Kompozitsyaning plastik va g'oyaviy xususiyatlarini ochib berishda uning ahamiyatini baholash qiyin.

Afsuski, talabalarning ishlari ko'proq umumiy tonal jihatdan to'g'ri topilmaganlikdan aziyat chekadi, naturaning ob'ektlari umumiy yorug'likni hisobga olinmagan holda, buyumdagi ranglar bilan chiziladi.

Umumiy yorug'likning kuchidan tashqari yorug'likning ranggi ham o'ta muhim. Sun'iy tarzda berilgan yorug'lik sarg'ish-to'q sariq tus beradi, ertalab esa tabiatda tilla rang-pushti tuslar ustunlik qiladi, kechqurunlari sariq-to'q sariq, bulutli kunda – neytral kumush rang, oyli kunda esa – kul rang-zangori ranglar ustunlik qiladi. SHu tarzda, ranglar birligi (yaxlitligi) va uyg'unligi yaratiladi, ya'ni issiq yoki sovuq ranglar gammalari ustunlik qiladi. Mazkur qonuniy birlik natyurmortning uyg'unlashgan koloritini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, talabalarga predmetlarning hajmiy, materialiy (moddiy), fazoviy sifatlarini hal qilishga imkon yaratadi, tomoshabinning hissiyot va sezgilariga ta'sir ko'rsatadi, ma'lum bir kayfiyat va kechinmalarni yaratadi. Sun'iy yorug'likning fazilatlarini esa, biz talabalarning ishlarida kolorit va emosional xolatlarini kelib chiqishi uchun qo'llashimiz mumkin. Chunki ko'plab talabalarning ishlari oddiy ranglar bilan bo'yaladi va soya yorug', kolorit tushunchalari etiborga olinmaydi. Buning uchun sun'iy yorug'likda xar hil rangli



shishalarning yorug'ligini ishlatishimiz mumkin. Bunday ishlar ko'rayotgan odamda xar hil his tuyg'ularni o'yg'otadi va fikrlashga chorlaydi. Namuna sifatida "Behili natyurmort" asarini sun'iy yorug'likda ishlanganligini ko'rishimiz mumkin.



N.Gilmanova

Xulosa qilish mumkinki, talabalarga rangtasvirni o'qitish (o'rgatish) jarayonida ularning ko'rishga oid zehni va idrokini qayta shakllantirish zarur, rang farqlarini predmetlarning yoritilish shart-sharoitlariga ko'ra (yoki bog'liq holda), akonstant tarzda ko'ra olishini (his etishni) hosil qilish zarur, bu esa rangtasvir san'atini kasbiy jihatdan professional tarzda o'rganishga yo'l topa olishga, naturani **badiiy obrazga** aylantirishga imkon yaratadi.



## ***21. Ko'p qatlamli rangtasvirda rang va yorug'lik berishning o'ziga xos xususiyatlari (lessirovka)***

Akvarel bo'yoqlar bilan lessirovka texnikasida chizishning usullari mehnat-talab hisoblanadi, u avval bo'yoqlarning barcha engil rang tuslaridan foydalanishdan iborat bo'lib, qoramtir joylarning kuchaytirib borilishini, ya'ni ko'p qatlamli tarzda chizish bilan amalga oshiriladi. Lessirovkalarning ochiq, tiniqligi tufayli akvarelistlar o'ta murakkab bo'lgan natura masalalarini ham hal qila olishlari mumkin.

Ma'lumki, tabiatda ranglar ton bilan uzluksiz tarzda bog'liq, shuning uchun akvarel rangtasviri ko'nikmalariga ega bo'lishda akvarelchining eng asosiy vazifasi ko'rishga oid zehn va idrokning rolini anglab etishi o'ta muhimdir. Amaliyotda tonlar kuchini aniqlab olish naturani planlarga ajratib olishga muvofiq keladi va bu turli xil jismlardagi yorug'lik va soyalar kuchining o'zgarishi bilan aniqlanadi. Tonning kuchini aniq tarzda aniqlab olish uchun ishning kelgusi umumiy tonal-rang tarkibini ketma-ket qatlamlarga joylashtirib chiqish bo'yicha katta sintezlashtirish ishini o'tkazish, kartina tekisligi ramkalarida eng oqish va eng qoramtir tonal-rang dog'lari o'rtasidagi munosabatni topish kerak bo'ladi.

Predmetning rangi o'ta o'zgaruvchan. Qat'iy aytish mumkinki, u doimo turlicha bo'lgan: bu erda yorug'lik o'zgargan bo'lsa, u erda rang perspektivasi rol o'ynaydi. Bu tomonda – osmon refleksi, bu erda – kontrast. Masalan, g'ira-shirada barcha ranglar sovuq tuslar tomonga o'zgaradi. Leonardo da Vinchi so'zlari bilan aytganda: “har bir jismning yuza sirti uning qarshisida turgan predmetning rangiga aloqador bo'ladi”, ya'ni g'ira-shira osmon ostida turgan barcha predmetlar uning sovuq yorug' tusini aks ettiradi, masalan, qizil predmetdan yashilga tushgan soya endi yashil bo'lmaydi. Shu zaylda savol tug'iladi: Qachon va qaysi sharoitda biz rangni lokal yoki predmetli deb ataymiz?. Tajriba-sinovlar ko'rsatmoqdaki, bunday o'zgarmas rang sifatida tarqoq (beqaror) nurli kun yorug'ligi ostida turgan predmetning rangi misol bo'la oladi. Aynan mana shuning uchun ham rassomchilik ustaxonalari shimol tomondan derazaga ega bo'ladi, bu esa kun mobaynida nisbatan bir tekis yorug'likni saqlab turishga imkon beradi.

Rangtasvirda **reflekslar** yoki **refleks**, bu – rang nurlarining bir jismdan boshqasiga o'tishidir, bunda refleksning yorqinligi aks ettiruvchi jismning xususiyatiga, uning rangi va yaqinligiga bog'liq bo'ladi. Bunda refleks doimo o'sha aks ettirilayotgan jismning rangiga burkaladi (bo'yaladi). Refleksiya kartinaning barcha qismlarini muvofiqlashtiradi (moslashtiradi): bu qism rangtasvirda ko'p sonli o'zgarishlarga duchor bo'ladi va doimiy qonun-qoidalarga bo'ysunishi mumkin emas. Biroq arxitektura grafikasida reflekslarga haddan tashqari berilib ketish lozim emas, binobarin, ba'zida ular shakllarning buzib ko'rsatilishiga ham ko'maklashadi (yoki olib keladi), biroq reflekslar tabiatini tushunib olish va ularni ish borasidagi amaliyotda mohirona, ustalik bilan qo'llay olish haqiqatan ham zarurdir. Hulosa qilib aytganda, rassomning ko'zlari kartina tekisligidagi rang yoki rang aralashmasini emas, balki qo'shni dog'larning rang ta'sirlarini ko'radi.

Shuningdek, akvarelchi yorug'lik va soyalardagi o'zgarishlar qandaydir aynan bir yorug'likda – bir jismdan boshqasiga tushayotgan yoki undan chiqarib tashlanayotgan (qaytayotgan) soyalar sifatida qanday qilib jismning turi va figurasiga bog'liq bo'layotganligini (yoki ekanligini) kuzatishi zarur, soyalar shu o'zi chiqarayotgan jismdan qanchalik uzoqlashishiga qarab shunchalik kuchsizlashib, xiralashib boradi, chunki havo tomonidan akslantirilayotgan ko'p miqdordagi yorug'lik asta-sekinlik bilan sochilib boradi. Lessirovkadagi texnik usulning aynan mana shu ko'pqatlamliligi, tonni oqishlikdan qoramtirlikka tomon asta-sekinlik bilan g'ildiratib olib borish, katta rang dog'laridan asta-sekinlik bilan detallariga o'tish... bularning barchasi yuqorida ta'kidlab o'tilgan vazifalarni bajarish ishida idrok qilishning yaxlitligini saqlab qolishga imkon beradi.

Ta'kidlash muhimki, naturaning to'liq haqiqiy realligini chiqarib bera olish: ranglarga taqlid qilish (aynan o'xshatish), ranglar va yorug'lik kontrastlarini aks ettirish deyarli mumkin emas va bu san'atning vazifasi ham emas. Muhimi badiiy tanlovdur va bu shundan iboratki – asosiy predmet uchun uning atrofidagilarning barchasidan voz kechish (yoki ularni fido qilish) mumkin.

## **21.1. Lessirovkalarning rang va bo'yoqlar aralashmasi effekti bilan aloqalari**

Har bir bo'yoq tanloviga o'zining amaliy rang doirasi – rangtasvirchi palitrasi javob beradi. Bo'yoqlarning optik va mexanik aralashmasi effektini bilish – o'z palitrasini bilish demakdir. Individual palitra, agar u chegaralangan bo'lsa (bunday palitrani faqatgina amaliy tarzdagina bilish mumkin), doimo qandaydir betakrorlikni va shu bilan birga, barcha aralashmalarning qandaydir xususiyatini o'zida mujassam etadi.

Politranning rang imkoniyatlarini boyitishning muhim, asosiy va jiddiy (yoki haqiqiy) manbai sifatida bo'yoq berish uslubi xizmat qiladi. Bo'yoq berish (yoki bo'yash) uslubi undagi taassurotlar bilan chambarchas bog'liqdir. Yumshoq, bo'sh, zich yoki tiniq bo'yoq berish rangga nisbatan his-tuyg'ularni o'zgartiradi, hattoki rangning o'zi o'zgarmagan taqdirda ham. Bir bo'yoqni boshqasining ustidan bo'yashning rang effektlari o'z navbatida kolorit imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ranglarning issiq-sovuqligidagi farqlar rang toniga nisbatan farqlay olish sezgirligining (yoki ta'sirchanligining) boshlang'ich pog'onasi sifatida maydonga chiqadi. Ranglarni sovuq va issiqqa ajratish nisbiydir. Estetik jihatdan rivojlangan ko'z ikki tusning nisbiy issiqligini doimo aniqlay olishi mumkin, misol uchun: limonning rangi apelsin rangiga nisbatan doimo sovuqqa o'xshab ko'rinadi, falakning ko'm-ko'k rangi esa, qordagi ko'k soyalarga nisbatan issiq ko'rinadi. An'analar mazkur qarama-qarshilikni soya rangining qarama-qarshiligi bilan va ranglarning spektral doiradagi joyiga nisbatan joylashuvi bilan bog'laydi. Rangtasvirning intererdagi va havodagi umumiy qonuniyatlari ham mavjud, agar ranglar sovuq bo'lsa, soyalar issiq va aksincha.

Ranglarni issiq va sovuqqa ajratish bilan emosional tajribaning shak-shubhasiz aloqasi bor. Sovuq gamma melonxolik xotirjamlik taassurotini, ba'zida hattoki fojiaviylik taassurotini ham kuchaytiradi. Issiq esa – keskin, qizg'in hayot, faollik, quvonch va dramatik taassurotni kuchaytiradi.

Tabiatning turli-tuman rang-bo'yoqlarini ko'rish va ular nimasi bilan va qanday farqlanishini aniq ajrata (yoki aniqlay) olmaslik mumkin. Farqlash sezgirligi o'ta o'zgaruvchan, individual, biroq mashqqa

bo'ysunadi. Rangga nisbatan farqlash sezgirligi ko'rishga oid ongiy buyruq berish omili bilan va "ko'z postanovkasi" maktabi bilan boshqariladi. Xromatik ranglar orasida yashil ranglar – ranglar toni bo'yicha yomon farqlanishini bilib qo'ygan foydadan holi emas. Bu degani, biz, aytaylik, ko'k yoki sariq rang tuslarga nisbatan yashil rangni anchagina kam farqlay olamiz ekan. YAshilga nisbatan sust yoki past farqlash sezgirligi nafaqat talabalarning plenerda bajargan ishlaridagi bir xilda "bo'yalgan" daraxtlar va o't-o'lanlarda ifodalangan, balki (turli xil yorug'lik holatlarida) standart tarzidagi yashil bo'yoqni tanlashda ham o'z ifodasini topadi. Bu erda barchaga ma'lum bo'lgan iborani keltirib o'tamiz: yashilni yashil bo'yoqlar orqali chiqarish kerak emas. O'rganishning birinchi bosqichida ranglar to'plamidagi yashildan voz kechish kerak – bu boshqa ranglar aralashmasidan kerakli yashil rang tuslarini qidirish va topa olishga yordam beradi.

Rangtasvir asarining ranglar uyg'unligi gamma prinsipi bo'yicha yaratiladi. Tonal va rang gammasi predmetlar summasini muhitga aylantiradi, u erda esa, oddiy, ko'rksiz bo'lgan bo'yoqlar o'zining rivoji va birlashuvlari bilan bebaho va ifodali- "jonli" rang tuzilishini paydo qiladi. Tajribaga ega bo'lgach (yoki tajriba hosil qilingach), rangtasvirchining individual gammasi, odatda, tor bo'lib qoladi. Ammo ranglar boyligi o'sadi. Mazkur variatsiyalarning (yuzaga keluvchi yangi ko'rinishlarning) bog'liqligi (yoki aloqadorligi) chuqurlashib boradi. Ranglar rivojlanishida ko'pqatlamlilik va bo'yoq pastalarining tuzilmasi katta rol o'ynay boshlaydi.

## **21.2. Lokal rang dog'lari uyg'unlashuviga asoslangan, lessirovkalarning kolorit bilan aloqalari**

Bo'yoq qog'oz varag'ida haqiqiy "rang" ko'rinishidi olishi (yoki rangga aylanishi) uchun boshqa bo'yoqlar bilan ham qo'shinichilikda bo'lishi ham, mazkur dog'ning o'lchami, uning holati, bo'yalgan qatlamning xarakteri va obrazli birligi, bir xilligi va yaxlitligi ham muhim hisoblanadi. Palitrage berilgan bo'yoqlar – "xom bo'yoqlar". "Xom bo'yoqlar" bilan ishlash – rangtasvirchining eng birinchi vazifasidir.



Bo'yoq qachonki kartinaning ranglar tizimiga (kolorit) organik jihatdan kiritilsa va umumiy koloritdan chiqib ketmasagina, rang hisoblanadi.

Ikkinchi shart: Bo'yoq o'ziga qo'shni turgan rangga nisbatan etarlicha jilvali (jilodor, jarangdor) bo'lsagina rang bo'la oladi. Rang faqatgina kerakli joyda, o'z qatorida (yoki safda, tizimda) turgandagina jarangdor bo'ladi. Ajralib turuvchi farqning kamligi ham (yoki noo'rin kamligi) ranglarning "loyga" aylanib qolish iga olib keladi.

Uchinchi shart: ranglar tizimiga (safiga, qatoriga) kiritilgan bo'yoq doimo o'zida ochiq-oydin yoki yashirin tasviriy va ifodali fnuksiyalarga ega bo'ladi (yokishuni olib yuradi).

Ranglar tizimi, bu – rangtasvirning tili hisoblanadi. Rang nimani qanday tasvirlashga qarab, ko'pgina yangicha sifatlarga ega bo'ladi. Har holda rang rasmning faqatgina illyuminasiyasigina bo'lib qolishi kerak emas. Shakl va ranglarning birligi (bir xilligi, yaxlitligi) rasmning chiziqli chegaralari asosida emas, balki aynan rang asosidagina amalga oshishi mumkin.

Yaqqol ko'zga tashlanuvchi rang dog'lari ko'pincha kuchli «ko'r qiluvchi» ta'sir ko'rsatadi. Bundan kartinaga uzoq vaqt qaraladigan bo'lsa, ranglar sifati yo'qola boshlaydi. Rang tuslari umumiy zararli intensiv bo'yoqlar tomonidan eyilib (yutilib) boradi – bu kuchli rangning ko'r qiluvchi ta'sirining analogidir. Ranglar variyasiylarining oddiygina (hatto bo'g'iq, xira) gammada nozik rivojlanishi ham ishning uzoq muddat davomida qarab chiqilishini jadallashtiradi. Jarangdor, kam to'yingan ranglar o'z-o'zidan asta-sekinlik bilan nur socha boshlaydi, bu esa tamoshobinga "ochiq ranglar uyg'unligiga" nisbatan yana ham mukammalroq estetik idrok bag'ishlaydi.

Rangtasvirdagi kul rang tuslar o'ziga xos xarakterga ega. Ranglar dekorativ (manzarali) sifatlardan mahrum bo'lganidek – kul rang va unga yaqinlari, – bu erda koloritni boyitishning ochiq-oydin, o'z-o'zidan ko'rinib turgan manbai bo'lib xizmat qiladi. Ularning funksiyalari ikkitalik. Birinchidan, ular boshqa lokal ranglarning rangdorligini kuchaytiradi, shu bilan birga, koloritdan tushib qolishiga yo'l qo'ymadi. Ikkinchidan, ularning o'zlari qo'shnilikka bog'liq holda kontrast

bo'yicha bo'yalib oladi. Binafsha dog'lar bilan yonma-yon – sarg'ish, qizil bilan yonma-yon yashilsimon ton bo'yalib oladi. Lessirovkalarning kul rang deb nomlanuvchi ranglarni tanlab olishdagi xususiyati qiziqarli. Spektral ranglar doirasidagi qarama-qarshi rang bo'yoqlarini mexanik usul bilan (palitrada) yoki optik yo'l bilan ko'pqatlamli tarzda aralashtirish orqali kul rang tuslarning xilma-xilligiga erishishiladi. Buni quyidagi aralashmalarda ko'rish mumkin: to'q sariqning zangori bilan, yashilning qizil bilan yoki binafshaning sariq bilan aralashmasiga turli darajada suv qo'shish orqali kul rang tusdan cheksiz nyuanslashgan (issiq va sovuq) intervallarni hosil qilish mumkin.

### **21.3. Yorug'- soya vositasida lokal rang massasining birikishidagi lessirovkalar**

Odatda, rang bo'yoqlar tabiatdagi ranglarga nisbatan o'zlarini boshqacharoq tutadi. Buyumning haqiqiy rangi bilan uning tasvirining rangi o'rtasida o'ziga xos qarama-qarshilik paydo bo'ladi. Talaba bunday bo'yoqlarni topishi zarur va ulardan ko'pqatlamli bo'yoq berish (surish) yo'li bilan shunday ranglar munosabatini yaratish kerakki, bo'yoqlarning o'zaro ta'sirlari real muhitdagi buyumning yagona rangini ko'rsatib tursin. Masala: shunday chiziqli vositalarni, real parallel bo'lgan chiziqlar o'zaro qiyaligining (nishabligining) shunday o'zgarishlarini, rasmdagi shunday o'zgarishlarni topish kerakki, bunda qog'ozda real shaklning real fazodagi taassuroti yaratilsin (chiziqli perspektiva).

Talabaning vazifasi buyumlarning kuchli yorug'-soyaga burkangan holdagi rang tuzilishlarining o'zgarishlarini tahlil qilishdan iborat bo'ladi. Yorug' va soyaning tabiiy bog'liqlik qonunlarini o'zlashtirgan, shuningdek havo (fazoviy) perspektivalari qonunlarini inobatga olgan holda ranglarning tasviriy funksiyasini kengaytirishdir.


## **22. *Natyurmort***

Natyurmort bilan ishlashning tayyorlov bosqichida talaba o'quv vazifasining eng yaxshi kompozision echimini tanlab olish uchun kichikroq o'lchamda naturadan andoza (eskiz) qilib olishi zarur, ya'ni gorizont chiziqlarini (baland, past) buyumlar guruhining kartina

tekisligidagi umumiy joylashuvini, kelgusi ishning ranglar tuzilishini tanlab olishi zarur. Bundan keyin esa, tanlab olingan formatda, butun qog'oz bo'ylab natyurmortdan eng yorqin (oqish) ton bilan rangli asos qilib olish tavsiya etiladi. Qog'ozni albatta, ho'llab (namlab) olish lozim, so'ngra vazifadan kelib chiqqan holda, uning ustki-yuza sirtining namligini sozlab (me'yorlab) olinadi. Masalan, qog'oz ko'proq vaqt nam holatini ushlab (saqlab) turishi uchun uni nam flanelga (ipdan yoki jundan to'qilgan engil mato) yotqiziladi va u maxsus oynasimon plastmassaga (orgstekloga) joylashtiriladi. Shundan keyin, natyurmortning barcha predmetlarini mo'yqalam bilan eng oqish tonda joylashtirib chiqish lozim. Agar talaba mo'yqalamni ham, qalamni ham birday ishlatishni istasa, u holda mo'yqalam bilan neytral rangda butun natyurmortning rasmini ham, har bir buyumning engilgina siluetini ham alohida-alohida aniqlashtirib, chizib oladi. Zarurat bo'lganda chiziqlar va rang dog'lari yuvib tashlanadi va to'g'rilab chiqiladi. Mo'yqalam – qalam va o'chirg'ichdan farqli ravishda – qog'ozning yuqori elimlangan qavatini buzib qo'ymaydi. Dastlabki (taxminiy) surat, ko'pgina etakchi akvarelchilarning fikrlariga ko'ra, hadiksirab (jur'atsiz, ehtiyotkorlik bilan) bo'yashga majbur qiladi va ishda qiyinchilik tug'diradi (yoki og'irlashtiradi).

Kontur berish bilan bir vaqtda yirik rangli dog'larni ham to'ldirib chiqish lozim, oldinroqdan aniqlik kiritgan holda, sovuq yoki issiq koloritda butun qog'oz ushlab boriladi. Natyurmortdagi predmetlarning lokal rangini jamlab olgan holda, ularning yorug'-soya va ranglar muhitidagi o'zaro aloqalarini (bog'liqliklarini) kuzatish zarur. Ishning barcha bosqichlarida, o'ylangan g'oya to yuzaga chiqarilgungacha doim umumiy kompozisiya oydinlashib boradi. Agar ish, dastlabki (birlamchi) bosqichda gorizont tekislikda yotgan bo'lsa, yakunda u vertikal holatga keltiriladi. Yakunida qog'ozga ko'proq masofadan turib qarash muhim, bunda uning tonal munosabatlari oydinlashtiriladi, ko'proq fikr jamlangan holda alohida joylarning ochiq-tiniq (oqish yoki yaltiroq) bo'yoqlarda va endi bu safar quruq (jarangsiz) lessirovka hisobiga formaning detallari aniqlashtiriladi, bu esa koloristik yaxlitlikka olib keladi.

## 22.1. Natyurmort ustida ko'pqatlamli rangtasvir metodi bilan ishlash bosqichlari



1 – bosqich



2 – bosqich



3– bosqich



4 – bosqich

## 23. Peyzaj

Uzoq muddatli (yoki uzoq vaqt oluvchi) peyzaj ustida lessirovka texnikasida ishlaganda eskiz ustida ham ishlash zarur bo'ladi, unda osmonning erga nisbatan munosabatini va yirik ob'ektlarning joylashuvini, peyzajning umumiy toni va ranglar tuzilishini aniqlab olish zarur.

Akvarel bilan ishlashni tartib bilan olib borish uchun lessirovka texnikasining dastlabki, boshlang'ich bosqichda yorug'lik manbaining xarakteristikasidan kelib chiqqan holda, rang asosini yaratib olish tavsiya etiladi. Ba'zi bir maktablar bunday asosni "podmalyovka"-dastlabki bo'yoq berish, ba'zi birlari esa "grunt" (MARXI) – (dastlabki xomaki bo'yoq qatlami, zamin) deb nomlashadi. Surat tayyorlab olingan



peyzajning engil oxrali funtiga mo'yoqalam (cho'tkacha) bilan chiziladi. Planlarning soniga qarab (uzoqdagi, o'rtadagi, yaqindagi) bir necha funtbo'yoq qatlami bo'lishi mumkin, biroq uchtadan ko'p emas. Zamin engil tarzda oldingi planda zichlashtiriladi. Bu usul havo (fazoviy) va yorug'lik perspektivasini chiqarib berishga imkon yaratadi.

Gruntning rangi eng yorqin loyqalanmagan bo'yoqlardan tanlab (yig'ib) olinadi:

Grunt tahlash faqatgina "quruq" tarzda amalga oshiriladi.

Grunt birinchi bosqichdayoq ishdagi umumiy tonli va yorug'lik tizimini beradi. Masalan, osmonni chiqarib berayotganda (chizayotganda) ko'pincha osmonning ko'm-ko'k rang tusi (lazur) ostida oxra bilan issiq tusli tahlam (to'shama, asos) beriladi va yorqinlik effektini saqlab qolish maqsadida uning ustidan keyingi bo'yoq qatlami bilan yopib qo'yilmaydi.

Yarimton bilan ishlash bosqichida yorug'lik aynan qaysi joyda sirg'anishni boshlayotganligini e'tibor bilan kuzatish lozim, chunki aynan o'sha joyda yarimton paydo bo'ladi. Quyosh yorug'ligida yoritilayotgan ob'ektda uchta yorug'lik manbai mavjud bo'ladi: quyosh, osmondan aks etayotgan yorug'lik va reflekslar. Kunduzgi quyoshsiz kundagi tarqoq yorug'likli osmonda – reflekslar so'ngan bo'ladi, yarimton arang bilinadi, bunday holatda biz predmetlarning rangini lokal deb nomlaymiz.

To'g'ri yoritilgan tekislik, osmon va kuchli reflekslardan tashqari barchasiga yarimton bilan ishlov berib chiqiladi. Unda buyumlarga shakl berishga intilish (kirishib ketish) kerak emas. Yarimton bilan ko'proq yarqiroq yoritilgan qismlar va yorug'-soyaning chegaralarini oydinlashtirish (aniqlashtirish) lozim. Bu usul butun syujetga yaxlitlik baxsh etadi.

Binobarin, yarimton – bu yorug'lik emas, lein soya ham emas, u yorug'likka nisbatan sovuqroq, lekin soyaga nisbatan issiqroq. Sovuq yorug'lik uchun – aksincha.

Yarimton – chaplanadigan emas, u shaklni aniqlab (yoki ko'rsatib) bermaydi. Yarimtonning kuchi oldingi plandan uzoqlashuviga qarab kamaytirib boriladi. Bu – agar grunt bir necha qavat bo'lsa, o'z-o'zidan sodir bo'ladi.

Naturaning ishi chaplanma narsaga aylanib qolmasligi uchun, u yoki bu dog'ni erkin uslubda (yoki engil harakat bilan), engilgina komponovka qilib va zarurat bo'lganda o'lchami va joylashgan joyini o'zgartirgan holda, peyzajning ranglar echimi boshqariladi.

Bir necha usullarda, rang-barang bo'yoqlar orasining ba'zi bir joylarida avvalgi qatlamlarning rangini qoldirgan holda, predmetli (lokal) rang hosil qilib olinadi, binobarin, bo'yoq berish uslubi undan hosil bo'luvchi taassurot bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, bo'sh, noaniq, mujmal yoki aniq, ravshan, yorqin bo'yoq berish aynan o'sha bir rang to'g'risidagi his-tuyg'ularni o'zgartiradi, uni zich, qo'pol yoki haddan tashqari yoritib yuborishi mumkin. Ishning ketma-ketligi doimo qoraga oqish rang berish bilan amalga oshiriladi, asosiysi esa katta massadan kichigiga va nihoyat detallariga o'tib borish bilan amalga oshiriladi.

Yorug'lik issiq bo'lsa – soyalar sovuq. Yorug'lik sovuq bo'lsa – soyalar issiq. Bunday qonuniyatni bilish boshlovchi akvarelchilar uchun rangtasvirni o'rganish bosqichida ko'zlarni rangdagi farqlarni aniqlash va ajrata olishga o'rgatishga yordam beradi.

Refleks bu – akslangan teskari (qaytuvchi) yorug'likdir. Issiq rangdan refleks issiq, sovuqdan – refleks ham sovuq bo'ladi. Reflekslar doimo predmetning soyali zonasida joylashgan bo'ladi, osmon refleksi bundan mustasno, chunki u predmetni tepadan tarqoq yorug'lik bilan yoritadi.

Kuchli reflekslarni yarimton bosqichidayoq hisobga olish lozim.

Soyalar berishda reflekslarning yorug'lik tarkibini (tashkil etuvchisini) aniqlab olish lozim.

Refleksning rangi yuza-sirtdan aks etuvchi rang bilan aniqlanadi.

Yana bir marta aniqlik kiritib o'tamizki, tafsilotiga ko'ra, rang – bu predmetning asosiy rangi bo'lib, unda rang va yorug'lik muhitining yorug'ligi va reflekslari hisobga olinmaydi. Bog'liq bo'lgan (yoki shartlangan) ranglar, ya'ni yorug'lik muhiti ta'sirida paydo bo'luvchi ranglarning biri boshqasisiz mavjud bo'lmaydi. Realistik rangtasvirda lokal rang bir butun (yoki yaxlit) tekis dog' sifatida amaliy jihatdan, doimo

bo'lavermaydi. U doimo kamroq yoki ko'proq darajada shartlangan (yoki bog'liqlikda) bo'ladi.

Peyzaj ishining oxirgi yakuniy bosqichida peyzajni xarakterlab beruvchi xususiyatlariga ishlov berish va bir butunlik (yaxlitlik) jihatidan kartinaning rang tuzilishini umumlashtirish zarur.

Peyzajli rangtasvirda butun ish mobaynida tanlangan motivga nisbatan dastlabki (boshlang'ich, avvalgi yoki birlamchi) his-tuyg'uni (yoki sezgini) saqlab qolish katta rol o'ynaydi, bunda qo'yilgan masalaning murakkabligi ushbu peyzajning bir necha seanslar davomida chizilishiga (yaratilishiga) va tabaitda yana shunday holatning takrorlanishini kutishga muallifni majbur qiladi. Ayniqsa, arxitektura manzaralarini ishlash bo'lajak arxitektor va dizaynerlarga foydali, chunki bu mashqlar orqali arxitektura manzaralarining rang-barangligi va yorug'ligini ko'rsatish mumkin.



## ***24. Plener rangtasviri***

Plener – yopiq fazoli ustaxona ishidan farqli ravishda o'z murakkabliklariga ega. Unda yorug'lik tez o'zgaradi. SHuning uchun plenerda sizni hayratda qoldirgan obrazni, daqiqa va laxzalarni xotirada saqlab qolishni va uni butun ish mobaynida ushlab turishni o'rganish va; tez ishlashga mashq qilib borish zarur. Bundan tashkari peyzaj uchun aynan bir vaqt, ob-havoning aynan o'sha holatida ishni davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Biroq tabiat o'z injiqligi tufayli aynan o'sha bir holatni kamdan-kam takrorlashi mumkin xolos, aynan bir holatni ko'proq vaqt mobaynida ishlash imkoniyatini yana ham kamroq taqdim etadi. Mana nima uchun sizni hayratda qoldirgan u yoki bu bahoning dastlabki (birinchi) taassurotini xotirada saqlashni o'rganish muhim.

Rangtasvir amaliyotining ochiq havoda bo'lishi keyinchalik xonada ham bemalol, tiniq, ravshan va jonliroq, politra bilan boyitilgan tarzda chiza olishga imkon beradi. Yozgi rangtasvir ko'nikmalaridan so'ng qishki og'ir sharoitlarda ham ishlay olish umuman o'zgacha o'tadi. Bu erda vaqtni tejay olish, avvaldan yaxshi tayyorlab qo'yilgan materiallarni chiza olish, asosiy munosabatlarni oson (engil) va tezgina ola bilish, hattoki qishda ham ochiq havodagi odam etyudini yarata olishga imkon yaratib beradi.


### **Plener namunalari:**











**Rangtasvir kompozitsiyalari.** Rangtasvir buyumni, uning rangini, materialligini (moddiyligini), tonal farqlarini, havo muhitini idrok etish his-tuyg'usini, sezgisini yaratadi. Shu bilan birgalikda, rangtasvir tamoshabinda ma'lum bir hotirjamlik yoki havotir va tahlika, hursandchilik yoki tushkunlik his-tuyg'ularni hosil qilishga ham qodir. Shu narsada u nimasi bilandir musiqaga o'xshashligi bor.

Kompozitsiya esa – rassom nimanidir ifodalab berish uchun qo'liga mo'yqalam yoki qalam olishga kirishishga undovchi (yoki olib keluvchi) nafaqat fikr yoki bir asar g'oyasi, balki rassomning qalbi va ruhiga, vaqt talabiga ma'lum bir darajada mos keluvchi, uyg'unlikdagi ifodaning poastik shakli hamdir. Shuning uchun muallif kompozitsiyalar, ranglar va tonlar ustida ishlar ekan, uni turli xil usullar bilan rivojlantirib u shu narsaga intiladiki, tamoshabin ham kartinaning mazmuniy g'oyasini imkon qadar idrok etadi. Bu erda rassom uchun faoliyat doirasi chegarasiz. U qanchalik obrazli va chuqurroq fikrlay olsa, uning rassomlik mahorati shunchalik boy va ishonchliroq, asar ham shunchalik murakkabroq va ahamiyatliroq bo'ladi. Namuna sifatida, arxitektura fanlari doktori, professor D.A.Nozilov tomonidan ishlangan tog' arxitekturasi manzaralarini suv bo'yoqdagi ishlarini ko'rishimiz mumkin. Bu tog'li arxitektura manzaralarini muallif o'zining ilmiy izlanishlari yuzasidan va tarixiy faktlar yig'ish uchun chizgan.





Nozilov D.A.

## **25. Portret**

Odam portretini ishlashda, albatta, ishchi eskiz ustida jiddiy tayyorlov olib borish zarur, unda bo'lg'usi portret kompozitsiyasi diqqat markazida bo'ladi.

O'quv vazifasiga ko'ra, portret kartina tekisligida qo'llar tasviri bilan birgalikda ko'krak gavdali yoki tik bo'yli komponovka qilinishi mumkin. Ishchi eskizda ham o'quv postanovkasining koloristik xususiyatlariga aniqliklar kiritiladi. Bir nechta eskizlarni turli xil nuqtai nazardan va turli xil rang diapazonlarida bajarish foydalidir.

Katta tayyorgarlik ishidan so'ng eskizlarda kompozision va koloristik masalalar o'z echimini topgach, portret uchun suratni engilgina qalam chiziqlari bilan yoki ma'lum bir tajribalarga tayangan holda, to'g'ridan-to'g'ri mo'yqalamda neytral tonlar bilan bajarish mumkin yoki an'anaviy tarzda nafis texnika sifatida hisoblanib kelinayotganidek, suratni dastlabki bajarilgan kartondan ko'chirib o'tkaziladi, bu esa qog'ozning yuqori qatlami buzilmasligining oldini oladi, chunki bunday holatlar akvarelga doim ham zeb beravermaydi.

Bulardan so'ng natyurmortda ham, peyzajda ham katta shakllarda xomaki bo'yoq berish yoki asos tayyorlash ishlari bajariladi va portretning katta rang munosabatlari «terib olinadi» – yuz, sochlar massasi, ust kiyim (kostyum) va h.k. Boshni modellashtirish, shakl bo'yicha bajarib boriladi, bunda peshona, lunj (yuzning yon qismi) qismlarning katta massasidan boshlab, burun, iyak, quloqlar va nihoyat ko'zlarni modellashtirish omalga oshiriladi. Juft shakllar – ko'zlar, yonoq (yuz suyaklari) va h.k. lar ustida baravariga, ya'ni ushbu juftlarni ko'rish maydonimizda birgalikda ushlab borgan holda ishlash lozim, bunday usul rakurslarni (rakurs – tasviriy san'atda narsaning uzoqdagi qismlarini qisqartirib, kichraytirib tasvirlash) qurib, tuzib yoki tayyorlab olishda xatoliklarga yo'l qo'ymaslikka va boshning o'rta chizig'iga nisbatan biror tomonga og'ib ketmaslikka imkon yaratadi.



Qo'llarni modellashtirish "boshmaldoqli qo'lqop" shaklidagi katta formadan boshlab olib boriladi va faqatgina qo'lning umumiy silueti plastigini topgandan so'nggina imo-ishoralar ustida va xususan barmoqlar guruhi ustida va har biri bilan alohida ishlashni davom ettirish mumkin bo'ladi. Yakuniy bosqichda o'ta mas'uliyatli – ishning umumlashtiruvchi bosqichi boshlanadi, endi barcha xususiy alohida qismlarni yana qaytadan bir butunlikka (yaxlitlikka) bo'ysundirish, ya'ni umumlashtirish zarur. Natijada, eng engil ko'p qatlamli chizgilar, bo'yoqlarning o'zro ta'sirlari tekislikda yagona akkordda jaranglaydi.

Portret boshqa janrlarga nisbatan tasviriy san'atda nafaqat ijro texnikasi bo'yicha ko'nikmalarni, balki modelga nisbatan hissiyotga to'la munosabatni ham talab etadi, bu erda ishning to'g'ri olib borilishidan ko'ra, naturaning jonli his etilishidan kelib chiquvchi emosional ifodalilikka erishish anchagina qiyin. Naturali chizgilardan, reportajlardan obrazli umumlashtirishlarga o'tish muhim. Faktlar haqiqatidan naturaning go'zalligini va uning xarakterini yana ham chuqurroq tushunishga, etyuddan badiiy tugallanganlikka, texnik murakkablik va mahoratga o'tiladi.

**Akvarelda portret yaratish.** Portretni akvarelda chizishning turli xil usullari mavjud. Eng ko'prog'i – bu oq bo'yoq aralashmasiz ishlash bo'lib, unda tonning maksimal darajada tozaligiga, bo'yoqlarning quyuk va to'qligiga (intensivligiga) erishiladi. Portret yaratish ma'lum bir bosqichlarni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich – qalamda surat chizish, ikkinchisi – akvarelda asos berish. Asosiy rang munosabatlarini aniqlashtirgach, uchinchi bosqichga o'tiladi – bu shakllarni modellashtirish bo'lib, unda ochiq-tiniq akvareldan qalin akvarelga o'tishlardagi turli-tumanlikka erishiladi



**Guashda portret yaratishda** postanovkaning umumiy tonini, ya'ni oqishlik darajasi, yorug'lik miqdorini tushinish zarur. Ishni birinchi to'g'ri kelgan (uchragan) oqishlikda bajarmaslik lozim. Xolostning tonini postanovkaning o'zi belgilab beradi (tanlaydi). Agar figura yorug'lik manbaiga yaqin joylashgan bo'lsa, yorqin bo'lsa, tonallik bir boshqa, yorug'likdan uzoqda bo'lsa tonallik yana bir boshqa bo'ladi. Umumiy ton tushunchasini inkor qilgan holda realistik, yorug'-havoli, fazoviy rangtasvirni o'rganish mumkin emas. Muhit kabi tushunchani hisobga

olish zarur. Tasvir chuqurroq tarzda yaratilishi, muhitga g'arq bo'lgandek, havoga chulg'angan bo'lishi zarur.



### ***26. “Elka-bilan bosh”***

**Grizaylda bosh etyudi.** Vazifalar: boshning shakli va xarakterini o'rganish, tonda ishlash ( soya-yorug' berib ishlash). Mazkur vazifaning maqsadi shunga olib boradiki, boshning shaklini yorug'-soya munosabatlari yordamida berishga o'rganish va, natijada, yana ham murakkabroq vazifalarga o'tish – bosh shaklini rangda tasvirlashga,



berishga o'tishdan iboratdir. Mazkur mashq suratdan (rasmdan) rangtasvirga o'tish hisoblanadi, u o'zida unisining ham, bunisining ham elementlarini mujassam etadi.



Mo'yoqalam bilan ishlaganda shaklni alohida tasvirlash emas, balki muhitdan, fondan qat'i nazar, albatta o'sha predmetning o'zi joylashgan atrof-muhit bilan birgalikda tasvirlashga to'g'ri keladi. Boshni biron-bir ton bilan yaratish uchun, odatda, ikkita bo'yoq olinadi: tabiiy umbra (jigar rang) va oq bo'yoq. Kuydirilgan umbra va oq bo'yoqni yoki jigar rang va oq bo'yoq marsini olish mumkin. Yorqin (qizil, yashil va b.) bo'yoqlarni olish kerak emas. Agar boshning ochroq joylari (masalan, peshona) fondan ochroq bo'lsa, qoramtir joylari (masalan, ichkariga tomon kirgan lunjlar) fondan qoraroq bo'lsa, shaklni his qilish, sezish va uni chiqarib berish ham oson bo'ladi.

Ishning metodik ketma-ketligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

**1). Boshni varaqqa kompozision joylashtirish.** Kompozisiya ko'rish nuqtasini – joyini aniqlab olishdan boshlanadi: rassom o'z modeli



o'lchami va formatini tanlab oladi. Boshni natural kattalikdan (o'z o'lchamidan) katta qilish kerak emas, boshning barcha proporsiyalarining kattalashtirilishi, albatta, (muqarrar) katta buzilishlarga olib keladi.

**2). Rangtasvirda bosh surati.** Boshni dastlab xolstda chizib olish kerak. Bunda asosiy e'tibor boshning tuzilishiga qaratilishi lozim, uning shakliy (qurilmaviy, konstruksion) jihatlari va detallar proporsiyalari aniqroq belgilab olinishi zarur. Rangtasvirdagi suratda bosh shakllarini bunday tarzda detallashtirish va yorug'-soya xarakteristikalarini farqlarga ajratib tanlash shart emas, muhimi rangtasvirdagi surat boshning umumiy konstruksiyalarini va uning alohida shakllarini oydinlashtirib ko'rsatib bera oluvchi asos bo'lsin.

**3) Rang va ton bilan ishlash.** a) Rangtasvirda eng ko'p rangli va tonli munosabatlarni, rangi va toni bo'yicha ravshan, yorqin dog'larni namoyon etish (aniqlashtirish). Boshning soyali qismlarini yoritilgan qismiga nisbatan aniqlab olamiz. Avvalo, naturaga yaxshilab qarab olish lozim, boshning yoritilgan qismi soyali qismi bilan solishtirib qiyoslanadi, ular fon bilan taqqoslanadi va eng qoramtir va eng oqish tUSDagi narsa nima ekanligi aniqlanadi. Ushbu yirik (yoki katta) munosabatlarni fikran tahlil qilib, o'z palitrangizda boshning yorug' (yoki yoritilgan) qismlari (masalan, peshona) va foni uchun umbra yoki marsning oq bo'yoq bilan bir nechta aralashmalarini tayyorlaymiz. Aralashmalarni shu'la yoki eng qora nuqtalar (masalan, teshik yoki kovaklar) uchun emas, uni o'rtacha tonli yorug'lik va o'rtacha tonli soya uchun tayyorlab olish kerak. Yirik mo'yqalamlar bilan chizishni boshning soyali qismidagi asosdan boshlaymiz. Bu maqsadga muvofiqroqdir, chunki soyalar boshning shaklini aniqlab qandaydir tonal kamerton beradi, shakllarning tonal ifodalanishi ranglar echimining asosi hisoblanadi. Navbatdagi, keyingi qadam – foni hal qilish, binobarin fonsiz oq xolstdagi soyali qismlarni topib olish qiyin kechadi: u nisbatan ortiqcha qoramtir bo'lib ko'rinadi. Boshning yorug'lik tomoni asoslashtiriladi, uning soyali qismi va foni bilan qiyoslanadi. Buni dadil va erkin tarzda, alohida detallar ustida uzoq

to'xtab qolmasdan qilinadi. Birinchi chizgilardayoq boshning yoritilganligini (yoki yorug'ligini) va fazodagi holatini imkon qadar aniqroq chiqarishga harakat qiling.

b) SHaklni muayyanlashtirish va aniqlik kiritish. Bir butunlikdan hajmlar va detallar tomon ishlov berib borish. Detallarni ko'rsatish va boshning umumiy shakliga aniqlik kiritish quyidagi ish bosqichlariga oid vazifalardan iborat bo'ladi: Yuz detallariga o'tganda ular boshning umumiy tuzilishidan alohida ajralib ko'rinib qolmasdan, balki boshning tuzilishidagi o'ziga xos xususiyatlarni tabiiy tarzda va uyg'unlik bilan ko'rsatib berishi lozimligiga e'tibor kilish zarur. Bunda kichik o'lchamdagi mo'yqalamdan foydalangan holda, yana shaklni yopishtirilgandek "yasashga" harakat qiling. Shaklni tekisliklar bilan atrof-muhit fazosidan chegaralangan hajm sifatida tushinish kerak. Ushbu tekisliklarning har biri turlicha yoritiladi va shaklni ham turlicha xarakterlaydi. Real shaklni mo'yqalam bilan uchun har bir berilgan bo'yoq shaklning ma'lum bir tekislik qismini, u yoki bu qirrasini ko'rsatib berishi zarur. Shaklning biror tekislik qismidan boshqasiga asta-sekin, bir maromda o'tilganlikni ko'rsatish uchun ushbu tekislik qismlarining chegaralarini tushlash yoki qalam va h.k. lar bilan soyalashtirish yoki qalinlashtirish kerak emas, balki uning yana ham mayda bo'laklarini topish kerak. Ko'zlarga o'tilganda esa qovoqlarni mayda mo'yqalam (cho'tkacha) bilan aniq qilib chizib olishga intilish kerak emas, balki avval ko'z chanoqlarini (botgan joylarini) to'g'ri ton bilan aniqlashtirib (belgilab) olish zarur, buni albatta boshning chizib bo'lingan (olingan) joylari (qismlari) bilan doimo qiyoslab (taqqoslab) boriladi. Faqat shundagina, ya'ni ko'z chanoqlarining (botgan joylarining) o'z joyi va xarakteri topilgandan so'nggina ko'zning o'ziga o'tilishi lozim. Bitta ko'zni boshlagach, tezgina ikkinchisi ham chiziladi, bunda doimo ularning o'zaro to'g'ri tuzilishiga (chiqishiga) harakat qilib borish zarur. Lablarni ham bir chiziq bilan chizish emas, balki ularning shaklini yopishtirish – "yasash" kerak. Lablar o'z hajmiga, demakki, o'z yuza tekisligiga ham, shu yuza tekisliklarning qirralariga ham ega. Shuning uchun ularni ham o'z shakli bo'yicha mo'yqalam bilan "yasash" kerak,

bunda ular qaerda aniq va keskin tarzda (yoki birdaniga) chizilib ajralib turishini, qaerda engil va yumshoq tarzda modellashtirilishini topish zarur.

Alohida detallarning shakllari o'rganilib chiqilgach va boshning umumiy shakliga mos tarzda naturaning bir butun tarzda idrok etilishi (yoki qabul qilinishi, ko'rinishi) yo'qolib qolmaganligini ko'rish zarur. Detallar ustida ishlaganda, qiyoslash va taqqoslashni to'xtatmagan holda, umumiylikni kuzatib borish kerak. Detallar boshqa detallar bilan uyg'unlikda bo'lganda va umumiylikka xalaqit bermasligi lozim.

v) Umumlashtirish. Naturaning bir butun (yaxlit) tarzda qabul qilinishiga xalaqit beruvchi detallarni bartaraf etish va ifodalilikka olib keluvchi yangi detallarni kiritish kerak. Bunga esa, kuch-g'ayrat va diqqat-e'tiborni jamlash, ushbu sifatlarni o'zida hosil qilish xohish-istagi bilan erishiladi.

**Neytral fonda elka-belli bosh etyudi.** Vazifalar: soyani rangli ko'rishni, shaklni rang va ton bilan yasashni, naturaning xarakterli xususiyatlarini chiqarib berishni o'rganish. Rassom boshning asosiy rang xarakteristikasini ko'rsatib bera olishi zarur: peshonaning, lunjning (yuzning yon tomoni) iyak, burun va b. larning rangi. Binobarin, naturada ko'rinuvchi har bir tekislikni ranglarda hal qilish, shaklni rang bilan qurish, uning yorug'ligini berish va boshning havodagi (bo'shliq, fazodagi) holatini topish lozim. Ishning metodik ketma-ketligi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1) Boshni varaqda kompozision joylashtirish.

2) Rangtasvirda bosh surati.

3) Rang va ton bilan ishlash.

a) Rangtasvirda eng ko'p rangli va tonli munosabatlarni, rangi va toni bo'yicha ravshan, yorqin dog'larni namoyon etish (aniqlashtirish).

b) Shaklni muayyanlashtirish va aniqlik kiritish. Hajmlarga bir butunlikdan detallar tomon ishlov berib borish.

s) Umumlashtirish.

Naturaning bir butun (yaxlit) tarzda qabul qilinishiga xalaqit beruvchi detallarni bartaraf etish va ifodalilikka olib keluvchi yangi detallarni kiritish. Ish olib borish metodikasi avvalgi "Grizayl" vazifasida batafsilroq

tarzda qo'rib o'tilgan, biroq natura qismlarining tonli munosabatlarini aniqlashtirish rang munosabatlariga nisbatan murakkablashadi. Boshning rangtasvirli etyudini bajarishda naturada topilgan hajmli shaklning har bir tekislik va qirrasini – rang vositasida bajarish zarur. Buning uchun mavjud bo'yoqlardan shaklning har bir yuza tekisligiga beriladigan ranglar aralashmasini tuzib olishni o'rganish kerak. Boshlanishiga eng yaxshisi o'z palitrangizga chegaralangan miqdordagi bo'yoqlar sonini kiritgan ma'qul: oxra, siena (to'q sariq, tabiiy bo'yoq), inglizcha qizil, umbra, yashil er, ko'klardan – kobalt yoki ultramarin, qora kuydirilgan suyak, jigarrang van-dik. Munosabatlar bilan ishlash metodi qo'llaniladi, ya'ni shakldagi u yoki bu joyning nafaqat rangini, balki qo'shni ranglarning ushbu rangga ta'siri va o'zrao ta'sirlarini va ushbu rangning qo'shni ranglarga nisbatan ta'sirini ham hisobga olish kerak.

Naturaning soyali joylaridagi asosdan boshlagan yaxshiroq, so'ngra fon va yorug'lik qismlarini aniqlab olgan holda, yoritilgan qismdagi shakl muayyanlashtiriladi. So'ngra yorug'lik qismi asoslanadi (yotqiziladi). Yorug'lik rangiga nisbatan soya rangining issiq-sovuqligi aniqlanadi.

Fon, hattoki, deyarli bir rangda bajarilgan bo'lsa ham, unda mo'yqalam izlari, sovuq va issiq rang tusalari bilinib tursin. Fonning batartib va ehtiyotkorlik bilan bo'yab borilishi bilan bo'shliq “joy maydonga” aylantiriladi, fon boshga yaqinlashib borayotgandek bo'ladi. Suratda topilgan shakldan og'ishmaslikka harakat qilish lozim. Ko'zlar, ko'z qovoqlari o'z shakllariga ega, ularni bir nechta plandan iborat (yoki tuzilgan) hajmlar kabi qabul qilish kerak. Ish natijasida bosh va uning qismlari umumiy tuzilishini ranglarda bajarishni (ko'rsatib yoki chiqarib bera olishni) o'rganish zarur, boshning detallarini mo'yqalam bilan “yasashni” (o'z hajmida yopishtirib qo'ygandek), ranglar murakkabligini namoyon etib bera olgan holda chizishni (yaratishni) o'rganish zarur. Ishlash bosqichlarini ko'rib o'tamiz.





1- bosqich



2 - bosqich



3 - bosqich

### **Faol rang muhitidagi elka-belli bosh etyudi**

Vazifa: Naturani fon bilan rang-tonli bir xillikda chizish.

Vazifa – Xolstda boshning fon bilan koloristik bir xilligini yaratish.

**1 bosqich** – rangtasvirda boshning tayyorlov surati.

**2 bosqich** – bosh detallarini ularning shakl va rang xususiyatlarining maksimal xarakteristikalarini bilan birgalikda o'rganish. Detallarning shakllariga ishlov berishda har bir bo'yoq bilan shaklning ma'lum bir qismini namoyon qilib boring va, albatta, bir bo'yoqni boshqasidan ranggi bo'yicha farqlantirish zarur.

**3 bosqich** – o'rganilganlarni umumlashtirish va sintezlash, etyudni rangtasviriy bir xillikka (yaxlitlikka) keltirish. Bu bosqichning maqsadi: detallar bilan bo'laklangan boshni yana qaytadan umumlashtirish, boshning konstruksion tuzilishini qayta mustahkamlash, shakllarning avvalgi qilingan analizini sintezlash kerak.

**Neytral fonda «qo'llardan iborat» kiyimli naturachi figurasining etyudi.** Etyudni juda yirik rang dog'laridan mayda shakllarga keltirish lozim, bunda doimo rang, tonallik, proporsiyalar qiyoslanib, taqqoslanib borilishi va bir butunlikning saqlanib borilishini inobatga olib borish zarur. Hosil bo'lgan yirik dog'lar mozaikasini tushlash (tush yoki qalamda soya berish) kerak emas, balki boshning maydaroq shakllari yasaladigan oraliq tonlarni topish lozim. Endi bosh yorug'ligining rang va tonlari mos ravishda qo'llar yorug'ligi bilan taqqoslanishiga urg'u beriladi. Vazifalar: varaqni kompanovkalash, shakllarni rang va ton bilan yasash.. Misol tariqasida Slugin A. P. ishlagan o'quv postanovka yaxshi xizmat qiladi.



Slugin A.P.

**Oqish fonda « qo'llardan iborat » naturachi figurasi etyudi.**  
Vazifalar: fon bilan birlashishning bir butunligiga erishish, qo'llar rangtasviriga e'tibor qaratish.

**Faol rang muhitidagi naturachi figurasi etyudi.** Vazifa: natura va muhitning koloristik yaxlitligini (birligini) ko'rsatib berish.

Odam figurasi (kiyimli va yalang'och model), jonivorlarning, qushlarning va transportlarni tasvirlash bo'yicha rangtasviriy vazifalar. Yalang'och figuraning rangtasviri. Odam figurasi turli xil shakllarning garmonik uyg'unligini o'zida namoyon etadi. Proporsiyalarni o'rganish surat chizuvchiga alohida qismlarning o'lchamlarini aniq topishiga imkon yaratib beradi. Figuralarning realistik tasvirlanishi jiddiy bilimlarni talab etadi. Tuzilma shakllarini modellashtirishga kirishganda, yalang'och modelni tasvirlashda talabalar, albatta, koloritni, materiallikni (yoki moddiylikni), hajmni, shaklni, muhit va yorug'likni chiqarib bera olishi zarur va shart.

### **Kiyimli modelning rangtasviriy tasviri.**

Rangtasvir, bu – biz ko'rayotgan narsalarning sanab o'tiladigan nusxasi emasdir. Berilgan postanovkadan uning rang-baranglik, koloristik mohiyatini chiqarib berish zarur, bu berilgan xolst doirasida tartibni, o'ziga xos muhim buzilmas aloqani topish demakdir. Bo'yoqlar vositasida odam tanasining shakl-tuzilishining qonuniyatlarini hisobga olgan holda koloritni, materiallikni (yoki moddiylikni), hajmni, shakllarni, muhit va yorug'likni chiqarib berish lozim. Kiyimli figura ustida ishlashning murakkabligi shundan iboratki, bunda odam tanasi mato (drapirovka) ostida yashiringan bo'ladi, shuning uchun anatomiyani bilish muhimdir.

## ***27. Odam figurasi***

### **Turli xil rakurslardagi naturachining kiyimli figurasi etyudi.**

Vazifalar: naturaning plastikligini ochib berish, tasvirning bir butunligiga erishish. Odam figurasi tasvirlashda kompozision tuzilish qoidalariga, perspektivalar (chiziqli), havoli (fazoviy), kuzatuv qonuniyatlariga, yorug'-soya va tonal munosabatlari qonunlariga,



predmetlarning hajmdorligi va materialligini (moddiyligini) va kenglikni tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlariga, rangshunoslik bilimiga (yoki rang kiritish, rang berish bilimiga) tayanish zarur. Tasvirlarda ranglar munosabatlari, uyg'unligi va ranglar yaxlitligi qonunlaridan foydalanish (yorug'likning umumiy tonli va rangli holatlari, tasvirning tonli va rang masshtabi, ranglar yaxlitligi, issiq-sovuqlik) lozim.



R.Ahmedov





R.Ahmedov

Asosiy tamoyil – rang va shakl ustida ishlash jarayonining ajralmasligi. Koloristik masalalar echimi shakllarni o'rganish bilan bir vaqtda olib boriladi.

### **Ishning metodik ketma-ketligi:**

1). Formatni tanlash. Figuraning xolstda kompozision joylashuvi.

2). Figuraning surati. Mazkur bosqich o'ta katta ahamiyat kasb etadi. M.A.Vrubel aytganidek, boshlanishi yaxshi chizilgan ishning o'ziyoq, yaxshi yaratilgan asar bo'lishdagi barcha imkoniyatlarga egadir.

3). Rang va ton bilan ishlash.

Vazifalar:

a). Rangtasvirda eng ko'p (katta) tonli munosabatlarni, toni bo'yicha yorqin dog'larni namoyon etish (ko'rsatib berish).

b). Shakllarni muayyanlashtirish va aniqlik kiritish. Hajmlarga, bir butunlikdan detallar tomon, ishlov berib borish.

v). Umumlashtirish. Naturaning bir butun (yaxlit) tarzda qabul qilinishiga xalaqit beruvchi detallarni bartaraf etish va ifodalilikka olib keluvchi yangi detallarni kiritish.

**1) Me'moriy (ornamental) fondagi kiyimli naturaning etyudi** manzarali (dekorativ) vazifalarga urg'u beradi. Vazifaning o'ziga xos xususiyatlari – kompozisiyalarning manzarali (dekorativ) ifodaliligini qidirishdan iborat bo'lib, kompozision vazifalarni ixtisoslik (yoki mutaxassislik) bo'yicha muvaffaqiyatli bajarishga ko'maklashadi, kelgusi ijodiy ishda zarur bo'luvchi manzaralilik (dekorativlik) ni rivojlantiradi.

### **2) Kostyumli naturachi etyudi**

Vazifa: rang va plastik echimning bir butunligiga, kompozisiyalarning dekorativ ifodaliligiga erishish. Dekorativlikning. Yorug'-tonal dog'larning umumlashganligi, kenglik va hajmlar echimining ixcham, aniq va lo'ndaligi, siluet, chiziqlar va dog'lar ritmikasi va h.k. lar kabi elementlariga ega bo'lish. Talaba ishini baholash kriteriyalari – bu ranglar munosabatining uyg'unligi, shakllarning yasalganligi, model

xarakterlarining namoyon etilganligi umumiy koloristik tuzilishdan iborat bo'ladi. Etyud bir butun badiiy obraz sifatida qabul qilinishi zarur.

### **3). Naturachining kiyimsiz figurasi etyudi**

Vazifa: model plastikasini va asosiy rang munosabatlarini chiqarib berish. Yalang'och natura rangtasviri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa ham, barcha boshqa predmetlar rangtasviridagi kabi umumiy qonunlarga bo'ysunadi. Naturaga nisbatan metod ham, tasvirga nisbatan metod ham bir xil: umumiylikdan xususiylikka (qismanlikka) va yana qayta umumiylikka, natyurmortdagi kabi figura yorug'likning aynan o'sha xususiyatlariga va atrof-muhit reflekslarining ta'siriga bo'ysunadi. Doimiy vazifalardan biri – bu bir butun (yaxlit) tarzda ko'ra bilishni mashq qilish bo'lib, u tufayli atrof-muhit dunyosidan hosil bo'luvchi taassurotlarni to'g'ri chiqarib bera olish, undan asosiy narsani topa olish va ikkinchi darajalilikning o'lchamini aniqlay olish. Bir butun (yaxlit) narsani ko'z bilan qamrab olishda alohida tonlarni uzluksiz tarzda qiyoslab, taqqoslab borish metodi asosida ko'ra olish qonunlarini tushunib (yoki anglab) etish lozim. Ko'rayotgan narsani to'g'ri tushunish va tasvirlash uchun optika va rangshunoslik, perspektiva va plastik anatomiya qonunlarini bilish va ular to'g'risidagi bilimlarga tayanish zarur. Ba'zi bir pedagoglar varaqni ochib berishni eng qorong'u joyidan boshlashni, boshqalari eng yorqinroq joyidan boshlashni tavsiya etadilar. Shaklning chiquvchi va uzoqlashuvchi qismlaridagi yorug'lik, yarimton va soyalarning farqlarini o'ta chuqur sezish (his qilish) zarur. Yorug'lik, yarimton va soyaning yorug'lik manbaining joylashishiga nisbatan bog'liqligini e'tibor bilan kuzatib borish lozim. Detallar shaklni buzishi emas, balki boyitishi zarur. Atrof-muhit refleksi yalang'och tananing rang tuslariga qanday ta'sir ko'rsatayotganligini kuzatish zarur. figuraning turli xil qismlari tonlarini bir-biri bilan taqqoslash (qiyoslash, solishtirish) kerak: qo'llar, ko'krak qafasi, oyoqlar, qorin qismlarining tonlari nafaqat yorug'lik manbaining joylashuviga, balki ularni hosil qiluvchi (paydo qiluvchi) moddaga yoki asosga ham bog'liq tarzda o'zgaradi. Binobarin qorin qismi ko'pincha nisbatan sariq tuslarga, oyoklar esa, qizg'ishroq tusga ega bo'ladi. Ba'zida bo'yoqlarning zaruriy birligini (mosligini) topish maqsadida taxminiy,

birlamchi, chaplama bo'yoq berish va sinov namunalari, masalan, tana soyasi uchun, yorug'lik uchun, yarimton va fonlar uchun bo'yoq aralashmalarini qilib ko'rish tavsiya etiladi. Material: guash, akvarel, tempera, varaq formati – tanlovga ko'ra.

#### **4). Faol rang muhitida naturachining figurasi etyudi.**

Vazifalar: faol rang muhitining modeldagi ranglar echimi xarakteriga ta'sirini chiqarib berish, koloristik yaxlitlikka erishish. Material: guash, akvarel, tempera, A1 formatli varaq.

#### **5). Intererda naturachining kiyimli figurasi etyudi**

Vazifa – amaliyotda perspektivalar va soyalar nazariyasi qonunlarini, rangshunoslik qonunlarini, kompozisiyaning yagona koloristik echimi qonunlarini qo'llash. Material: guash, akvarel, tempera, A1 formatli varaq. Akademik rangtasvir metodlariga, rangshunoslik va koloristika bilimlariga ega bo'lish.

### **III. KOLORISTIKA**

**Koloristika** – rang haqidagi fan bo'lib, ranglar tabiati, asosiy, tarkibiy (tashkil etuvchi) va qo'shimcha ranglar, ranglarning asosiy xarakteristikalarini, rang kontrastlari, ranglar aralashuvi, kolorit, ranglar uyg'unligi, ranglar tili va ranglar madaniyati haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Ranglar dunyosi qonunlari ranglar bilan do'stlashish yoki do'stlashmaslikni aniqlab beradi.

**Rang** – yorug'likning spektral tarkibiga ko'ra ma'lum bir ko'rish sezgisini chaqiradi.

**Intensivlik** – ranglarning quyuq-to'qlik darajasi (u yoki bu tonga egaligi).

**Chuqurlik** – ranglar tonalligining yorqin yoki xiralik darajasi.

**Oqishlik** – oqlik darajasi (rangda oq yoki oqish-kul rang tonlarning ishtirok etish).

**To'yinganlik** – qora-kul rang va qora tonlar ishtirok etish.

**Yorqinlik** – bu yarqirayotgan (yoki nur sochayotgan) jismning xarakteristikasi bo'lib, qandaydir yo'nalishdagi yorug'lik kuchining –



yarqirayotgan sirtning shu yo'nalishga perpendikulyar bo'lgan tekislikka tushayotgan proeksiyasining (tasvirining yoki aksining) maydoni nisbatiga teng.

**Kontrastlik** – ob'ektning yorqinlik farqlari va fonining ular summasiga munosabati (yoki nisbati).

Birinchi bo'lib ranglarning uyg'unlik tizimini yaratganlardan – Leonardo da-Vinchi edi. U qadimgi yunonlar va rimliklar tomonidan kashf etilgan mavjud ranglarning rang-barangligi chegaralangan bo'lishi mumkin ekanligini aniqlagan edi. Uning yozishicha: “oddiy ranglar – 6 ta: oq, sariq, yashil, ko'k, qizil, qora”. Leonardo da-Vinchi shuningdek ranglarning ikkita jihatini ham belgilagan: badiiy va fizik.

**Rang** – moddiy dunyo ob'ektlarining xususiyatlaridan biri bo'lib, anglab etilgan ko'rishga oid (ya'ni ko'rib sezib bo'lingan yoki tanilgan) sezgi sifatida qabul qilinadi (yoki idrok etiladi). U yoki bu rang odam tomonidan ob'ektlarni ko'rib, idrok etish jarayonida ularga “beriladi”. Ranglarni idrok etish kuzatuvchining psixofiziologik holatiga bog'liq holda qisman o'zgarishi mumkin, masalan, havfli vaziyatlarda kuchayishi, charchoq holatlarida pasayishi mumkin.

Aksariyat holatlarda ranglarni sezish – to'lqinlar uzunligi diapazonidan chiquvchi elektromagnit nurlanish oqimining ko'zga ta'sir etishi natijasida yuzaga keladi (ko'z idrok etuvchi nurlanish diapazoni, ya'ni ko'rinuvchi diapazon – to'lqinlar uzunligi 380 dan 760 nm. gacha). Ba'zida ranglarni sezish – ko'zga nurlar oqimining ta'siri bo'lmasa ham, yuzaga kelishi mumkin, ya'ni – ko'z olmasiga bosim ta'siri bo'lganda, zarba berilganda, elektr toki ta'sirida qo'zg'atiluvchi asabiy ta'sirlarda, shuningdek, boshqa sezgilar, ya'ni tovush, issiqlik va h.k. bilan xayoliy assosiasiyalanish (bir-birini eslatuvchi o'zaro bog'lanish) bo'yicha va tasavvur etish bilan bog'liq ishlar natijasida va h.k. Turli xildagi rang sezgilarini turli rangdagi predmetlar, ularning turli xildagi yorug'lik bo'laklari (qismlari), shuningdek, yorug'lik manbalari va ular tomonidan yaratiluvchi yorug'liklar keltirib chiqaradi. Binobarin, ranglarni idrok etish – yorug'lik manбайдan yoki o'zi yorishmaydigan (yoki o'zi nur taratmaydigan) ob'ektlardan ko'zimizga yorug'lik nuri tushayotganligi

yoki tushmayotganligiga qarab farqlanishi ham mumkin (hattoki nisbatan bir xildagi spektral tarkibdagi nurlar oqimida ham). Rang sezgilarini chaqiruvchi predmetlarning asosiy ulushini o'zi nur taratmaydigan jismlar tashkil etadi, ular faqatgina manbalardan nurlanayotgan yorug'likni aks ettiradi yoki o'tkazadi. Umuman olganda, predmetning rangi quyidagi omillar bilan ham shartlangan (yoki bog'liq): uning rangdorligi va yuzasining xususiyatlariga; yorug'lik tarqalayotgan yorug'lik manbalarining va muhitning optik xususiyatlariga; ko'rish analizatorlarining xususiyatlari va miya markazimizda ko'rish taassurotlarining hali etarlicha o'rganilmagan qayta ishlanish psixofiziologik jarayonining o'ziga xos xususiyatlariga ham bog'liqdir.

Rang – muomala vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Rang oldi-sotdida ham yordam beradi. Rang bu – deyarli har qanday iste'moldagi maxsulotning oldi-sotdisini (xaridini) rag'batlantiruvchi (yoki stimul beruvchi) kuchdir. Dizayn, grafika ustalari va poligrafistlar juda yaxshi bilishadiki, rang savdo ishlari jarayonida eng asosiy omil hisoblanadi, binobarin, xarid qilinadigan narsa to'g'risida echim qabul qilishda ham muhim rol o'ynaydi. U xaridorda u yoki bu tovarga nisbatan o'ziga jalb qiluvchi (tortuvchi) butun (emosional) hissiyotlar silsilasini (qatorini) uyg'otadi.

## ***29. Ranglar***

Endi biz – siz bilan ko'rishga-farqlashga odatlanib qolgan jonli (yoki tirik) ranglar haqida gaplashmoqchimiz. Barchaga ma'lum bo'lgan ranglar doirasi mavjud va u quyidagilardan tashkil topgan: (soat mili bo'yicha tepadan) sariq, qizil – issiqlari, ko'k va yashil – sovuq ranglar va ular oralig'ini tashkil etuvchi rang turlari. Bu rang spektori bo'lib, ularni aralashtirish orqali har qanday rangga ega bo'lish mumkin. Biroq – bu ranglar (polixrom ranglar) qora va oq tonlardan iborat bo'lgan monoxrom tonlar spektrisiz hech narsa qila olmaydi. Aynan o'shalar ranglarning to'yinganlik darajasini aniqlab beradi va xrom-kobalt, metallik, xaki kabi murakkab ranglarda tengi yo'q hisoblanadi. Barcha ranglar konsonirlanuvchi – uyg'unlashuvchi va dissonirlanuvchi – uyg'unsizlikka

bo'linadi. Odatda (yoki qoidaga ko'ra) spektrning yaqin zonasidagi ranglar uyg'unlashadi (qizil – to'q sariq – sariq) va kontrastli (issiq – [ton (qora – kul rang – oq)] – sovuq). Lekin doimo, iloji boricha (yoki imkon qadar), har bir uyg'unlashishga da'vogarlik qiluvchi rangda kompozisiyaning boshqa qolgan ranglarining rang tushlari bo'lishi kerak. Ranglarning reflekslanishi zarur. Ko'pincha kompozisiyalarda ranglar nyuanslar bilan farqlanadigan (yoki ajratiladigan) bo'lsa, klasterli – kam yoki sust rang tusiga ega bo'lgan rang gammalari qo'llaniladi. Bunday ranglar kompozisiyasidan iborat bo'lgan maxsus tablichkalar ko'z vrachi kabinetida daltonizmga tekshirish uchun qarashga beriladi.

Va oxirgi asosiy gamma siyraklashgan (yoki kam to'yingan) – oqartirilgan (jonsiz) ranglar. Bunday gammalar asosan hech narsaga da'vogarlik qilmaydiganlar sifatida, kompozisiyani birlashtiruvchi fon sifatida qo'llaniladi.

### **Rang, bu – hayot va dunyo bo'yoqlarsiz bizga jonsiz bo'lib ko'rinadi**

Ranglar azaliy tushunchalar hisoblanadi, dastlabki rangsiz yorug'likning va uning qarama-qarshi tomoni bo'lgan – rangsiz zulmatning bolalaridir. Alanga yorug'likni keltirib chiqarsa, yorug'lik rangni keltirib chiqaradi. Rang, bu – yorug'likning farzandi, va yorug'lik – uning onasidir. Yorug'lik, dunyoning yaralishida birinchi qadam sifatida bizga ranglar orqali uning tirik qalbini ochib beradi. Hech narsa inson ongini falakdagi ulkan rang chambaragining (toj) paydo bo'lishidek hayratda qoldira olmas edi. Momoqaldiroq va chaqmoq bizni qo'rqitadi, lekin kamalak va shimol yog'dusining rangi hotirjamlantiradi va bizni ulug'layotgandek (yuksaltirgandek) bo'ladi. Kamalak tinchlik ramzi hisoblanadi. So'z va uning ovozi, shakl va uning rangi – bu transsendental (voqea-hodisalarni tajriba bilan emas, balki faqat aql-idrok bilan tasavvur qilishning mumkinligi) mohiyat tashuvchilari bo'lib, faqat hali biz tomonimizdan to'liq tushunilib etilmagan. Shuningdek, ovoz ham o'z yog'dusini berganidek, rang ham shaklga o'ziga xos ulug'vorlik beradi.

**Ranglar ta'sirining estetik jihatlari uchta yo'nalishda o'rganilishi mumkin:**

1. **sezgi-optik;**
2. **psixik;**
3. **intellektual-simvolik;**

**Ranglar nafaqat ko'zlarga, balki boshqa sezgi organlariga ham ta'sir ko'rsatadi.**

Biz "shirin pushti rang"ning mazasini sezamiz, "jarangdor-qizilni" eshitamiz, "bahavo-oqni" his qilamiz, "yangi ko'kat" hidini idrok etamiz. SHuning uchun, hayron qolarli emaski, ranglardan foydalanish sohasi o'ta ulkan. Alohida ranglar va ularning rang tuslarining ta'siri testdan o'tkazib ko'rilgan, shundan keyin ular yana ham maqsadga muvofiq tarzda foydalaniladigan bo'ldi: moda sohasida, film va televidenielerde, jurnal va fotografiyalarda, eng asosiysi, reklamalarda, chunki rangli reklama oq-qoradan ko'ra kuchliroq ta'sir o'tkazadi.

#### **Reklamadagi ranglar:**

Reklamalarda kofe jigar rang tonga ega bo'ladi. Sut maxsulotlarining reklama roliklari – oq rang tuslari; bolalar kiyimlari va gigiena vositalari uchun yumshoq pastel tonlardan foydalaniladi; tetiklashtiruvchi limonad ichimlik suvlarini taklif etish uchun – suvning hayotiy kuchini ochib berish uchun – sovuq marvarid (yoki marjon, inju, dur) oqish tonlar, jiddiy musiqa uchun esa – uchta: qizil, oltin va qora ranglarning bayramona ohangdosh uyg'unligi amalga oshiriladi.

Pop-musiqa reklamasida shoklantiruvchi (shokka tushiruvchi) ranglar foydalaniladi – qizg'ish, pushti, to'q sariq binafsha, qizil rang; isituvchi vositalar uchun – issiq qizil-jigarranglar. Oltin rangni faqatgina qimmatbaho narsalar taklif etilayotgan joylardagina uchratish mumkin.

**Turli xil jihatlar reklamalarda, u yoki bu mahsulotga ishonch hosil qilish uchun foydalaniladi:**

1. Mineral suvning tetiklantiruvchi, yangi muddatli, haqiqiy yoki tabiiylik, jilvalilik sifatleri oqish, tiniq, shaffof, (yaltiroq) moviy, feruza ranglarda beriladi.



2. Yumshoqlik, noziklik sifatlari bolalar kiyimlari yoki gigiena vositalari reklamasi uchun foydalaniladi.

3. Salqinlik, tiniqlik, shaffoflik va tozalik – alkagolli ichimliklar reklamasida foydalaniladi.

4. Ulug'vorlik, aslzodalik (aristokratlik), eksklyuzivlik sigaretlar, hayot xavsizligi kompaniyalari va viskilar reklamasida to'yingan yarqiroq-ko'k ranglar yordamida beriladi.

5. Samolyotlarda ham borish (jo'nash) mumkin bo'lgan janubiy kengliklardagi ta'tillar bilan bog'liq bo'lgan erkinlik, kurort joylari va oftobda qorayishdan saqlanish va qorayish uchun kremlar bizning tasavvurimizda osmon-zangori rang bilan bog'lanadi.

6. E'tiroz, yoshlik, erkinlik zangori ranglarda jinsi va sigaretalar reklamasi ifodalanadi.

7. Orzu, sir, romantika, qayg'u, g'am-g'ussa filmlar, kitob va yoritish asbob-uskunalari reklamasiga xos bo'lib – bularning barchasi tungi osmonning to'q-ko'k rangida aks ettiriladi.

8. Reklama yaratuvchilar va psixologlar turli xil ranglarning ta'siri to'g'risidagi o'z bilimlaridan va uslublaridan foydalangan holda, iste'molchilarga kuchli ta'sir o'tkazadilar. Ular ranglar yordamida ishlab chiqaruvchilarning tovarlarini sotib olishlari uchun ist'molchini ishontirishga yordam berishadi.

### ***30. Ranglarni idrok etish psixologiyasi***

Rang insonning fiziologik jarayonlari va uning psixologik holatiga ta'sir ko'rsatadi. Har bir rangning xususiyatlarini bilgan holda, ma'lum bir obrazni shakllantirish, ma'lum bir his-tuyg'u, kechinmalar (emosiyalar), assosiasiyalarni keltirib chiqarish mumkin.

#### **Ranglar assosiasiyalarining qisqacha tavsifi:**

**Qizil** – issiq va junbishga keltiruvchi rang bo'lib, miyaga stimul beradi, kayfiyatni yaxshilaydi. Rahnamolik, liderlik, peshqadamlik, erkaklarga mansub rang, bu ham asab tizimlariga qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi. Nima deb o'ylaysiz, nima uchun telefon budkalarini ichkaridan

qizil yoki to'q sariq rangga bo'yashadi ? To'g'ri, kamroq vaysashlari uchun. Boshqa bir tarafdin esa, qizil-to'q sariq rang kayfiyatni yaxshilaydi. Qizil rangni tez oshiq bo'lib qoluvchilar va seksuallikka moyil odamlar ma'qul ko'rishadi.

To'lqinlanish, ruhiy qo'zg'alish, energiya, ehtiros, xohish, tezlik, mustahkamlik, quvvat, issiqlik, sevgi, agressiya (tajovuz), havf, olov, qon, urush, zulm, barcha jadallik, shiddat va ehtirosliklar shu rangda ko'rsatiladi.

**To'q qizil** (purpur) –haqiqat, ma'naviylik, olijanoblik, takalluflik, islohot, donishmandlik, maorif, qat'iylik, dimog'dorlik.

**Moviy, ko'k** rang salqin muhitni yaratadi, asab kasalliklari va yallig'lanishlarda kasallikka qarshi ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ko'ngil qolish va shubha-gumonsirashni bildiradi. Zangori (yoki moviy) rang idrok etilganda vaqtga etarlicha baho berilmaydi. Ushbu rang ta'siri ostida odamda behalovotlik, tashvish va havotirlik darajasi kamayadi, zo'riqish va qon bosimi pasayadi. Uzoq vaqt davomida ta'sir etishida toliqish, charchash yuzaga keladi.

Tinchlik, xotirjamlik, barqarorlik, uyg'unlik, birlashish, ishonch, haqiqat, sarqitlik (konservatizm), xavfsizlik, tozalik, tartib, to'g'rilik, sodiqlik yoki xolislik, osmon, suv, sovuq, texnologiya, depressiya, ishtahani bo'g'uvchi.

**Yashil** rang ishonchsizlik va vazminlikni bildiradi. Asab tizimlarini tinchlantiradi. Og'riqni, charchoqni oladi, qon bosimini me'yorlashtiradi. E'tiborni jamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yashil rangga o'rganib (odatlanib) qolinganda to'g'ri echilgan masalalar soni 10 % ga ortadi, xatoliklar soni 20% ga qisqaradi, biroq bunda ma'lum bir ma'noda vaqtning etarlicha baholanmasligi yuzaga keladi. Yashil-sokin va tinchlantiruvchi hisoblanadi. Qobiliyatli, o'ziga ishonuvchan, o'zini namoyon etuvchi va vazminlikka intiluvchi kishilar yoqtiradi.

Tabiat, sog'lom muhit, tiklanish, yoshlik, tetiklik, bahor, saxiylik, unumdorlik, rashk, tajribasizlik, hasad, omadsizlik.

**To'q sariq** rang – eng dinamik, yoshlarga xoslik, navqironlik va hushchaqchaqlik rangi. His-tuyg'uni rag'batlantiradi va yurak urishini tezlashtiradi, idrokni keskinlashtiradi (kuchaytiradi) va murakkab vaziyatlar, vazifa va muammolarni hal qilishga ko'maklashadi. Quvnoq va improvizatsiyalangan (tayyorgarliksiz). Ruhiy to'lqin, hayajonga olib keluvchi harakatlar, qizilga nisbatan kuchsizroq, shuning uchun ham, yoqimliroq. Ushbu rang qon bosimini oshirmagan holda, engilgina pulsni tezlashtiradi, farovonlik va baxt hissini uyg'otadi. Mehnatkashlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi, albatta, vaqti-vaqti bilan dam olib turish sharti bilan. To'q sariq rangning uzoq muddatli ta'sirida toliqish va hattoki bosh aylanishi ham paydo bo'lishi mumkin. Energiya, balans, issiq, shijoat, jonlilik, jo'shqinlik, tez qizishuvchan, serhasham, e'tibortalablik.

**Sariq** rang – quvnoq rang, masala, vazifa va muammolar echimiga ko'maklashadi. Agar dalillardan kelib chiqadigan bo'lsak, sariq – yashil va qizilning aralashmasidir, demak, u ushbu ranglarning xususiyatlarini ham o'zida jamlagan. Sariq rang miyani rag'batlantiradi, razryadni talab etuvchi qo'zg'ovchi, junbishga keltiruvchi zo'riqishni chaqiradi. Sariqni yoqtirish mustaqillikka, idrok etish gorizontini kengaytirishga intilishni bildiradi. Bu spektrning eng yorqin rangidir. U o'ta egiluvchan va osongina moslashuvchan, har qayoqqa kirib bora oladi. Sariq nurlar yordamida muammolar manbaiga etib borish mumkin. Sariq rang o'qishni yaxshi ko'radi, o'tkir zehn va ziyraklik, fikrlarning ravshanligi va aniqligi bilan ajralib turadi. Sariq hayot haqidagi hamma narsaga aqli etadi va shu bilan birga optimizmga to'la (kelajakka ishonch). Ushbu rang doimiy kurashda bo'ladi, kurahsiz bo'ysunmaydi.

Xursandchilik, baxt, kelajakka ishonch, tasavvur, umid, quyosh yorug'ligi, yoz, oltin, falsafa, tovlamachilik, irodasizlik, xoinlik, rashk, qizg'anchilik, aldov, kasallik, keskinlik, tavakkalchilik.

**Binafsha** rangni beqaror xarakterli kishilar yoqtiradi. U yurak va qon tomirlariga, shuningdek, psixikaga ta'sir ko'rsatadi. Uni, shuningdek, "ayollarga xos yolg'izlik rangi" deb ham atashadi.

**Jigar rang** – bu rang hech narsani almashtirishni xohlamaydigan, konservativ (eskilikni yoqlovchi) kishilar rangidir. Er, oila o'chog'i, uy, ishonchlilik, qulaylik, chidamli, mustahkam, barqaror.

### ***31. Tonlar***

**Qora** – kuch ishlatishga yo'g'irilgan, yaratuvchanlikka, o'qib-o'rganish, oldindan ko'ra bilishlik, boy ma'no va sermazmunlik, yashirin xazina, vayronkorlik, zaiflik va egoiz, bosim o'tkazish, depressiya, bo'shliq, qanoat qilish, chegaralanish kabi sifatlarni namoyon qilish kuchlaridan foydalanish. Qora o'zi ega bo'lgan kuchni (narsasini) yashiradi. Uni yoqtiruvchi kishi o'zining ichki dunyosini atrofdagilardan yashirishga intiladi. Qora nihoyaning (hamma narsaning oxirini ifodalaydi) ramzidir. Har oqshom biz yangi kuch to'plab olish uchun mamnuniyat bilan tunga qaytamiz. Biroq aynan u barcha yangi narsalarning ibtidosini (boshini boshlab) beradi. Hayot aslida noma'lumlikdan boshlanadi. Qora o'zidagi sirli bilimga egaligi tufayli vaziyatni nazorat qilishga qodir. Qora har qanday vositalar bilan o'z hukmronligini ushlab turishga intiladi. Boshqa bir tarafdin, bunday odam tashqi nazoratga muhtojlik sezadi.

Quvvat, kuch, murakkablik, rasmiy, hushbichim, bashang (elegantlik), boylik, sir, qo'rquv, yovuzlik, noma'lumlik (anonimlik), norozilik, chuqurlik, uslublik, qayg'u, achinish, afsuslik, qahr, g'azab, metropoliten, yaxshigina texno-rang, motam, o'lim (g'arb madaniyatlari).

**Oq** – qo'l urilmaganlik, to'lalilik, bor kuchini sarflash, birlik, engillik, yashirin va yolg'onni namoyon bo'lishi, atrofdan yakkalanib ajralish, behudalik, qotib qolganlik, ko'ngil qolish, rasmiyatchilik, zerikish. Oq rangning asosiy sifati tenglik hisoblanadi. Oq rang adolatni qidiradi. U beg'araz, xolis. Oq rang gunohsizlik (bokiralik) ramzidir. Bu rang haqiqiy kelinning rangi, hali ehtirosni bilmaydigan qizlarning rangi. Oq rang ma'lum bir zichlik bilan xarakterlanadi. Qo'llaringizda tiniq, yaltiroq kristallni ushlab, o'z oldingizda Yog'duni ko'rasiz. Qo'lingizda paxtali ip gazlama choyshabni ushlab turib, uning ortidan hech narsani ko'ra



olmaysiz. Oq rang Yog'duning benuqson tozaligidan bir pog'ona pastda joylashgan. Oq rang spektrdagi ranglarning barchasidan teng-baravar ulushiga ega bo'lib, ularning aralashuvi natijasi hisoblanadi. Demak, oq rangdan u yoki bu ranglar birligini yaratish uchun foydalanilish mumkin. Oqdagi barcha tuslar tengdir. Afsonalarda oq rang birlik, birdamlik ramzi sifatida xizmat qiladi. Oq adolatni izlaydi. Sud hakamining boshidagi oq parik uning beg'araz, xolis ekanligi haqida gapiradi. Oq - ma'naviy-ruhiy qo'riqchidir. Agar oq rang ishtirok etar ekan, demak hammasi joyida bo'ladi. Oq xalatdagi doktor odamni o'lim og'zidan tortib oladi. Izzat-ikrom, tozalik, poklik, soddalik, tinchlik, itoatkorlik, aniqlik, aybsizlik, yoshlik, tug'ilish, qish, qor, yaxshi, tozalik, nikoh (g'arb madaniyatlari), o'lim (sharq madaniyatlari), sovuq, klinik, sterillik.

**Kul rang** – xavfsizlik, ishonchlilik, intellekt, darajali, kamtarlik, qadr-qimmat, tugallanganlik, qattiqlik, eskilik tarafdori (konservator), amaliyotchi, ehtiroslilik, qayg'u.

**Kul rang, qora va oq** – ranglar uchun bog'lovchi zvenolar, fon hisoblanadi va ular yonida joylashgan ranglarning intensivligini oshiradi, qo'shilganda esa, ranglarning oqishligini (och-kulrang, oq) yoki to'yinganligini (to'q kul rang, qora) oshiradi.

### ***32. Testlar***

**Qizil rang** – bugungi kun bilan yashaydigan, jismonan kuchli odamlar ramzi. U odamlar o'ta ta'sirchan, serg'ayrat, sermuhabbat va uddaburon (epchil). Lekin, odatda, uddaburonlik yigirma to'rt soatdan tashqariga chiqolmaydi. Ular, o'ta amaliyotchi.

**Sariq rang**, bu – umuman boshqa holat. Bu rangni boshqa dunyo hayolparastlari tanlashadi. Ular o'z xatti-harakatlarini bugungi kun realliklari bilan moslashtirishga unchalik ham (yoki haddan tashqari) urinib ko'rishmaydi va o'zlarini o'rab turgan faqirlikni (g'ariblikni) ertakdagidek his qilishga urinishadi.

**YAshil rangni** o'ziga ishongan va qat'iy, tirishqoq odamlar yoqtirishadi, ular o'zidagi barcha qat'iylik va tirishqoqlikni va ehtirolarni o'zini uchun bekamu ko'st ta'minlashga yo'naltirishadi.

**Ko'k rangni**, odatda, flegmatiklar, sovuqqon, beg'am odamlar, tartib va barqarorlikka intiladigan odamlar chizishda ishlatiladi.

**Jigar rangni** turmushining tayini yo'q (yoki turmushda o'rnasha olmagan) odamlar ma'qul ko'rishadi.

### ***33. Ranglar – tonlarning fazoviylikni (kenglikni) hosil qiluvchi xususiyatlari***

Issiq-lokal ranglar va ularning spektral turlari (qizil, to'q sariq, sariq) fazoni (yoki kenglikni) kichiklashtiradi, sovuq ranglar va ularning rang turlari (binafsha, ko'k) va tonlari (qora, oq) esa, vizual jihatdan uning kengligini oshiradi (kengaytiradi).

#### **Har bir rang o'z xarakteriga ega:**

**Qizil** (va uning spektral rang turlari) – o'zining boyligi va hashamdorligi bilan assosiasiyalanadi. Qizil kuch va energiya ramzidir, shuning uchun uni, yaxshisi, jamoatchilik joylari, xonalari va mehmonxonalarda qo'llagan ma'qul..

**Ko'k** (va uning spektral rang turlari) – havo, fazo, salqinlik va osoyishtalik hissini beradi, shuning uchun uni, yaxshisi, dam olish uchun mo'ljallangan, sirli, mahfiy, ishqiy munosabat xonalariga qo'llagan ma'qul. Xrom/axromatik spektrdagi eng neytral rang – bu kul rang ton.

**Kul rang** – har qanday rang tusi va foni bilan chiqishib (do'stlashib) ketadi va qo'llab-quvvatlaydi, o'zi ham har narsaga to'g'ri tushaveradi. Kul rang-barcha tonlar kabi ranglar va rang turlari o'rtasida bog'lovchi zveno hisoblanadi. Kul rangni shaklning bevosita yagona lokal rangi yoki faqatgina ikkinchi darajali bog'lovchi element yoki koloristik kompozitsiyaning fonli tuzilish elementi sifatida qo'llash kerak. Kul rangni dominantlik bo'lishiga yo'l qo'yish kerak emas, aks holda u zerikarli, g'amgin bo'lib qoladi. Hali suyagi qotmagan bolalar aql-ongida depressiyaga olib boradi.

### **34. Rang va odam**

Sizning siymoingizdagi (suratingizdagi) barcha rang tuslari tabiat go'zalligini qayd etgan holda, uyg'un tarzda moslashishi uchun asosiy e'tiborni rang-barangliklarning aniq nyuansini tanlab olishga qaratish lozim. Ranglarning issiq yoki sovuq yo'nalishi tanangizning barcha ranglariga ton beradi (bag'ishlaydi). Tanlab olgan ranglarimiz bizning qanday ko'rinishimizga ta'sir ko'rsatadi?

Ranglarning inson fiziologiyasiga ta'siri tajriba-sinov (eksperimental) yo'l bilan tasdiqlangan va bu ranglarning miqdoriga (soniga), ranglarning sifatiga, ta'sir ko'rsatish vaqtiga, asab tizimining xususiyatlariga, yoshga, jins va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Insonning butun organizmiga nisbatan bevosita fiziologik ta'sirini qizil va ko'k ranglarning, ayniqsa, ularning maksimal darajada to'yinganlik holatida keltirib chiqaruvchi hodisa bilan tushuntirib beriladi.

Qizil rang asab tizimini qo'zg'atadi, nafas olish va yurak urish pulsining tezlashishiga olib keladi va mushak tizimining ishini faollashtiradi. Ko'k rang asab tizimiga tormozlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Qizil, sariq, to'q sariq ranglar, ekstraversiya ranglar – ya'ni tashqariga yo'naltirilgan impulslar hisoblanadi. Ko'k, binafsha, yashil, aksincha, ichkariga qaratilgan passiv introversiyalar va inmulslar uchun kerakli hisoblanadi.

To'q sariq (oranj) va qizil rang– yo'l-yo'lakay miyaning ko'rish va eshitish markazini birgalikda qo'zg'agan holda, shovqinlar balandligi oshgandek holatni keltirib chiqaradi. Ushbu faol ranglarni ko'pincha "jaranglovchi" deb bekorga aytishmaydi. YAshil va ko'k– tinchlantiruvchi ranglar, eshitish markazining qo'zg'alishini, ya'ni shovqin balandligini susaytiradi yoki kompensasiyalaydi.

**Asosiy ranglar quyidagi xarakteristikalarga ega bo'ladi:**

<b>ranglar</b>	<b>qo'zg'ovchi</b>	<b>g'amginlik (tashvish)</b>	<b>tinchlantiruvchi</b>
<b>Qizil</b>	+		
<b>To'q sariq</b>	+		
<b>Sariq</b>	+		
<b>Yashil</b>			+
<b>Zangori</b>			+
<b>Binafsha</b>		+	
<b>To'q kul rang (ton)</b>		+	
<b>Qora (ton)</b>		+	

**Quyida ranglar tuyuluvchi ta'sirlarining asosiy xarakteristikalari keltirilgan**

<b>Oq</b>	<b>engil</b>			
<b>Sariq</b>	<b>engil</b>	<b>issiq</b>	<b>quruq</b>	
<b>To'q sariq</b>		<b>issiq</b>	<b>quruq</b>	<b>jaranglovchi, kuchli</b>
<b>Qizil</b>	<b>sariq</b>	<b>issiq</b>	<b>quruq</b>	<b>jaranglovchi, kuchli</b>
<b>Binafsha</b>	<b>og'ir</b>			
<b>Ko'k</b>	<b>og'ir</b>	<b>sovuq</b>	<b>nam</b>	<b>sekin, tinch</b>
<b>Yashil</b>		<b>salqin</b>	<b>nam</b>	<b>tinch</b>
<b>Zangori</b>	<b>engil</b>		<b>nam</b>	<b>sekin, tinch</b>
<b>Jigar rang</b>	<b>og'ir</b>	<b>issiq</b>	<b>nam</b>	
<b>Qora</b>	<b>og'ir</b>		<b>quruq</b>	

Ranglarning psixologik ta'siri deganda biz u yoki bu ranglarning ta'siri ostida boshimizdan kechirishimiz mumkin bo'lgan qayg'urish (kechinma) hislari to'g'risida gap boradi. Bu ta'sir ranglarning optik xususiyatlari bilan o'ta chambarchas bog'liqdir.

To'q yashil – bu eng hotirjam (tinch) rang hisoblanadi. U hech qayoqqa harakat qilmaydi (qimirlamaydi) va na hursadchilik va na tashvish alomatlariga ega bo'ladi. Mazkur doimiy tarzda harakatsizlik



(ya'ni harakatning yo'qligi) toliqqan kishilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, biroq vaqt o'tgan sari zeriktirishi ham mumkin.

Yashil rangga sariq rangning kiritilishida u jonlanadi, yana faollashadi. Ko'k rang qo'shilganda esa, aksincha, o'zgacha jaranglay boshlaydi, u endi jiddiylashgan, o'ychan bo'lib qoladi. Boshqa bir tomondan esa, sariq rang kishini bezovtalantiradi, havotirlantiradi, muzlatadi, qo'zg'aydi. Inson qalbining holati bilan qiyoslaganda uni aqldan ozganlik, ko'r-ko'rona g'azabga minishning ranglardagi ifodasi (Dostoevskiyning sariq rangi) sifatida qo'llash mumkin bo'lar edi. Ko'k esa chuqurlashuvga moyil. Qanchalik chuqurlashgan sari, ko'k rang shunchalik to'qroqlashib boradi, kishini cheksizlikka tomon ko'proq chaqira boshlaydi, unda tozalik va g'ayrihissiylikka zoriqishni uyg'otadi. O'ta to'q ko'k tinch holat (xotirjamlik) elementini beradi. Qorayish chegarasigacha olib borilgan ko'k rang qayg'u tovushiga (jarangiga) ega bo'ladi. Ko'k rang oqartirilgan sari beparvolik, loqaydlik xarakteriga ega bo'la boshlaydi va kishiga xuddi moviy osmon kabi uzoq va befarq bo'lib qoladi. Yana ham oqishroq bo'lganda, u yana ham tovushsiz, jarangsizlanib boradi, umuman tovushsiz, jarangsiz holga kelganda esa – u oq bo'lib qoladi.

Ko'pincha oq ton – “bo'yoq emas” deb belgilanadi. U aslida ham barcha rang bo'yoqlar, barcha moddiy xususiyatlar yo'q bo'lib ketadigan joylarda tinchlik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham, oq ton bizning psixikamizga sukunat, jimjitlik sifatida ta'sir ko'rsatadi. Biroq bu sukunat jonsiz (o'lik) emasdek, aksincha imkoniyatlarga to'lib-toshgan. Qora ton, aksincha, xuddi qandaydir imkoniyat sizdek, xuddi jonsiz, o'lik dog', kelajaksiz sukunat kabi ta'sir ko'rsatadi. Oq va qoraning teng kuchliligida kul rang paydo bo'ladi, tabiiyki, kul rang hech qanday harakatni ham, tovushni ham bera olmaydi.

Kul rang – tovushsiz va harakatsizdir, biroq bu harakatsizlik ikkita faol rangdan – sariq va ko'k ranglardan paydo bo'lgan yashil rangdagiga nisbatan boshqacha xarakterga ega. Shuning uchun kul rang ton – bu taskin topmagan, hasratli harakatsizlikdir.

Qizil rangni issiq rang xarakteriga ega sifatida qabul qilamiz, hayotiy, jonli, notinch, tinib-tinchimas, biroq sariqdagi engiltaklikka ega bo'lmagan

rang sifatida ichki ta'sir ko'rsatuvchidir. Sariqdan farqli ravishda, qizil rang xuddi o'z ichida alanganadi. Biroq ideal tarzda qizil rang ranglar o'zgarganda o'z ta'sirini juda kuchli o'zgartiradi. Qizil rangga qorani qo'shganda no'noq, qo'pol, qattiq, harakatlana olmaydigan jigar rang yuzaga keladi. Qizilning nisbatan sovuqroq tuslarida olovning faolligi yo'qolib ketadi. To'q sariq bo'lgach qizil rang sariq nurlar socha boshlaydi, lekin doimo jiddiylikni saqlab qoladi.

Binafsha rang – bu xuddi sovgan qizil kabidir, shuning uchun u qandaydir so'ngan va qayg'uli kabi birmuncha xasta (og'ir) jaranglaydi.

Inson o'ziga ma'qul ko'ruvchi (yaxshi ko'rgan) rangini tanlab olishi uning xarakteri bilan aniqlanadi va, shuningdek, ijtimoiy omillarga ham bog'liq bo'ladi.

Sisiologik tadqiqotlar asosida afzallikning (ma'qul ko'rishning) kamayib borishiga qarab (ko'ra), quyidagi qator ranglarga ega bo'lindi:

Moviy – binafsha – oq pushti – qirmizi (yoki to'q qizil – purpur) – qizil – yashil – sariq – to'q sariq – jigar rang – qora.

Rangning xarakteri va ifodaliligi (jonliligi) turli xil assosiasiyalarga bog'liq tarzda o'zgarishi mumkin. Har birimiz u yoki bu rangning odatiy tarzda ko'rinib turadigan shu rangdagi predmetlarning xarakteri bilan emosional xarakteristikasini tushuntirib berishga urinib ko'ramiz. Bu har bir odamning o'ta individual xususiyati bo'lib, uning o'zidagi tajribaga bog'liq. Bu erda qandaydir qonun-qoidalarni o'rnatish o'ta qiyin bo'lsa ham, biroq ma'lum bir ehtimolliklar darajasida taxmin qilish mumkinki, qizil rang – olov va qon bilan assosiasiyalanadi, sariq – quyosh bilan, ko'k – osmon, suv bilan, yashil – o'rmon, maysazor bilan assosiasiyalanadi. Va, nihoyat, ranglarni eshitish tushunchasi mavjud bo'ladi, ya'ni har bir rangga musiqiy nota qiyoslanadi (to'g'ri keladi). Bu hodisani muayyan rang uchun aniq tarzda ifodalab berish mumkin emas, lekin yorqin-sariq rangdan hosil bo'luvchi taassurotlarni royalning basli klavishlaridan izlaydigan birorta ham odam topilmasligi aniq.

### 35. Ranglar simvolikasi

Ranglar simvolikasi psixikaning ob'ektiv xususiyatlariga, kamdan-kam hollarda sodda bo'lishi mumkin bo'lgan barcha assosiasiyalarga tayanadi:

yashil – bahor, uyg'onish, umid

ko'k – osmon, tozalik

qizil – olov, qon

sariq – quyosh, hayot

qora – zulmat, qo'rquv, noaniqlik, o'lim

Bunday vajlarning asosida kundalik hayotdagi odatiy tajriba yotadi, u afsonaviy, diniy va estetik dunyoqarashlar bilan to'ldiriladi. Odatda, ko'k rang tafakkurni (fikrlashni), sariq – ichki hissiyotni (intuisiyani), qizil – to'lqinlanishni, yashil – idrok etish funksiyasini bildiradi. Biroq shunday ham bo'ladiki, aynan bir rangda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ma'nolar mujassamlashadi. Masalan, sariq – ayollik nazokati va xiyonat. Boshqa bir tomondan esa aynan bir abstrakt tushunchaga turlicha ranglar mos keladi.

Onalik – sevgisi – oq, xudoga nisbatan sevgi – ko'k, o'ziga nisbatan sevgi (yoki o'zini yaxshi ko'rish) – sariq, yaxshi ko'rganiga nisbatan sevgi – qizil, do'stga nisbatan sevgi – yashil, seks – qora.

Qizil	ko'k	yashil	qora	Sariq, oltin	Oq, kumush	Purpur (to'q qizil)
<b>yoqut, qizil la'l (rubin)</b>	<b>Ko'k yoqut (safir)</b>	<b>Zumrad (izumrud)</b>	<b>Olmos (almaz)</b>	<b>Yaltiroq topaz</b>	<b>Marvarid (jemchug)</b>	<b>Safsar (ametist)</b>
huquq, kuch, mardlik, sevgi, dovyuraklik	sharaf, nomus, sodiq, samimiylik	erkinlik, shodonlik, umid, sog'liq	barqarorlik, kamtarinlik, o'lim, aza, huzur- halovat	ustunlik, ulug'vorlik, hurmat, dabdaba, boylik	soflik, poklik, donishmandlik, xotirjamlik	aslzodalik, hokimiyat, ustunlik, qadr-qimmat, ulug'vorlik

Buni maksimal darajada to'yingan ranglar to'g'risida aytish mumkin, binobarin, ranglar o'zgarganda uning simvolikasi ham almashadi, masalan,

qizil – faollik ehtiros – oq rang qoʻshilganda pushti boʻladi, bu esa noziklikni, yumshoqlik va mayinlikni, nafislik va latofatni simvallashtiradi. Qora qoʻshilganda toʻq qizil paydo boʻladi, u esa ahloqsizlik (amoral) ramziy maʼnoga ega. Eng tantanali, ulugʻvor moslik – bu oq, qizil va oltin rangdir. Geraldikadagi ranglar ahamiyati doimiy va kanonlashgan boʻladi. Quyidagi jadvalda berilgan ranglarga mos keluvchi metallar va yuvelar, shuningdek, simvolik belgilari (ahamiyatlari) keltirilgan boʻlib, ularga koʻra geraldika mos yoki tegishli ranglarni yasaydi.

### ***36. Kishining individual va jamoatchilik ishlarida rang***

Har bir kishining va umuman jamoatchilikning hayoti va faoliyatida rangning roli juda katta, masalan: ishlab chiqarishda, sanoatda, transportda, sanʼatda, zamonaviy axborot uzatish texnikasida va h.k.


Turmushda va ishlab chiqarishda ranglar va ularning mos xillari axloq, feʼl-atvor va muomala qoidalaridagi butun tushunchalarning oʻrnini almashtiruvchi ramzlar sifatida foydalaniladi. U yoki bu rangning ogoh etuvchi chiroqlari transport magistrallarida harakatlanishga ruhsat beradi yoki taqiqlaydi, ogohlantiradi, eʼtiborni talab etadi. Sanoatda va boshqa jamoatchilik faoliyatlarida ranglar ramzlar sifatida turli xil moddalar yoki haroratga ega uzatgichlarni, turli xil jeton, nishon va medallarni, axborot kartalarini, bank hujjatlarini, pul belgilarini, maxsus kiyimlar va h.k.k larni belgilash, markalash (yoki tamgʻalash) uchun qoʻllaniladi. Rang sanoatda va turmushda ishlab chiqarish va maishiy qulayliklarning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Maʼlum bir ranglar birlashmasining (birligining) – ranglar uygʻunligining psixologik taʼsirini oʻrganish ranglar estetikasining predmetini tashkil etadi. Ranglar uygʻunligi sanoatda ham, mehnat samaradorligini oshirish va ishchi-xodimlarning toliqishini kamaytirish, shuningdek, faol va toʻlaqonliroq dam olishga koʻmaklashuvchi maishiy turmush qulayliklarini taʼminlovchi psixologik aksentlar uchun (yoki alohida urgʻu berish, eʼtibor qaratish uchun) ishlab chiqarish jarayonlarini tashkillashtirishda ham keng foydalaniladi.



Ob'ektlarni o'xshashliklari bo'yicha idrok etishning ob'ektiv ko'rishga oid-psixologik fakt (dalil) mavjud.

Bizning ko'zlarimiz va psixikamiz eng avvalo bunday ob'ektlarni qandaydir sifatlari bo'yicha yoki shakllarining yoki ranglarining o'xshashliklari bo'yicha aniqlab oladi.

Kishiga nafaqat alohida ranglar, balki ranglar xillari, birlashmalari (birkmalari) ham psixologik ta'sir ko'rsatadi. Va bu erda ranglarning fazodagi, kenglikdagi joylashuvi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, qizil rang qo'zg'ovchi, junbishga keltiruvchi, yashil esa tinchlantiruvchi, lekin bir xildagi rang dog'lari bilan yonma-yon joylashganda ular tenglashadi (vazminlashadi) va osoyishta xotirjamlikka erishadi. Aksincha, kompozitsiyaga begona vizual kiritilganda, kontrast ranglarning dinamik rang birliklari, xillanishlari yoki birikishlari yuzaga keladi.




Ranglarning psixologik ta'siri ma'lum bir darajada quyidagilarga ham bog'liq bo'ladi: ranglarning ko'proq yoki kamroq to'yinganligiga, rang dog'larining o'lchamiga va rangning ta'sir etish masofasi va yo'nalishiga. Vertikal tarzda joylashgan rang engil ko'rinadi (idrok etiladi), diagonali – dinamika, gorizontali – bardoshlilik, barqarorlik taassurotini beradi. Ranglar diqqati pastda bo'lsa – kompozitsiya tabiiy va barqaror bo'ladi. Tepada bo'lsa – holatning notabiiyligi, yuqori bosim. Ihtiyoriy (chetki) tomondan bo'lsa – kompozitsiyaning beqarorligi.

“Faol” va “passiv-sust” nomlanishlardan ma'lum bir ranglarning kamroq yoki ko'proq darajada emosional ta'sir etish kuchiga ega ekanligi

kelib chiqadi. To'q sariq va ko'k ranglarni neytrallash uchun sariq rangga nisbatan ko'kni ko'proq olish kerak.




O'ng tomonning tepa qismi burchagidagi faol rang kompozitsiyani faollashtiradi, barcha narsalar o'lchamlari bo'yicha kengayadi. Aksincha, chap qismning pastki burchagidagisi passivlik (sustlik) illyuziyasini va ko'rishga oid siqilishni, orqaga harakatlanishni keltirib chiqaradi.





Aylana shaklida berilgan rang tekislikni kengaytiradi va oldinga qarab harakatlanishni keltirib chiqaradi, agar bu sariq qizil yoki to'q sariq doira

bo'lsa, taassurot yana ham kuchayadi. Sovuq tonlarga bo'yalgan kvadrat, aksincha, botiqlik va siqilganlik taassurotini yaratadi.



Ranglar o'zining oqishligi, to'yinganligi va rang toni bo'yicha bir-biridan qanchalik ko'proq farqlansa, ular bir-biri bilan shunchalik kamroq uyg'unlashadi. Chetki (qirra) kontrast tushunchasi ham mavjud, ya'ni bir tekisda bo'yalgan yuza-sirtning chetki (qirra) qismlari oqishroq bo'lib ko'rinadi yoki agar u ko'proq qoramtir yoki oqish yuza-sirtni chegaralaydigan bo'lsa, qoramtirroq bo'lib ko'rinadi.



Oqish fonda barcha ranglar qoramtirlashadi (quyuqlashadi), qoramtir fonda esa, oqishroqlashadi. Rangning haqiqiy oqishligi (yorug'ligi yoki svetlotasi) faqatgina o'rta oqishlikdagi neytral fonda kuzatilishi mumkin bo'ladi. Fonga bog'liq tarzda axromatik ranglar tuyuluvchi rangdorlikka ega bo'ladi. Binobarin, kul rang dog' yashil fonda pushti tusga ega bo'ladi. Xromatik ranglar yuqori to'yingan ranglar qurshovida o'zlarining rang tonlarini birmuncha o'zgartiradi, masalan, sariq rang yashil fonda engilgina (yumshoq, salgina) to'q sariqlashadi (engil oranj tusga kiradi),

qizil esa yashil rang qurshovida – yana ham to'yinganroq bo'lib qoladi. Masalan, qizil rang turli fonlarda. Qizil nuqtalarning sifatlari bir xil, ko'rinishi esa turlicha.

### ***37. Ranglarning davolash xususiyatlari***

Shifokorlar, rassomlar va boshqa tadqiqotchilarning ranglar to'g'risidagi ishlari asosida ranglarning odamga nisbatan davolovchi ta'sir ko'rsatishi bo'yicha taxminiy jadvalni tuzishga urinib ko'ramiz:

**QIZIL RANG** – issiqlik, tetiklashtiruvchi xususiyatga ega; xotirani, ko'rishni mustahkamlaydi.

**TO'Q SARIQ** – quvonch va donolik sifatida yoshartirish ta'sirini ko'rsatadi; kirishuvchanlikni jadallashtiradi, asab va mushak to'qimalarini tiklash ta'sirini ko'rsatadi; ovqat xazm qilinishlarini yaxshilaydi.

**SARIQ RANG** – aqliy qobiliyatni, ko'rishni kuchaytiradi; safro haydash ta'siriga ega; uyqusizlikni davolaydi.

**YASHIL RANG** – planetamizda eng ko'p tarqalgan rang sifatida u bizning energiyamizning barqarorlashuviga olib keladi, tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, yurak faoliyatini me'yorlashtiradi, arterial bosimni barqarorlashtiradi.

**MOVIY RANG** – sovutish va tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, yurak faoliyatini me'yorlashtiradi; ishtaxani susaytiradi, antiseptik ta'sir ko'rsatadi, hiqildoq, uzoqni yaxshi ko'ra olmaslik, revmatizm kasalliklarini davolaydi; intuisiya va ilhomlanishni uyg'otish uchun foydalaniladi.

**KO'K RANG** – antiseptik, bakterisid ta'sirga ega va psixik kasalliklarni (jazavalanish, shizofreniya) davolashda foydalaniladi, sodiqlik va intuisiyani uyg'otishga yordam beradi.

**BINAFSHA RANG** – jismoniy va ruhiy quvvatni moromlashtirishga yordam beradi; ilhomlanish va kamtarinlikni rag'batlantiradi; shamollashga oid kasalliklarning kechishini engillashtiradi.

**OQ RANG** – o'zida spektrning butan (barcha) ranglarini mujassamlagan holda, mustahkamlovchi hisoblanadi; insonning butun quvvat (energiya) tizimini tozalovchi ta'sir ko'rsatadi; u buyuk ijodkorlikni uyg'otishi



mumkin; o'zi bilan birga foydalanilayotgan har qanday rangning ta'sirini kuchaytiradi.

**QORA RANG** – bu ham butun ranglar spektriga ega, lekin ko'pincha sarosimaga olib keladi, biroq uning ta'siri ijobiy (foydali) bo'lib chiqadi; himoyalovchi rang hisoblanadi; o'ta ta'sirchan odamlarni tinchlantirishda foydalanilish mumkin.

**OLTIN RANG** – immun tizimining kuchli stimulyatori hisoblanadi; g'ayrat, zavq-shavq va ishtiyoqni paydo qila oladi.

**KUMUSH RANG** – kishiga o'zidagi ijodiy tasavvurini ochish va qo'llashga yordam beradi.

**JIGAR RANG** – sog'lom fikr va ziyraklikni paydo qilishga; kishini “erga qaytarishga” yordam beradi; u haqiqiylikdan uzilishlik (chalg'ishlik) holatlarida samara beradi.

## **IV. YORUG'LIK VA RANGLARNING INTERER DIZAYNIGA TA'SIRI**

Interer dizayni – funksional va uyg'unlashgan kenglikni yaratish bo'yicha kasbiy (professional), ijodiy harakatdir. Ishga nisbatan mexanik emas, balki ijodiy munosabatni ko'zda tutuvchi insonning har qanday soha faoliyatida shunday bir “ajoyibotni” topa olishni istaymizki, bu quyidagini ko'rsatib bera olsin: ha, haqiqatdan, bu odam va uning uyi ham –ko'p tajribalarga ega bo'lgan ommani dizaynerlik fikr-mulohazalarning eng aqlga to'g'ri kelmaydigan (yoki ishonib bo'lmaydigan) parvozlari (cho'qqilari) bilan hayron qoldirishning iloji yo'qdek bo'lgan, hattoki hozirgi davrimizda ham g'ayriodatiydir (ekstraordinardir).

20 - asr oxirlarida odamlarda tabiatni his asrashni qilish keskin tus ola boshladi.

Qizil kitobga o'simlik va hayvonot dunyosining (flora va faunaning) alohida vakillarini emas, balki endi butunlay tabiatning o'zini ham kiritish vaqti kelib qolganda intererda ekologik uslub haqida gapirib qolindi. Odam tomonidan emas, balki tabiatning o'zi tomonidan yaratilgan dizayn – eko uslub mana nimani qadrlaydi. Ochiqchasiga haqiqiy, natural materiallar, erning, qum va qobiqning issiq qulay (komfort) rang politrasi, oddiy daraxtdan kesib olingan yog'ochga ifodali naqshinkor chiziqlar solingan sodda (yoki oddiy), ixcham va qulaygina qilib yasalgan mebel, dag'alroq-zig'ir tolasidan to'qilgan mato, iplarining notekisligi bilan yaxshi ko'rinuvchi, yo'g'on ipdan siyrak to'qilgan dag'al gazlamali chipta ko'rpacha-to'shak – mana, nimadan tashkil topadi ekologik uslubdagi intererning haqiqiy nafis didli soddaligi. Bunday intererda yashovchi odamlar mehribon, rahmdil va vazminroq bo'lishadi – ular eng oddiy narsalarning go'zalligini ham seza boshlaydilar, chunki o'z tabiatiga ko'ra insonga yaqin, romantik va tajovuzkor emas. Yana aytadigan bo'lsak, ekologik interer samimiylikka ham o'rgatadi: axir, bu erda o'zini biron-bir kuyga soluvchi yoki o'xshatuvchi materiallar va predmetlar yo'q (plastik – toshga, shpon – haqiqiy natural dub draxtiga, yaqin-atrofdagi savdo do'konidan olingan yashikli kiyim-javoncha (komod) – antikvariatga)

aylanadi. Televizor yoki kompyuter esa, buvimizning o'yma naqshinkor sandiqchasi bilan birgalikda bir xonada bexijolatgina turaveradi. Axir, tabiatda doimo shunday bo'lgan: o'tgan, hozirgi va kelgusi narsalar bir-biri bilan juda yaxshi chiqishib kelishgan.

Eko uslub tamoyillari bo'yicha qurilgan uylar keng va yorug' bo'ladi. Bu erda mebellar kam, narsa va uy anjomlari o'zimizning soddagina shkaflarimizga berkitilgan (yoki yashiringan). Mazkur uslub uy egasiga ijod qilishi uchun kattagina bo'sh va keng joy va uyni turli xil buyumlar bilan to'ldirish imkoniyatini hadya qiladi. Aynan zaruriy narsalar bilangina to'yintirish ma'nosidagi to'ldirish – “tiqishtirib tashlash” emas. Intererda hech narsa ikkinchi darajali, ahamiyatsiz bo'lishi mumkin emas. Har qanday element – xoh dekorativ (yoki manzarali) bo'lsin, xoh qurilmaviy (konstruktiv) bo'lsin, o'zicha muhim, asosiysi, u mehr bilan tanlangan bo'lsin. Birinchi qarashda uslub kambag'alroqdek. Biroq bu faqat birinchi qarashda. Ekologik uslub o'zining yaratuvchisidan ushbu bo'shliqqa javob berishi (to'lashi) uchun etarlicha boylikni (va nafaqat ma'naviy boylikni) talab etadi. Ekologik uslubdagi mebel va uy anjomlari, buyumlari (aksessuarlar) asosan mashhur yoki nomi chiqqan dizaynerlik firmalarining mahsulotlari tavsiya etiladigan eng qimmat do'konlarda uchraydi.

### ***38. Uyingizning rangi***

Uyning rang echimi – intererning asosiy elementlaridan biridir. Rang tanloviga ko'p narsalar bog'liq bo'ladi, bundan uyingiz shinam va qulay bo'ladimi yoki, aksincha, “sovuq” va asabni qo'zg'atuvchi bo'ladimi, siz yashayotgan uyning rangidan sizning o'zingizni qanday his qilishingiz, kayfiyatingiz va hattoki shaxsiy hayotingiz ham shunga bog'liq bo'ladi.

Tanlovda adashmaslik uchun ranglar nazariyasining ibtidosini (alifbosini) bilish zarur. Uchta asosiy rangni – qizil, sariq va moviy ranglarni juft-juft qilib aralashtirib uchta yangi ikkilamchi to'q sariq, yashil va binafsha ranglarni hosil qilish mumkin. O'zaro bog'liq, bir-biriga yaqin ranglarni qaytadan aralashtirib 12 ta sektordan iborat bo'lgan asosiy ranglar halqasiga ega bo'lamiz. Biroq hattoki birgina sektor chegarasidagi

rangga oq va qora rangning turli xildagi nisbatlarini qo'shgan holda cheksiz xildagi rang tuslarini berish ham mumkin.

Halqaning barcha 12 ta rangini shartli ravishda 2 ta guruhga ajratish mumkin: issiq (sariqdan to qizil-binafshagacha) va sovuq (binafshadan to sarg'ish-yashilgacha).

Issiq ranglar yaqinlashuvchi deb nomlanadi, ular bilan bo'yalgan yuza- sirt asl holiga qaraganda yaqinga o'xshab qoladi. Mazkur rangga bo'yalgan xona issiq va mehmondo'st bo'lib ko'rinadi, biroq o'lchami bo'yicha kichiklashganday bo'ladi.

Sovuq gammali ranglarni uzoqlashuvchi deyishadi, bunda xona ko'rinishi bo'yicha kengroq bo'lib qoladi. Ranglar halqasi ranglar uyg'unligi va kontrastlikni yaratishga yordam beradi. Bir-biriga qo'shni yoki yaqin bo'lgan ranglar uyg'unlashuvchi (uyg'unlashgan) deyiladi va tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Biroq xonaning haddan tashqari uyg'unlashgan, bir xildagi ranglar echimi monoton va toliqtiruvchi bo'ladi.

Ideal tarzdagi ranglar tizimi – kontrast elementlarning oqilona qo'shilishidan iborat bo'lgan uyg'unlashgan asos. Sir emaski? uyingizning ranglar dizayni kayfiyatingiz va ish qobiliyatingizga muhim ta'sir ko'rsatadi. Bitta xonaning o'zida, uning rangdorligidan kelib chiqqan holda, shinamlik yoki noqulaylik (diskomfort) hissini (yoki holatni) sezish mumkin. Shuning uchun ranglar echimi xonaning mo'ljallangan maqsadiga ko'ra o'zgarishi, o'zgartirilishi mumkin va zarurdir.

**Bu holatlarni eng ko'p tarqalgan ranglar misolida qarab chiqamiz:**

**Qizil.** Qizil rangning quvvati tanani junbuishga keltiradi, uning mavjud bo'lishini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi, organizmning ichki resurslarini oshiradi. Qiziq bir narsa borki, xalq tabobatida nimjon go'daklarni rangning hayotbahsh, jonlantiruvchi quvvatiga to'yinsin uchun ularni qizil rangli choyshablarga yo'rgaklashgan (o'rashgan). Kishiga optimizm va o'ziga ishonch etishmayotgan bo'lsa, qizil rang bilan davolanishi mumkin – mayli, bu uyingizda tez-tez ko'zga tushib turadigan qandaydir mayda narsa bo'lsa ham bo'laveradi. Qizil rang – issiqlik va



foydali, qulay interer hissini yaratib beruvchi faol rang hisoblanadi. SHu bilan bir vaqtda, qizil tonlarda o'z echimini topgan xona kichikroq va pastroq ko'rinadi. Bu rangni yaxshisi oilaning eng faol hayot tarzi kechadigan – mehmonxona, qabul kabinetlari, xol, oshxonalar va shu kabi boshqa xonalarda foydalangan, yotoqxonada esa qo'llamagan ma'qul.

**Moviy rang** – osmonning rangi, orombahsh salqinlik, falak qa'rining, osoyishta va huzur-halovot rangi hisoblanadi. Jismoniy jihatdan ta'sir ko'rsatgan holda u asabni tinchlantiradi, og'riqlarni oladi, tana haroratini pasaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Ko'k rang–zangori rangga o'xshash xususiyatlarga ega, biroq uning intensivligi yuqori bo'lar ekan, uning odamga ko'rsatadigan ta'siri ham kuchliroq bo'ladi. Bu ongning, chuqurlikning, ichki hayot manbaining ramzidir, osoyishtalik va hotirjamlik ranggi hisoblanadi. Ko'k rang his-tuyg'uning (emosionallikning) namoyon bo'lishini kamaytiradi, shuning uchun ish bo'yicha (ishbilarmonlik) muzokaralarni yaxshisi, ko'k rangli kostyum kiyib olib borgan ma'qul.

**Och-moviy rangli** shiftlar xonani vizual jihatdan baland va kengroq qiladi. Ko'k rang tusalari unchalik katta bo'lmagan xonalar uchun ayniqsa yaxshi. Intererda ko'k rangning ishtirok etishi doimo xonaga did va ulug'vorlik bag'ishlaydi. Zangori yoki moviy rangni yaxshisi yotoqxonada foydalangan ma'qul – moviy rangli ko'rpa-to'shak, choyshablar, kechki kiyim yoki pijama kishini uyquga tayyorlaydi. Yorqin bo'lmagan moviy rang jizzaki, qiziqqon va o'zini tuta olmaydiganlarga to'g'ri keladi.

**Sariq rang** – issiqlik va yorug'lik rangi, u kishining intellektual qobiliyatini jadallashtiradi. Jismoniy jihatdan organizmni tozalashga, safro ajaratib chiqarishga ko'maklashadi. Umuman olganda, sariq rang salbiy hisslarning antipodi hisoblanadi. Boshqalar sizni yoqtirishmaydi, tushunishmaydi deb hisoblasangiz va ichki qaramlik hissi qiynab kelayotgan bo'lsa, sariq rangdan foydalaning.

**To'q sariq rang** (sariq va qizil ranglarning 50/50 nisbatdagi aralashmasi) yangicha g'oyalarni qiyinchilik bilan qabul qiluvchilar, depressiya va pessimizm holatiga tez-tez tushib turuvchilar, murakkab vaziyatlarda chiqib ketish yo'llarini ko'ra olmaydiganlar uchun yaxshi naf

keltiradi. Ko'pincha kishining faqatgina shaxsiy tasavvurlarining mevasi bo'lib hisoblansa ham, bu rang unga chegaralarni engib o'tish uchun o'zini etarlicha erkin his qilishiga yordam beradi.

**Sariq va to'q sariq rang** – bu o'ta to'yingan va intensiv rang, shuning uchun ham toza, sof holda deyarli hechham qo'llanilmaydi. Mazkur ranglarni yaxshisi ozgina binafsha tonlarni qo'shgan holda, oq bo'yoq bilan birmuncha pasaytirgan ma'qul. Mazkur ranglarning har qanday birikmalari bolalar xonalariga yaxshi ketadi.

**Yashil rang** – sariq va ko'k ranglar aralashmasidir. Yashil rang organik hayotning rivojlanish jarayoni bilan bog'liq va o'sish, harakatlanish ramzi hisoblanadi. Ko'z unga ayniqsa ko'nikuvchan, ko'rishga oid zo'riqtirmaydi, haddan tashqari faollik yoki, aksincha, kuchning pasayib ketishini keltirib chiqarmaydi va ko'pincha xonalarga pardozi berishda foydalaniladi. Biroq u sovuq rang hisoblangani uchun, quyoshli xona devorida yaxshi ko'rinadi. Yorqin-yashil rangni maydachuydalarda ham foydalanish mumkin, agarki siz beparvolikni, kimningdir sevgisini keltirib chiqarolmaslikni va uni kimgadir bag'ishlay olmaslikni his etsangiz bu rangdan foydalanish yaxshi naf keltiradi. Yashil rang bilan stimulyasiyalash orqali kishida samimiylilikni rivojlantirish mumkin.

**Binafsha rang** kishining ruhiy holatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. U tufayli chuqur qo'rquvlardan qutilish mumkin va o'zingdagi ong, aql-idrok va his-tuyg'ularingdan yaratuvchilik kuchini hosil qilishni o'rganib olasan. U kamtarinlik va qadr-qimmat, quvonch va tinchlanish nurlarini sochadi. Biroq intererlarda uni faqatgina issiq "hayotiy" rang tuslari bilan (masalan, sariq va to'q sariq) birlikda yoki aralashtirilgan holda (oqish, siren rangida) foydalangan ma'qul.

**Qora va oq.** Ko'pincha biz kiyimlarda oq va qora tonlarni foydalanamiz. Oq ton – aks ettiruvchi, qora – qabul qiluvchi, yutuvchi (qora tuynuk). Oq ton – faollik, qora – qabul qiluvchi sustlik (passivlik). Masalan, ochiq, quvnoq odamlar oqish tonli kiyimlarni ma'qul ko'rishadi, odamovi, sir bermaydigan (va yashirin, o'zini qandaydir qusurga ega odam deb hisoblovchi) odamlar qora kiyim kiyishadi. Qiziqki, qora ton xalq



tabobatida uyqusizlikni davolash uchun foydalaniladi: devorlarga eng qora devoriy gulqog'ozlar yopishtirilgan, derazalarga og'ir qalin qora pardalar osilgan, choyshablar, paryostiqlar va ko'ylaklar ham qalin qora matodan tikilgan. Aytishlaricha, bu uslub hayron qolarli natijalar bergan – hattoki bir necha oylab uxlamaganlar ham uxlashgan.

**O'z xonalarigizning ranglar echimini to'g'ri tanlashga yordam beruvchi bir nechta amaliy maslahatlar:**

1. devorlari oqish rangli xona keng va baland ko'rinadi;
2. qora kontrastli devorlar xonani vizual tarzda toraytiradi;
3. agar xonaning shifti devorga nisbatan oqishroq bo'yalagan bo'lsa, shift baland ko'rinadi, agar qoraroq bo'lsa, past ko'rinadi;
4. vertikal elementli naqshlardan iborat bo'lgan gulqog'ozlar xonani yana ham balandroq ko'rsatadi;
5. umumiy rang gammasi bilan kontrastlashuvchi yostiqlar, deraza pardasi, abajurlar va boshqa shu kabi matolar xonaga zaruriy turli xillikni bag'ishlagan holda, uni jonlantirishi mumkin;
6. bolalar xonalariga, yaxshisi, yorqin kontrastli ranglarni, oilaning yoshi katta a'zolariga esa – tinchlantiruvchi, xotirjam pastel tonlardan foydalanilgan ma'qul.



**Bino va xonalarga pardozi berish uchun ishlatiladigan bo'yoq ranglari birikmalarining variantlari Uylar fasadlari ranglarning rang doirasi va Binolarga pardozi (rang) berishda ishlatiladigan bo'yoq ranglari birikmalarining namunalari:**



**Rang tuslarining idrok etilishi (qabul qilinishi) bo'yicha nomlanishi:**  
1 – oqish, issiq; 2 – serg'ayrat, dinamik; 3 – tetiklashtiruvchi; 4 – nafis; 5–  
salqin; 6–tinchlantiruvchi; 7–har kunlik, kundalik; 8–toza, sof.



### ***39. Landshaftli loyihalashtirishda yorug'lik va rangning roli***

Har qanday landshaftning loyihalashtirilishi aniq shakllantirilgan (keltirilgan) ichki g'oyaga bo'ysungan bo'lishi zarur. Havo perspektivasi qonunlari landshaft dizayni uchun katta ahamiyatga ega. Predmet kuzatuvchidan qanchalik uzoqroqda joylashgan bo'lsa, uning ranglari va tashqi ko'rinish qirralari shunchalik muloyimlashib (noaniqlashib) boradi. Aytaylik, ko'rinish qirralari yumshoq yoki engilgina sarg'ish va ko'kish tusli yaproqlar va nina barglardan iborat bo'lgan daraxt-butazor o'simliklarni kuzatuvchidan anchagina uzoqroq tarzda foydalanilsa, peyzajning uzoqda ekanligini bildiruvchi taassurotni yana ham kuchaytiradi. Kumush rang, xilma-xil rangli barglar va oqish tusli barglardan iborat daraxt va ko'chatlarning oldingi planda joylashuvi ularni kuzatuvchiga nisbatan optik jihatdan yaqinlashtiradi.



Landshaft dizaynida yoritilganlik, yorug'lik va soya kontrasti, rang gammasi bo'yicha ma'lumotlar o'ta muhim ahamiyatga ega, biroq ularning

peyzaj stilidagi roli, ayniqsa, muhimdir, aynan u tashrif buyuruvchilarni tabiatning kunlik va yil mavsumlaridagi ranglari va yorug'lik shakllarining doimiy tarzda almashinib turishi bilan qiziqtirib qo'yadi. Yorug'-soya yordamida o'simliklar guruhleri va arxitektura inshootlarining ifodaliligini, hajmdorligini alohida ko'rsatib berish mumkin bo'ladi. Bunda yorug'likning tomonlar bo'yicha, quyosh nurlarining kuning turli vaqtlaridagi yo'nalishi va yorug'lik kuchini hisobga olish lozim. Yon tomon yorug'ligi o'simliklar fakturasi va arxitektura inshootlarini ko'proq kontrastli tarzda yoritib ko'rsatadi, chunki bunda peyzajlarning yoritilishidagi eng qulay shart-sharoit – bu quyosh nurlarining tushish burchagi hisoblanadi va bu  $15-45^{\circ}$  ni tashkil etadi.

Yorug'likni – tonggi, kunduzgi va kechki yorug'likka ajratishadi. Tonggi yorug'lik ta'sirchanroq (effektliroq) bo'ladi, soyalar yorqin va aniq bo'ladi, predmetlar shaklining barcha xususiyatlarini soya ko'proq darajada yaqqol ifodalab beradi. Shuning uchun tonggi nurlar yorug'ligining effektidan foydalanish uchun landshaftning asosiy qismlarini kuzatish nuqtasidan shimolga, janubga, g'arbga qarab joylashtirish zarur. Kunduzgi yorug'lik haddan ziyod yorqin, unda shakllar oltindek yarqiroqlashadi va aniq o'qilmay qoladi. Shuning uchun sharhlanayotgan peyzajlar janubiy va janubi-g'arbiy yo'nalishlarda joylashmasligi zarur. Kechki yorug'lik uchun mo'ljallangan landshaft ob'ektlarini kuzatuvchidan janubga va sharqqa qarab loyihalashtirish lozim.

Rang gammasi 130 dan ortiq rang tuslarini o'z ichiga oladi, peyzajlarning umumiy koloriti esa, yiliga kamida 9 marta almashinadi. Landshaft koloristligini tuzishda (yaratishda) nafaqat rangga nisbatan umumiy yondashuv muhim, balki detallarning o'ylab qo'yilganligi ham baravar muhimlik kasb etadi. Landshaft dizayni uchun ranglarning odam organizmiga nisbatan ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, qizil, to'q sariq, sariq, pushti, to'q qizil (purpur) ranglar qo'zg'atuvchi, junbuishga keltiruvchi hisoblanadi va tetiklik, quvnoq va xushchaqchaq kayfiyatni paydo qiladi. Aksincha, binafsha, ko'k, yashil ranglar

tinchlantiruvchi ta'sirga ega, pulsning sekinlashishi va arterial bosimning pasayishiga ko'maklashadi.



Landshaft dizayneri uchun asosiy va o'ta muhim narsa ranglar birligi ranglar uyg'unligi tamoyillari asosida tuzilishidir: kontrast asosida yoki bir rang tuslarining birligi kabi. Muhimi, ortiqcha ola-bulalik (xilma-xillik yoki olachiporlik), xaos yoki ranglarning haddan ziyod to'yinganligi kabi taassurot paydo bo'lmasligi lozim.

Kontrast, hayotiy xushchaqchaqlik va koloritlar birligi asosiy va ularga qarama-qarshi bo'lgan qo'shimcha ranglarning juftlikda taqqoslanishida (qiyoslanishida) paydo bo'ladi: qizil – yashil, to'q sariq – ko'k, binafsha – sariq.

Biroq ranglardan bir miqdorda foydalanmaslik kerak. Ular bir-biriga teng yoki baravar kenglikdagi maydonni egallamasligi zarur, aks holda bu optik muvozanatning buzilishiga olib keladi.

Rang va yorug'lik landshaftda bir-biri bilan chambarchas o'zaro bog'liqlikda bo'ladi. Qizil rang yorqin kunduzgi yorug'likda oldinga chiqadi, yaqinlasha boshlaydi; g'ira-g'ira qorong'ulikda – fon bo'lib xizmat qiladi va uzoqlik (chuqurlik) taassurotini paydo qiladi. Sariq rang



yuza-sirtini yuqorilatib ko'tarib ko'rsatadi. U kengroq, bepoyon yoki keng ko'lamliga o'xshab ko'rinadi. Oq va sariq o'zining yaqin-atrofida yotgan qoramtirroq ranglarga ta'sir ko'rsatadi. Moviy rang esa kunduzgi yorug'likda predmetni uzoqlashtirib yo'qota boshlaydi, shuning uchun undan ko'pincha kichik uchastkalarni optik kengaytirish uchun foydalaniladi. G'ira-shira yorug'likda to'q-ko'k, binafsha va qora ranglar hajmni kichiklashtiradi. Yashil rang eng tinch rang hisoblanadi. U boshqa ranglarni tenglashtirib muvozanatlashtiradi. Masalan, gazon (dekorativ maysazor) haddan ziyod yorqin, serhasham hoshiya (bordiyur) hisoblanadi. Biroq yashil rangli, keng ko'lamli, bepoyon kenglikda gohida odam o'zini noqulay (nokomfort) seza boshlaydi va atrofga qarab qandaydir rang elementini qidirib topishga harakat qiladi (urinadi). Xozirgi paytda landshaft dizaynda monoxrom bog'lar rasm (odat) bo'lgan, unda yashil rang ko'proq (ustunroq) bo'ladi.



Buyuk Britaniyadagi qadimgi botanika bog'laridan biri



## V. ARXITEKTURAVIY YORUG'LIK

Arxitekturaviy yorug'lik hajmiy-keng ko'lamli (fazoviy) kompozisiyaning ifodaliligini ta'minlab berishi va binolarning badiiy xususiyatlarini alohida ko'rsatib turishi zarur. Arxitektura yorug'ligida uning o'zi joylashgan fasad va fon yorug'ligining kontrastini hisobga olish zarur.

Arxitekturaviy yorug'lik tungi shaharning ifodali qiyofasini yaratish uchun zarur bo'ladi. Bunda binoning o'ziga hos xususiyatlarini hisobga olish muhim – balandligini, stilini, fasadlarining faktura va rangini, shuningdek, ushbu xarakteristikalariga mos holda yoritish uskunalarini tanlab olish lozim. Arxitekturaviy yorug'likning eng muhim omillari yorug'lik manbaining quvvatidan, yorug'lik oqimining balandligi va kengligi, lampa-chiroqning rangdorligidan (muayyan rangga egaligi) iborat.

Yorug'lik texnikasi bugungi kunimizda – zamonaviy kishining yashash muhitini funksional tashkillashtirishning muhim komponenti hisoblanadi. Maydon va ko'chalarning arxitekturaviy yoritilishining to'g'ri loyihalashtirilishi – bu kunning qorong'u paytlarida odamlar uchun nafaqat qulaylik va havfsizlikdir, balki shahar muhitining estetik ko'rinishining turli xil jihatlarini modellashtirishga imkon beruvchi arxitektorning qo'lidagi kuchli yarog' hamdir.

Dunyoda arxitekturaviy-badiiy yoritishga taqlid qilish (yoki o'xshatish) uchun namuna sifatida yirik megapolis va poytaxtlar xizmat qilishi mumkin – Nyu-York, London, Rim, Parij. Bu borada millionlab turistlar ushbu shaharlarning kechki (oqshom) vaqtidagi arxitekturaviy durdona shedevidan bahra olib zavqlanishlari mumkin – tarixiy yodgorlik va haykallar, kamalakning barcha ranglarini o'zida mujassamlab quyilayotgan favvoralar, osmono'par binolarning yonayotgan chiroqlari va h.k. shular jumlasidandir.

**Shanxay** osmoni uzra balandligi 200 metrdan ortiq 18 ta bino qad ko'targan, bular qatoriga shahar markazidagi balandligi **468 metrli** SHarq durdonasi deb nomlangan – Osiyodagi eng baland teleminora ham kiradi.



Arxitekturaning estetik sifatlarini idrok etish va baholash jarayonida yorug'likning ahamiyatini baholay olish qiyin kechadi. Yorug' kun davomida binoning vizual tuzilmasi to'g'ridan-to'g'ri yoki tarqoq holda tushuvchi quyosh yorug'ligining yo'nalishi bilan aniqlanadi. Buning natijasini arxitektura inshooti hajmining plastik dinamikasini alohida qayd etuvchi va uzluksiz tarzda namoyon bo'luvchi yorug'lik va soya o'yinida ko'rish mumkin. Tabiiy yorug'lik hodisalarining chuqur tahlili va arxitektor g'oyasining chuqur tushunib etilganligi, to'g'ri loyihalashtirilgan yoritish tizimi – yorug'likning alohida xususiyatlariga

to'g'ri baho berish uchun qurilmaning eng ahamiyatli elementlarini aniqlab olishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, hatto shahar arxitekturaviy asosining (yoki negizining) ko'rinish darajasi chegaralangan ko'rinish sharoitida (yoki holatida) bo'lsa ham, arxitektura ob'ektlarining tungi paytdagi yorug'ligi (yoki yoritilishi) ularning eksponirlanish (ko'rgazmalilik) davomiyligini oshiradi. Shunday qilib, sun'iy yorug'lik – shahar muhiti vizual tuzilmasining yangicha estetik ahamiyatga ega bo'lgan komponentini faol tarzda shakllantirib beradi.

Hech kimga sir emaski, yorug'lik qanchalik ko'p bo'lsa, odam shunchalik oson yo'nalish oladi va ko'rishga oid zo'riqish ham kam bo'ladi, bu esa o'z navbatida asab zo'riqishini bartaraf etadi va o'z maqsad va vazifalariga fikr jamlashga yordam beradi. Biroq yorug'lik boshqa masalalarni ham hal qila oladi. Masalan, e'tiborni jalb qilish.

Ishbilarmonlik binolari – banklar, yirik kompaniya ofislari, tijorat markazlari, davlat ahamiyatiga molik bo'lgan binolar kunduz kunlari o'zining nostandart ko'rinishlari va fasadining boy bezak va sayqallari bilan ajralib turadi. Qorong'u paytlarda esa, ularning ajoyib shakllarini namoyon qilgan holda, ularni yoritishning o'zi etarli bo'ladi. Faqat buni yaxshiroq amalga oshirish kerak, ko'pincha, odat tusiga aylanib qolingandek, faqatgina asosiy kirish eshigini emas, balki butun fasadni yoritish kerak. Agarki kirish joyini umumiy fondan ajratib ko'rsatish istagi bo'lsa, u holda marhamat – unga boshqa rang berib “to'ldirish” mumkin.

SHunday qilib, zamonaviy shahar yorug'ligi – kishi o'ziga shaxsiy imidj yaratish va mijozlarni jalb qilish uchun asosiy instrumentlardan biri hisoblanadi.

Inshootning ifodali badiiy – arxitekturaviy qiyofasini yaratish uchun yoritish tizimini ishlab chiqishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

- yoritilayotgan ob'ektning tipi va maqsadini;
- ob'ektning shahar ansamblidagi joylashuvi va rolini;
- ob'ektning kompozision xususiyatlarini –o'lchamlari, tuzilmasi, arxitekturaviy stili, plastikaning xarakterini, shuningdek qoplama va qurilish materiallarining fakturasi va rangini;
- ob'ektning kuzatilishi mumkin bo'lgan yo'nalish va masofani.

Har bir shaharga o'zining mustahkam, barqaror assosiasiyalar qatori taalluqlidir (yoki xos) – ularning orasida asosiy o'rin egallaydigan narsa – bu yorug'lik-ranglar va arxitekturaviy “belgilar”dir, ya'ni bu “shaharning

yorug'likka oid portretidir". Dunyoda o'zini bildirib, tanitib turuvchi yorug'likka oid portretiga ega bo'lgan etarlicha ko'p shaharlar mavjud, masalan, Nyu-York, Gonkong, Shanxay, Singapur shular jumlasidandir.

**Nyu-York**, uning skaylayni o'zining betakror rang-barangligi bilan ajralib turadi, u bunga turli xil arxitekturaviy uslublardagi (stillardagi) va yorug'likdagi ko'p sonli binolari tufayli erishgan. Gollivud esa, uni yana ham va dunyodagi eng tanilib turuvchi skaylaynga aylantirdi.



**Gonkong** – axir, dunyodagi 15 ta eng baland binolardan 4 tasi shu erda joylashgan. SHaharda “200 metrdan” yuqori bo'lgan jami 39 ta qurilish inshooti mavjud, ular o'zining turli xil yorug'ligi bilan ajralib turadi.





Yana bitta ajoyib “oroldagi shahar” – **Singapur** dunyoning eng\_toza poytaxtlaridan biri hisoblanadi va, bundan tashqari, o’zining qiziqarli tarzda joylashuvi (planirovkasi) va binolarning yoritilishi bilan ajralib turadi.



Hitoy shahri – **Shanxaychi**? U shaharga emas, balki qandaydir\_kosmik kemaga ko’proq o’xshab ketadi.



Yuqorida aytib o'tganlarimizni tahlil qilgan holda binolarning asosiy tipini va ularning arxitekturaviy rangdorligini, shuningdek, arxitekturasining shakl hosil qilish jihatlarini ajratib olishimiz mumkin. Kenglikni (fazoni) modellashtirishda kuchli yarog' bo'la olishi mumkin bo'lgan yorug'lik binoning arxitekturaviy qiyofasini o'zgartirishga qodir.

1. Murakkab arxitektura plastikasiga ega bo'lgan ob'ektlar.
2. Zamonaviy arxitektura ob'ektlari.
3. Ibodatxonaga oid arxitektura ob'ektlari.

**Birinchi guruh** bir nechta arxitektura uslublarini birlashtiradi: klassisizm, barokko, gotika, ampir, eklektika, renessans. Mazkur uslublar uchun klassik orderlar, bareleflar, haykallar, kolonnalar, lepninalar, portik (katta binoga tutashtirib solingan kolonnali peshayvon), antablementlarning (shiftning bevosita ustunlarga tayangan bezakli qismlari) mavjudligi xarakterli hisoblanadi. Mazkur holatda tamoman maqbul va to'g'ri yo'l – binolarni kunduzgi yorug'likka o'xshatib (imitatsiya qilgan holda) quyilib kirib keluvchi yorug'lik bilan yoritishdir, chunki ularning har birining obrazi ancha ilgari shakllangan va jamoatchilik ongida mavjud bo'lib ulgurgan. Plandagi barcha dumaloq ob'ektlarni yaxshisi turli xil yorug'lik oqimlari bilan chetlari, qirralari va



markazi bo'yicha yoritilgani yaxshi. Bu narsa binoning yassi yoki tekis ko'rinish taassurotini bermasligi va, aksincha, o'zining kunduzgi hajmini imitatsiyalashi uchun zarur. Kolonnalarga ega bo'lgan ob'ektlarda ma'lum bir ritmni yaratish uchun kolonnalar ortidagi kenglikni bir maromda yorishtirib borish lozim. Markaziy fasadni, detallari bilan qo'shib, etarlicha yorqin yorug'lik bilan yoritish kerak, bu kolonnalar ortidagi kenglikning asosi bo'lib (chiqib) qolmasligi uchun zarur. Shuningdek, bir ob'ektda qo'llanilgan yorug'lik manbai tiplarining aralashib ketishiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak, aks holda bu yorug'lik disbalansiga (ya'ni yorug'lik muvozanatining buzilishiga) olib kelishi mumkin.



**Ikkinchi guruhga** modernizm, postmodernizm, dekonstruktivizm va konstruktivizm vakillari kiritiladi. Mazkur guruhga xay-tek uslubini ham kiritish mumkin. Ular uchun xarakterli bo'lgan narsa – tekisliklarning yirik masshtabliligi, burchakliligi, tekislikning hajm ustidan ustun kelishi, arxitektura va texnologiyalarning mosligi va birligidir. Kunning qorong'u paytlarida atrof-muhit mutlaqo o'zgaradi – kunduzgi kunning butun yorug'lik modelirovkasini yaratib beruvchi, osmonning tabiiy yorug'ligi yo'q. Kechasi ko'zlarimiz mutlaqo boshqacha rejimda ishlay boshlaydi: kenglikni, hajmni, rangni, detallarni, harakatlarni o'zgacha idrok etadi. Nima uchun qorong'u kechani, tunni kunduzga aylantirishga urinish kerak? Zamonaviy arxitektura ikkita obrazni – kunduzgi va tungi obrazni hisobga olgan holda yaratilishi zarur. Va ba'zi bir hollarda ushbu obrazlar hech qanday umumiylikka ega bo'lmasligi ham mumkin. Balandliklarni yoritishning asosiy qonun-qoidasi: bino qanchalik baland bo'lsa, uning tepa qismi shunchalik yorqin bo'lishi zarur. Bu ko'proq insonning assosiativ idrok etishi bilan bog'liq – osmon doimo erdan ko'ra yorqinroq. Agarki pastki qism tepasidan yorqin bo'lsa, u holda bino vizual yapasqiroq (yapaloqlashgan) bo'lib ko'rinadi – ya'ni qora tepa qism yorqin pastki qismni bosadi.







**Uchinchi guruh**, ibodatxonalarga oid arxitekturaga ibodatxonalarni, machit, maqbara va mavzoleylarni kiritish mumkin. Ularga xos xarakter – gubzaliligi, minoraliligi, ravoqlilik (arkalilik), yorug’likni aks ettiruvchi (qaytaruvchi) materiallar va mozaikalar bilan bo’yalganligidir. Bunday arxitekturani o’ta nazokat bilan yoritish kerak. Ibodatga oid inshootlarning vazifasi nafaqat uning go’zalligi va nafisligini namoyish etishdan, balki ilohiylikni odamlarga arxitektura vositasida ham his qildirishdan iboratdir. Odatda, bunday taassurot kunning qorong’u paytlarida yorug’lik-rang effektlari tufayli kuchaytirilishi zarur.







Jahon arxitektura inshootlariga qarab yorug'lik va rang nuqtai nazaridan ularning bir qator eng muvaffaqiyatli tarzda shakllantirilganlarini aytib o'tish zarur. Jahonning ulug' Toj-Mahal maqbarasi hisoblanadi, unda suniy yorug'lik ishlatilmagan. Toj-Mahal maqbarasi ochiq joyda joylashgan bo'lib, unga boshqa qurilish inshootlari soya solmaydi. Kun davomida o'z rangini o'zgartirib turadi, sababi u oq marmar bilan qoplanganligidir. Kechki paytlarda esa yoritilmaydi, u tong shafag'i va quyosh botishi bilan tug'ilish va qazoni ramzlashtirib turadi.



Arxitekturaviy yorug'lik usullarining to'g'ri tanlanganligi uning fasadlaridagi turli xil elementlar yorug'ligining, shuningdek, rang dog'larining o'lchami va shakli, nurlanish dinamikasi bo'yicha rasional va to'g'ri nisbatda ishlab chiqilganligidan iboratdir.

**Yorug'lik va rang** – bu ikki ajralmas o'zaro bog'liq toifalar – sabab va natija kabidir. Intererning yorug'lik-ranglar kengligi echimining barcha qoida va usullari arxitektura hajmlariga deyarli to'liq qo'llansa bo'ladi. Binoning hajmi yoritilgan rangli fasadlar bilan chegaralangan, va shuning uchun ham, uni ranglarda bajarganda, uning nima bilan va qanday yoritilganligini hisobga olish zarur. Ranglar kompozitsiyasi vositalarining o'zlari ham rang toni, yorug'ligi, to'yinganligi, tozaligi, fakturaviyligi, har bir rangning alohida psixofiziologik ta'siri va butun bino yorug'likka nisbatan qat'iy, qonuniy bog'liqlikda joylashgan.

Shunday qilib, ranglar va yorug'liklar bog'liqligining asosiy va yana ham umumiyroq qonuniyati kompozision jihatdan juda ham ahamiyatlidir. Mazkur qonuniyatga ko'ra, bir turda (yoki bir xilda) bo'yalgan yuza sirtning rangi va shakli ko'rinish jihatdan tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketishi mumkin.

Yorug'lik rang va ranglar birikmasining idrok etilishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi, shu kabi rang ham yoritilganlikka ta'sir ko'rsatadi. O'zaro ta'sirlangan holda, ular butun ranglar muhitining idrok etilishini (ko'rinishini) birgalikda aniqlab (yoki belgilab) beradi. Bu ta'sir spektral tarkibga, yorug'lik manbaining yorug'ligi va barqarorligiga, uning joylashishi va yorug'lik taqsimlash uslubiga bog'liq bo'ladi.

Arxitekturaviy yorug'lik hajmiy-fazoviy kompozisiyaning ifodaliligini ta'minlab berishi va binoning badiiy xususiyatlarini qat'iy ta'kidlashi zarur. Ko'pincha binoning qadimgi arxitekturasini sifatli yoritish loyihasini amalga oshirish yo'li bilan chiroylashtirish mumkin. Arxitekturani yoritishda uning o'zi joylashgan fasad va fonning yorug'lik kontrastini hisobga olish zarur.

Arxitekturaviy yoritishni turli xil usullarda amalga oshirish mumkin:

- umumiy quyiluvchi yoritish;
- lokal yorug'lik;
- yarqirovchi fasadlar;
- siluetli yorug'lik;
- konturli yorug'lik;
- dinamik rang yorug'ligi.

#### ***40. Arxitekturaviy kompozisiya***

Materialning fakturasi – arxitekturaviy shaklning muhim xususiyati hisoblanadi, yuza-sirtning hajmiy xarakterini akslantiradi, shu bilan bir vaqtda, tekstura (rasm yoki surat) ham materialning chiziqli tarkibini (tuzilmasini) yuza sirtga aks ettiradi (masalan, yog'och teksturasi).

Arxitekturaviy kompozisiyalarda rang – yuza sirtning turli xil spektral xususiyatga ega bo'lgan yorug'likni aks ettirish yoki nurlantirish



xususiyatidir. Uni xarakterlovchi jihatlar – rang toni (tuslari), to'yinganlik (rang yorug'ligining darajasi), oqishlik (yuza sirtning aks ettirish qobiliyati).

Yorug'-soya – shaklning yuza sirlari bo'yicha oqish va qora joylarining taqsimlanishini aniqlab beruvchi xususiyatdir. Soya-yorug' arxitekturaviy shaklning ko'rishga oid idrok etilishini (yoki ko'rinishini) kuchaytiradi yoki engillashtiradi.

Arxitekturaviy shaklning hajmi va fakturasini yorug'likning gorizontga va vertikal tekislikka nisbatan  $45^{\circ}$  burchak ostidagi yo'nalishi ko'proq aniqlab beradi. Arxitekturaviy-fazoviy kompozitsiyalarning tabiiy va sun'iy tarzda yoritilishining roli (hajmiy shakllarda ham, intererda ham) badiiy obrazni yaratishda ayniqsa, muhimdir.

Yorug'likning sifatii xarakteristikalarini bo'lgan – to'g'ri, tarqoq va akslangan yorug'lik binoning orientatsiyasi va tabiiy muhitning holati bilan bog'liqdir. To'g'ri, yorug'lik intererlarga yon tomondan yoki tepadan kirib boruvchi yorug'lik sifatida inshootning janubiy, sharqiy va g'arbiy fasadlarini yoritishi mumkin. U quvnoq kayfiyatni paydo qiladi, biroq ish va o'quv xonalarida ko'zni oladi, qamashtiradi.

Arxitektura inshootlari hajmlarini sun'iy tarzda yoritishdan ko'chalarni, magistrallarni va qator arxitektura yodgorliklarini yoritishda foydalaniladi. Sun'iy yorug'lik intereriga shiplarni yorituvchi yoritish uskunalari va yorug'lik qaytaruvchilarning (yoki akslantiruvchilarning) ajralmas (organik) bo'lagi sifatida tabiiy yoki uzviy tarzda qo'shib oldi. Akslangan yorug'lik intererda shakllarning engilligi illyuziyasini paydo qiladi.

Arxitektorlar binoning uyg'un tarzda kompozitsiyalanishda uch tomonni muvofiqlashtirishga safarbar qilingan: bir tomondan – qulaylik va foydani (funktional vazifa), boshqa tomondan – mustahkamlik va tejamkorlikni (konstruktiv va texnik-iqtisodiy vazifa), uchinchi tomondan – shakllarning go'zalligini (estetik vazifa). Arxitektura inshootlari shakllarining go'zalligi ushbu shakllarning yorug'ligi (yoritilganligi) tufayli shakllanadi. Va nihoyat, oxir-oqibat inson psixologiyasi va fiziologiyasi ham binolarning arxitekturaviy kompozitsiyalariga nisbatan

talablar qo'yadi. Arxitektura insonning yashash, hayot kechirish muhiti hisoblanib, hissiyotlarga ta'sir ko'rsatadi, insonning ongida aks etadi va shu bilan uning ma'naviy dunyosining shakllanishida ishtirok etadi.

O'zbekiston ham dunyoga ajoyib arxitektura namunalarini taqdim etgan qadimgi yuqori madaniyat mamlakati hisoblanadi. O'zbekiston arxitekturasi Islom arxitekturasi, fors va rus arxitekturasi kabi turli xil arxitektura an'analarining ta'siri ostida bo'lib kelgan. O'zbekistonning qadimgi shaharlari Xitoy va G'arb o'rtasidagi savdo yo'li bo'lgan Ipak yo'li hududlarida joylashgan bo'lgan. O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz va Toshkent kabi shaharlari misolida sharqiy go'zallik, ajiblik va sirlilikni o'zida namoyon etib kelgan.

Ohirgi vaqtda Toshkent shahrida har kuni o'sib kelayotg'an me'moriy inshootlar yoritilishiga katta diqqat qaratilgan, ayniqsa estetik jihatdan tungi shahar juda go'zal. Tungi binolarni, musiqiy favvoralarni, yodgorliklarni yoritilib turish bu yorug'lik musiqasini va yorug'lik va ranglar uyg'unligini yaratadi. Bu yilning eng zamonaviy va go'zal sport inshootlaridan biri bo'lib «Bunyodkor» sport maydoni hisoblanadi, qaysiki tungi vaqtda har hil ranglar yorug'ligi o'yinni yaratadi va turli xildagi nafis ranglar bilan tovlanadi.

## Toshkent arxitektura binolarining yoritilganligi namunalari



**«Mustaqillik» maydoni**



**Yoshlar ijodiy saroyi**



**Alisher Navoiy nomli teatr**



**Rangli favvoralar**






**«O'zbekiston» Xalqaro Forumlar Saroyi**



**Egizak kuranlar**



## «Bunyodkor» stadioni



## VI. XULOSA

Barcha yuqorida aytib o'tganlarimizga hulosa qilsak, ko'ramizki, yangicha, "texnika" davrini estetik jihatdan anglab etish bilan nafaqat hayot industriyasi zavqining aks etishi, rangtasvirga ko'pincha organik shakllar ham kiritilayotgan nafaqat geometrik, "mashinalarga oid" shakllarning kirib kelishi bog'liq bo'ladi, balki rangtasvirda zamonaviy kishining dunyoni sezish hissiyotiga, uning (emosional) his-tuyg'u-obrazli ranglar echimiga oid ma'naviy ehtiyojlariga javob beruvchi shakllarni, manzarali (dekorativ) san'atda, arxitektura va sanoatda foydalanilish mumkin bo'lgan yangi shakllarni qidirish ham bog'liqdir.

**O'quv qo'llanmaning vazifasi** arxitektor-dizayner talabalarga estetik savodxonlik asoslarini berish, ulardan badiiy did, his etish va ko'ra olishni tarbiyalashdan iboratdir. O'quv dasturlarida ko'zda tutilgan rangtasvir bo'yicha amaliy mashg'ulotlar talabalarda rangtasviriy va kasbiy mahorat asoslarini hosil qilishga, ularda arxitektura majmualarini loyihalashtirish va ularning ifodaliligini aniqlashtirish bo'yicha ularning estetik to'g'ri yondashuvini shakllantirishga oid dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan. Rangtasvir bo'yicha mashg'ulotlar rang va yorug'lik qonun-qoidalarini idrok etish va ko'rsatib (yoki chiqarib) bera olish madaniyatini tarbiyalash, talabalarda atrof-muhitning ranglar koloriti tushunchasini shakllantirishda eng asosiy kalit hisoblanadi. Olingan bilimlar fazoviy perspektiva qonun va qoidalari asosida ilmiy asoslangan, estetik jihatdan to'g'ri deb topilgan dizaynerlik loyihalarni, binolarni loyihalashtirishda, interer eskizlarini yaratishda yorug'lik va ranglar ta'sirini, mamlakatimiz va hududlarimizning milliy koloritini, yorug'ligi va yoritilganlikning tabiiy shart-sharoitlari va yorug'lik kunining davomiyligini, shuningdek aholining psixologiyasi va milliy o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olgan holda yaratilishida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Qo'llanmada bayon etilgan materiallar rangtasvir bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar asosida, O'zbekiston musavvir-rangtasvirchilarining keksa avlodlari tajribalariga tayangan holda tuzilgan. Shu bilan bir vaqtda, qo'llanmada zamonaviy rangtasvirchilarning yorug'-soyaga oid

qonuniyatlarni o'rganish va o'zlarining badiiy kompozitsiyalarini yaratishda mahalliy rang koloriti va yorug'ligini hisobga olgan holda yondashish metodlari bo'yicha amalga oshirilgan izlanishlariga e'tibor qaratilgan.

**Ishning maqsadi** talabalarni atrof-muhit dunyosidan estetik zavq olishga, bu kabi go'zalliklarni qadrlay olishga va o'rab turgan borliqni natyurmort, portret, peyzaj, figuralar orqali aks ettira olishga o'rgatishdan iboratdir.

**Mazkur tadqiqotning dolzarbligi** – bu zamonaviy dunyoning noodatiy tarzda tez rivojlanib borayotganligi, binolarning zamonaviy loyihalarini konstruksiyalash va ularning interer dizayni sohasidagi olg'a siljishlaridir. O'quv qo'llanmada yorug'lik (yoritish, yoki yorug'lik berish) va ularning landshaft dizaynini shakllantirishdagi roli, shuningdek, arxitektura inshootlarida va arxitektura majmualarida yorug'lik-yoritish qonunlaridan foydalanish masalalari qarab o'tilgan.

O'quv qo'llanma arxitektor-dizayner talabalari uchun dasturiy talablarni hisobga olgan holda yozilgan. Bunda rangtasvir asarlarini tashkillashtirish va yaratishda yorug'lik va soyaning ilmiy-nazariy asoslariga tayanilgan, shuningdek, ushbu usullarni o'rganish uslublari tahlil qilingan.



**VII. TALABALARNING RANGTASVIR BO'YICHA  
MASHG'ULOTLARDA BAJARGAN ISHLARIDAN  
NAMUNALAR**

**Natyurmortlar:**






























**Manzara (peyzaj)lar:**


























Шабасва Лилия  
Група: 2А-08Др.



Хегай Валерия  
1а-08 Ар



М.О. Сид  
Велика

**Portretlar:**











**Figuralar:**































## VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch – Toshkent, Ma'naviyat,- 2008y.- 176 bet.
2. I.Karimov. Uzbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida Toshkent, «Uzbekiston», 2011 y. 384 bet
3. Izobrazitelnoe iskusstvo Uzbekistana – Izdatelstvo «Sovetskiy xudojnik» 1957g.
4. «Antalogiya jivopisi Uzbekistana» 2010g.
5. Volkov N.N. Svet v jivopisi. – M.. Iskusstvo.1985g.
6. Kuvinov E.V. Akvarel dlya arxitektora. Plener. Grafika. – Izdatelstvo «Arxitektura-S» 2003g.
7. Mixaylov A.M. Iskusstvo akvareli. Izobrazitelnoe iskusstvo M..1995g.
8. Revyakin P.P. Texnika akvarelnoy jivopisi. – M..Arxitektura i stroitelstvo.1959g.
9. Tarramon X.S. Fresket G. Kak pisat akvarelyu. Avrora 1995g.
10. Puchkov A.S., Triselev A.V. Metodika raboti nad natyurmortom – Prosveshenie 1982g.
11. Vipper B.F. Problema natyurmorta. – Kazan, 1992g.
12. Ioganson B. Umet videt 1989g.
13. «Rol osvesheniya v natyurmorte» Jurnal «yuniy xudojnik» №6 1984g.
14. Yashuxin A.P. Jivopis. M..Prosveshenie 1985g.
15. Kuprin A. Materiali jivopisi. – Soveti masterov. Leningrad 1973g.
16. Beda G.V. Jivopis. –M.. Prosveshenie,1986g.
17. Odnoralov N.V. Materiali v izobrazitelnom iskusstve. M.. Prosveshenie, 1983g. s .75.

## IX. ILLYUTRASIYALAR RO'YXATI

### *Rassomlarning asarlari :*

- P.P.Benkov.** «Yangi oilada» m.m.b. 1942 y.
- N.Kashina** «Natyurmort» m.m.b. 1960 y.
- U.Tansikbaev.** «Kolxoz peyzaji» m.m.b. 1958 y.
- R.Ahmedov.** Natyurmort «Yoz ne'matlari» m.m.b. 1986 y.,  
«Tong, Onalik» x.m.1962 y.,  
«Ustaxonada» m.m.b. 1980 y.,  
«Mirganov portreti» m.m.b. 1984 y.
- Villem Klas Xeda.** «Nonushta» m.m.b.
- A.Ikromjonov.** «Qumg'on natyurmorti» m.m.b. 1996 y.
- O.K. Tatevosyan.** «Natyurmort» m.m.b. 1953 y.
- D. Mamedova.** «Buxoro» 2008 y. m.m.b.
- Z.Sharipova.** «Anor» m.m.b. 1999 y.
- D.A.Nozilov** «Tog'lar arxitekturasi» peyzajlari. Qog'oz akv.
- A.P.Slugin** «Ayol portreti». Qog'oz akv.
- N.V. Gilmanova.** «Muallifning natyurmortlar seriyasi» mato, moy buyoq

**Rassomlarning muzey fondi va shaxsiy kolleksiya asarlari, shuningdek, arxitektor va dizayner talabalarning o'quv ishlaridan foydalanilgan.**



## MUNDARIJA

<b>I. KIRISH.....</b>	<b>5</b>
<b>1. “RANGTASVIR” FANI BO’YICHA NAMUNAVIY ISHCHI DASTUR.....</b>	<b>8</b>
1.1. O’rganishning maqsad va vazifalari.....	9
1.2. Fan bo’yicha talabalarning bilimlari, uquv va ko’nikmalariga qo’yiladigan talablar.....	10
1.3. O’quv rejadagi boshqa fanlar bilan aloqalari .....	10
1.4. Fanni o’qitishda yangi texnologiyalar.....	11
1.5. O’rganish bo’yicha semestrlar va ko’rsatish metodikasi .....	11
1.6. O’quv ishlarining (vazifalarining) turlari bo’yicha umumiy yuklama .....	12
1.7. O’quv materialining mazmuni.....	12
1.8. Amaliy mashg’ulotlar mavzularining taxminiy (namunaviy) ro’yxati.....	13
1.9. Mustaqil ta’limning mazmuni .....	16
<b>2. “RANGTASVIR” TUSHUNCHASI .....</b>	<b>22</b>
<b>3. REALISTIK RANGTASVIRNING VAZIFALARI .....</b>	<b>24</b>
<b>4. YORUG’LIK VA RANGLAR TABIATI.....</b>	<b>24</b>
<b>5. RANG SPEKTRI .....</b>	<b>25</b>
<b>6. RANGLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI .....</b>	<b>26</b>
<b>7. KONTRASTLAR.....</b>	<b>31</b>
<b>31</b>	
7.1. Ranglar aralashuvi.....	34
7.2. Oqishlik va rang kontrastlari .....	37
7.2.1. Oqishlik kontrasti.....	38
7.2.2. Rang kontrasti.....	39
7.3. Lokal (mahalliy) rang.....	42
<b>8. QARASH VA KO’RA OLIISH SAN’ATI.....</b>	<b>46</b>
<b>9. SOYA-YORUG’ .....</b>	<b>51</b>
<b>10. MASOFAGA BOG’LIQ BO’LGAN RANG O’ZGARISHLARI. HAVO (FAZOVIY) VA YORUG’LIK PRESPEKTIVASI.....</b>	<b>60</b>
10.1. Havo perspektivasining xususiyatlari.....	61
<b>11. NATURANING UMUMIY TONLI VA RANGGA OID HOLATLARI .....</b>	<b>66</b>
<b>12. RANGLAR BIRLIGI, NATURA RANGLARINING UYG’UNLIGI (KOLORIT).....</b>	<b>69</b>

<b>13. TASVIRNING BIR BUTUNLIGI (YAXLITLIGI)</b> .....	<b>71</b>
<b>14. BO'YOQLAR ARALASHUVI</b> .....	<b>72</b>
<b>15. AKVAREL</b> .....	<b>74</b>
<b>16. AKVAREL BILAN ISHLASH METODIKASI</b> .....	<b>75</b>
16.1. Tonli yuvib tozalash (grizayil).....	75
16.2. Ko'pqatlamli akvarel bo'yog'ini berish (lessirovka).....	75
16.3. "Alla-prima" metodi.....	77
16.4. Namlik bo'yicha ishlash usuli nam yuzali asos bo'yicha.....	77
16.5. Aralash metodlar bilan bo'yoq berish.....	78
<b>17. GUASH</b> .....	<b>78</b>
<b>18. TEMPERA</b> .....	<b>81</b>
<b>19. PASTEL</b> .....	<b>81</b>
<b>II. SODDA VA MURAKKAB MAISHIY PREDMETLAR RANGTASVIRI</b> .82	
<b>20. O'QUV NATYURMORTIDA YORUG'LIKNING ROLI</b> .....	<b>84</b>
<b>21. KO'P QATLAMLI RANGTASVIRDA RANG VA YORUG'LIK BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (LESSIROVKA)</b> .....	<b>92</b>
21.1. Lessirovkalarning rang va bo'yoqlar aralashmasi effekti bilan aloqalari .....	94
21.2. Lokal rang dog'lari uyg'unlashuviga asoslangan, lessirovkalarning kolorit bilan aloqalari .....	95
21.3. Yorug'- soya vositasida lokal rang massasining birikishidagi lessirovkalar .....	97
<b>22. NATYURMORT</b> .....	<b>97</b>
22.1. Natyurmort ustida ko'pqatlamli rangtasvir metodi bilan ishlash bosqichlari .....	99
<b>23. PEYZAJ</b> .....	<b>99</b>
<b>24. PLENER RANGTASVIRI</b> .....	<b>103</b>
<b>25. PORTRET</b> .....	<b>107</b>
<b>26. "ELKA-BILAN BOSH"</b> .....	<b>110</b>
<b>27. ODAM FIGURASI</b> .....	<b>118</b>
<b>III. KOLORISTIKA</b> .....	<b>123</b>
<b>29. RANGLAR</b> .....	<b>125</b>

<b><u>30. RANGLARNI IDROK ETISH PSIXOLOGIYASI.....</u></b>	<b><u>128</u></b>
<b><u>31. TONLAR.....</u></b>	<b><u>131</u></b>
<b><u>32. TESTLAR .....</u></b>	<b><u>132</u></b>
<b><u>33. RANGLAR – TONLARNING FAZOVIYLIKNI (KENGLIKNI) HOSIL QILUVCHI XUSUSIYATLARI .....</u></b>	<b><u>133</u></b>
<b><u>34. RANG VA ODAM.....</u></b>	<b><u>134</u></b>
<b><u>35. RANGLAR SIMVOLIKASI.....</u></b>	<b><u>138</u></b>
<b><u>36. KISHINING INDIVIDUAL VA JAMOATCHILIK ISHLARIDA RANG .....</u></b>	<b><u>139</u></b>
<b><u>37. RANGLARNING DAVOLASH XUSUSIYATLARI .....</u></b>	<b><u>143</u></b>
<b><u>IV. YORUG’LIK VA RANGLARNING INTERER DIZAYNIGA TA’SIRI .</u></b>	<b><u>145</u></b>
<b><u>38. UYINGIZNING RANGI .....</u></b>	<b><u>146</u></b>
<b><u>39. LANDSHAFTLI LOYIHALASHTIRISHDA YORUG’LIK VA RANGNING ROLI .....</u></b>	<b><u>152</u></b>
<b><u>V. ARXITEKTURAVIY YORUG’LIK.....</u></b>	<b><u>156</u></b>
<b><u>40. ARXITEKTURAVIY KOMPOZISIYA .....</u></b>	<b><u>167</u></b>
<b><u>VI. XULOSA.....</u></b>	<b><u>174</u></b>
<b><u>VII. TALABALARNING RANGTASVIR BO’YICHA MASHG’ULOTLARDA BAJARGAN ISHLARIDAN NAMUNALAR.....</u></b>	<b><u>176</u></b>
<b><u>VIII. ADABIYOTLAR RO’YXATI:.....</u></b>	<b><u>200</u></b>
<b><u>IX. ILLYUTRASIYALAR RO’YXATI .....</u></b>	<b><u>201</u></b>



**Mazkur o'quv qo'llanma muallifi –  
Toshkent Arxitektura Qurilish Institutining  
“Rasm, rangtasvir va haykaltaroshlik” kafedrasida dosenti  
*Gilmanova Nafisa Valiahmetovna***



*Nafisa Gilmanova* - Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika Universitetining «Badiiy grafika» fakultetida, taniqli ustozlar Ya.Salpinkidi va I.Shoabdullaevlardan tahsil olgan. Mehnat faoliyatini mazkur..dargohning «Qalamtasvir va rangtasvir» kafedrasida..o'qituvchilik qilishdan boshlagan.

1991 – 1992 yillari Sankt-Peterburg shahrida I.E. Repin nomidagi «Rangtasvir, haykaltaroshlik va arxitektura» institutida malakasini oshirgan.

1997 – 2002 yillarda O'zbekiston Badiiy Akademiyasi qoshidagi «Tasviriy va amaliy san'at liseyida o'qituvchilik qilgan.

2002 yildan Toshkent arxitektura - qurilish institutida «Dizayn kafedrasining katta o'qituvchisi. Hozirgi vaqtda shu institutning «Rasm, rangtasvir va haykaltaroshlik» kafedrasining dosenti.

Nafisa Gilmanova pedagoglik qilish bilan birga, ijodiy faoliyatini ham yonma-yon olib boradi. 1995 yildan boshlab Respublika va Xalqaro ko'rgazmalar ishtirokchisi. Rassom ikki marotaba O'zbekiston badiiy Akademiyasi tomonidan «Zamonaviy ruhda mahorat bilan yaratilgan natyurmort turkum asarlari uchun» diplomlari bilan va Tataristan Respublikasi Madaniyat Ministrligining diplomi bilan taqdirlangan.

2000 yildan beri O'zbekiston badiiy Akademiyasining badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi. 2009 yildan rassomlar, san'atshunoslar va xalq ustalari «Ijod» assosiasiyasining a'zosi. Hozirgi vaqtda Nafisa Gilmanova asarlari Rossiya Federasiyasining muzeylarida hamda Xitoy, Koreya, Turkiya, Germaniya, Kanada, Qozog'iston shaxsiy kolleksiyalarida saqlanadi.

Rassom asosan tasviriy san'atning «natyurmort» janrida ijod qiladi. Unga eng yaqin uslub Niderland maktabining natyurmort janri hisoblanadi. Lekin u o'zbek ustalarining natyurmort janridagi tajribasidan va milliy koloritga tayangan holda, yumshoq, och-malla, kulrang ranglarda lessirovka uslubida ish yuritib "sfumato" texnikasidan foydalanadi.

O'z his tuyg'ularini rassom soya va yorug'ni har hil yarim soyadagi buyumlarda uynatish tufayli beradi. Balki Nafisa Gilmanova ijodining o'ziga xosligi shundadir... Ijodiy izlanishlarini rassom qo'lingizdagi «Rangtasvirda yorug'lik va rang» o'quv qo'llanmasida arxitektor va dizayn yunalishlari talabalari uchun havola etgan.

**Gilmanova Nafisa Valiahmetovna. «Rangtasvirda yorug'lik va rang»**

«Rangtasvirda yorug'lik va rang»

**UDK 747.017.4/75**

**BBK 85.14**

Toshkent – 2012- 207 bet.

Dizayn -

**Gilmanova N.V.**

Matn teruvchi  
va fotodizayn -

**Garifulin I. R.**

Muharrir

**Shukur Qurbon**

Tarjimon:

**Sherzod Boyqobilov**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Respublika oliy ta'lim muassasalarining arxitektura fakultetlari talabalari uchun  
150 000 – “San’at” ta’lim sohasining  
5150900 – “Dizayn” (Arxitektura muhitlari dizayni) ta’lim yo’nalishi bo’yicha o’quv qo’llanma sifatida tavsiya etilgan, buyruq № 332/I, 15.08.2012y. 207bet.  
Bosishga ruxsat etildi 24.11.2012 g.

Format 21x29,7. 1/2 Garnitura «Times New Roman»  
(Rus-Uzb.tilida) Adadi 200 dona  
“NUR ALLABAMA” bosmaxonasida chop etildi. Toshkent, Olmazor ko’chasi, 6/7.